

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
YOSH OLIMLAR KENGASHI

YOSH OLIMLAR
AXBOROTNOMASI

2(4)2024
ILMIY JURNAL



S.S.Gulyamov
bosh muharrir,
yuridik fanlari doktori, professor,
O'zR FA Yosh olimlar kengashi raisi

G.H.Tillayeva
bosh muharrir o'rinbosari,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent,
O'zR FA Yosh olimlar kengashi rais o'rinbosari

L.Sh.Saidova
Axborotnomaning mas'ul kotibi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD.
O'zR FA Navoiy bo'limi katta ilmiy xodimi,
Yosh olimlar kengashi raisi

Tahrir hay'ati:

B.S.Yuldashev – fizika-matematika fanlari doktori, akademik; **S.Z.Mirzayev** – fizika-matematika fanlari doktori, professor; **M.V.Kremkov** – fizika-matematika fanlari doktori, professor; **B.T.Ibragimov** – kimyo fanlari doktori, akademik; **A.S.TO'rayev** – kimyo fanlari doktori, akademik; **S.Sh.Rashidova** – kimyo fanlari doktori, akademik; **S.S.Gulyamov** – iqtisod fanlari doktori, akademik; **Q.X.Abduraxmonov** – iqtisod fanlari doktori, akademik; **A.Sh.Bekmurodov** – iqtisod fanlari doktori, professor; **G'A.Baxadirov** – texnika fanlari doktori, professor; **I.I.Sadikov** – texnika fanlari doktori, professor; **A.A.Rizaev** – texnika fanlari doktori, professor; **I.R.Rustambekov** – yuridik fanlar doktori, professor; **A.N.Yakubov** – yuridik fanlari doktori; **S.S.Bozarov** – yuridik fanlari doktori; **B.A.Abduxalimov** – tarix fanlari doktori, professor; **M.R.Raximov** – tarix fanlari doktori, professor; **A.Ashirov** – tarix fanlari doktori, professor, **M.M.Qaxxarova** – falsafa fanlari doktori, professor v.b., **N.H.Hakimov** – falsafa fanlari doktori, professor, **B.O.Turayev** – falsafa fanlari doktori, professor.

MUASSIS:

O'zbekiston Respublikasi Fanlarakademiya.

Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot
Agentligi tomonidan

24.02.2011 yilda ro'yxatga olingan va
26.03.2018 yilda qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

Guvohnoma raqami № 0598

Tahririyat manzili:

100047, Toshkent, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70.

Tel.: (8-371) 233-50-33

Mob.: (99893) 594-14-02

Elektron pochta manzillari:

yok_axborotnoma@mail.ru,

smu_us@mail.ru, yok@academy.uz

Web: <http://www.yok.academy.uz>

<http://www.facebook.com/smu.an.ru/uzbekistan>

*Yosh olimlar Axborotnomasi O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasining 2023-yil 31-oktabrdagi*

*№345/10-sonli, 2023-yil 30-noyabrdagi №346/5-sonli va
2024-yil 2-avgustdagi №359/5-sonli rayosat qarorlariga
ko'ra fizika-matematika, kimyo, biologiya, yuridik,
san'atshunoslik, tarix, siyosiy va falsafa fanlari bo'yicha
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatida mavjud.*

*Mualliflik huquqi O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Yosh olimlar kengashiga tegishli.
Barcha huquqlar himoyalangan. Axborotnoma materiall
aridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yosh oliml
ar kengashi ruxsati bilan amalga oshiriladi.*

© O'zR FA Yosh olimlar Axborotnomasi tahririyati,
© 2024 yil. №2.

SSN 2181-5186

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI
YOSH OLIMLAR KENGASHI**

«Yosh olimlar axborotnomasi»
«Вестник молодых ученых»
«The bulletin of young scientists»

**HAMKORLIK:
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar
Akademiyasi Birlashgan
kasaba uyushma qo‘mitasi**
100047, Toshkent, Yahyo G‘ulomov
ko‘chasi, 70.
Tel.: (8-371) 233-67-93
(8-371) 233-42-24
Elektron pochta manzillari:
kasaba@academy.uz

«Gulyamov, Sadikov and
Partners» advokatlik firmasi.
100072. O‘zbekiston Respublikasi.
Toshkent sh., Bobur ko‘ch., 54.
Tel.: (Q99871) 254-88-48,
Faks: (Q99871) 254-88-48.
<http://www.legality.uz>
Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz
tillarida chop etiladi.

Muharrir:
S.S.Gulyamov
Tarjimon: H.Nazirova
Elektron sahifalash
operatori: N.Tilovov

Bichimi 60x84¹G¹⁶.
Rizograf bosma usuli.
Times garniturasi. Shartli bosma
tabog‘i: 10.Adadi: 300.
Buyurtma: 16.

O‘zR FA Axborot texnologiyalarini
rivojlantirish markazi (DUK)
bosmaxonasida chop etilgan.

Jurnalga 2011 yilda
asos solingan
Har uch oyda bir marta
nashr etiladi
2(4)2024

*Ustozlar maktabi * Школа наставников * School of mentors*		
1.	M.T.Turg‘unov. “Avesto”da shaxsga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari	3
Fizika-matematika va texnika fanlari *Физико-математические и технические науки* *Physical, mathematical and technical sciences*		
2.	X.X.Axmadbekov. Pochta aloqasida jo‘natmalarni saralashni samarali tashkil etish yo‘llari	10
3.	U.Yermekboyev, O.Giyozov. Jyeroy-sardara qatlamli konidan donador fosforitlarni qazib olishda uning kon-texnologik sharoitlarini va loyihaviy yechimlarini baholashlarni tahlil qilish	15
4.	O.Q.Kamolov. Avtotransport vositalarining yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga innovatsion yondashuv	21
5.	G.I.Kasimova, Sh.T.Jo‘rayeva. Raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va mobil tijoratning rivojlanish tendensiyalari	26
6.	R.Rakhimov, D.Mukhtorov. Development of simplified designs of infrared solar dryers	32
7.	Л.Ш.Саидова, Ш.Пулатова. Основные тенденции в потреблении минеральных ресурсов	37
8.	M.N.Saloxiddinova. Paxta xomashyosini tashishda havodan ajratish jarayonida tola sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash yo‘llari	42
9.	T.Ya.Hazratova. Сопоставительный анализ методов определения, оценки и прогноза прочности текстильных нитей и пряз	48
10.	Ш.И.Хакимов, О.С.Кобилев. Исследование возможности возникновения динамических проявлений горного давления и их условия	54
11.	Б.Б.Халхаджаев. О слабом обобщенном решении полунелокальной краевой задачи для уравнения смешанного типа второго рода четвертого порядка	58
12.	A.Ч.Хуррамов. Анализ существующих конструктивных решений концевых опор мостовых сооружений и схема применения фиброармированного грунта	66
13.	Ж.З.Шерматов, М.С.Пайзуллаханов, О.Т.Ражаматов. Характеристики керамических ферритовых материалов на основе гидроксипатита синтезированных на солнечном потоке	71
14.	E.Sh.Yuldashev. Lokal seysmik monitoring "Yangi Andijon" shaxri hududida	74
15.	Э.Ш.Юлдашев, Х.А.Исламов, А.Р.Рахматов. Инженерно-сейсмологические изыскания по определению воздействий на здания и сооружений при промышленных взрывах, производимых в месторождениях «Кальмакыр» и «Ешлик-1».	80
*Ijtimoiy-gumanitar fanlar * Социально-гуманитарные науки* *Social and humanitarian sciences*		
16.	B.X.Allamurodov. Digital Diplomacy in the foreign policy of Central Asia (In a case of Kazakhstan and Uzbekistan)	86
17.	D.I.Babajanova. Surrogat onalik to‘g‘risidagi shartnoma taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilash masalalari	93
18.	D.U.Mamanova. Makon-zamon va obrazlararo o‘xshash ikki roman	99
19.	F.M.Nizomov. Qissada davr ijtimoiy talqini	105
20.	U.S.Saribayeva. Gender tengligi va kompetentlikning ijtimoiy-psixologik mazmuni, nizoli oilalarda namoyon bo‘lishi	113
21.	A.K.Utebergenova. Ommaviy axborot tizimida televideniyeining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari	119
22.	A.O.Xo‘jayorov. Abdulaziz al-Ustug‘dodiziy an-Naxshabiy hadishshunos alloma	124
23.	Д.Д.Шаймарданова. Наследование в цифровой эпохе: роль нотариальных протоколов в урегулировании прав на цифровые объекты	129
24.	B.F.Sharipov. Xitoy xalq Respublikasi va Vyetnam sotsialistik Respublikasi o‘rtasidagi munosobatlarning kelajagiga nazar	136
25.	M.A.Yakubova. Правовая природа криптоактивов и проблемы их правового регулирования	140
26.	M.T.Hasanova. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy faol kompetentsiyalarini rivojlantirishning kontseptual asoslari	145
*Tabiiy fanlar * Естественные науки * Natural sciences*		
27.	G.J.Ulugbekova, Sh.A.Adxamov. Kichik maktab yoshidagi bolalarda pastki jag‘ shoxi uzunligining yoshga mos kraniometrik o‘lchamlari	149
*Yoshlar zamini * Молодежная площадка * Youth ground*		

**“AVESTO”DA SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR
UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI**

M.T.Turg'unov*

Kalit soʻzlar: *inson, hayot, sogʻliq, jinoyat, jismoniy harakat, “Ochiripta”, “Vandidod”, qamchin, aspahiq-ashatra, saravushu-charana, “pishavtanu”, “aridush”, “avauyrayshta”, tan jarohati, qobilyat.*

“Avesto” inson sogʻligʻi va hayotiga qarshi boʻlgan jinoyatlarni batafsil kvalifikatsiya etib, shunga mos ravishda jazo choralarni belgilaydi [1]. Qasddan hujum qilish yoki jazava holatida hujum qilish, tahdid qilish, shifokorning ziyon yetkazuvchi harakati, homilani olib tashlash, resus va homiladorlik paytida ayolning sogʻligʻiga qarshi jinoyatlar shaxsga qarshi jinoyatlar hisoblanadi [2].

Darhaqiqat, insonning hayoti va sogʻligʻi shaxsning bebaho boyligi hisoblanadi va uning bu boyliklardan mahrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi shaxsga qaratilgan jinoyat yoki qasdan sodir etilgan jinoyat hisoblanadi. Inson yashar ekan, hayotdan, uning neʼmatlaridan bahramand boʻlib yashashga intiladi, hayotdan mahrum qilishni oʻrnini hech narsa bilan toʻldirib boʻlmaydi. Insonning sogʻligʻiga zarar yetkazilishi unga jismoniy, axloqiy, ruhiy azoblar berib, uning hayotiy faoliyatini yoki jamiyatdagi oʻrnini cheklab qoʻyadi.

Jinoiy qilmish insonga xos xatti-harakatlarning bir koʻrinishi sifatida, avvalo, ularning psixologik mazmunining barcha alomatlariga ega boʻlmogʻi lozim. Insonga xos xatti-harakatlarning fiziologik asosini jismoniy harakat tashkil qiladi. Jismoniy harakat faol yoki passiv boʻlishi mumkin. U ogʻzaki faollik (firibgarlik, tuhmat, tahdid, tashviqot, tahqirlash, xaqorat qilish, oʻzga shaxs toʻgʻrisida notoʻgʻri axborot tarqatish va boshqalar), tajovuzkorlik predmetlariga fizik-mexanik taʼsir qilish (oʻgʻrilik, bosqinchilik, inson organizimiga tan jarohati yetkazish va boshqalar) yoxud jinoyat obyekti va predmetiga birgalikdagi mexanik va ogʻzaki taʼsir (bezorilik, hokimiyat va mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, jinoyat jamiyatning ijtimoiy hayotidagi murakkab hodisalardan biridir, shuning uchun ham uning oʻrganilishiga nafaqat yuristlar, balki filosoflar siyosatshunoslar, sotsiologlar va boshqa soha olimlari ham koʻp eʼtibor qiladi [3].

Qasddan sodir etilgan jinoyat shaxsning ongli, irodaviy va aniq maqsadga yoʻnaltirilgan xulq-atvoridan iborat xatti-harakatlar hisoblanadi. “Avesto”da biz quyidagilarni oʻqiymiz: “Kimda-kim birovni urmoq qasdida otlansa, uning gunohi “ochiripta”dir” [4]. “Ochiripta” - “olmoq” maʼnosida. “Vandidod” taʼbiricha, bir kishini urmoq qasdida qoʻlga qurol-aslaha olgan shaxs gunohi shunday deb yuritiladi. “Avesto”da Zardusht Ahura Mazdadan soʻraydi: “- Ey, olamni yaratgan Zot! Ey, Haqiqat! Kimda-kim “ochiripta” gunohi bilan bulgʻansa, gunohining jazosi ne boʻladi? Ahura Mazda javob berdi: - Besh qamchin aspahiq-ashatra bilan, besh qamchin saravushu-charana qamchini bilan savalanadi. Ikkinchi marta oʻn qamchin aspahiq-ashatra bilan, oʻn qamchin saravushu-charana bilan savalanadi. Uchinchi marta oʻn besh marta aspahiq-ashatra bilan, oʻn besh marta saravushu-charana bilan savalanadi. Toʻrtinchi marta oʻttiz qamchin aspahiq-ashatra bilan,

* Turg'unov Murodjon Tursunboyevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq institutining direktori.

o'ttiz qamchin saravushu-charana bilan savalanadi. Beshinchi marta ellik qamchin aspahiq-ashatra, ellik qamchin saravushu-charana bilan savalanadi. Oltinchi marta oltmish qamchin aspahiq-ashatra, oltmish qamchin saravushu-charana bilan savalanadi. Yettinchi marta to'qson qamchin aspahiq-ashatra bilan, to'qson qamchin saravushu-charana bilan savalanadi" [5].

Shunday qilib, agar kimda-kim yetti marta "ochiripta" gunohi bilan bulg'ansa, ya'ni kimda-kim birovni urmoq qasdida otlansa, jinoyatlar jami bo'yicha "Aspahiq ashatra", ya'ni otning terisi bilan yasalgan qamchin bilan to'qson marta va "Saravushu charana", ya'ni buqa terisidan to'qilgan qamchin bilan to'qson marta savalangan. "Kimda-kim birovning boshi ustiga urmoq qasdida bostirib kirs, uning gunohi "avauyrayishta", ya'ni jahl ustida qo'lga qurol olib birovni urmoqchi bo'lgan shaxsning jinoyati shunday yuritilgan [6]. Avaurayishta - "aylantirmoq" ma'nosida. Qo'lga qurol olib, birovni urmoq qasdida jahl bilan uni aylantirgan kimsa gunohi shunday yuritiladi [7]. "Kimda- kim g'araz bilan birovni urmoqqa qasd qilsa, uning gunohi "aridush" bo'lib, qasd qilgan mazlum qo'lidagi qurol bilan urmaydi, bordi-yu, urgan taqdirda ham uning zahmi uch kun ichida tuzalishi kerak" [8].

Aridush qo'lga qurol olib, birovni urmoqqa qasdlangan kishi gunohining nomi. Qasddan sodir etilgan jinoyat shaxsning ongli irodaviy va aniq maqsadga yo'naltirilgan xulq-atvoridan iborat xatti-harakatlar hisoblanadi. Jinoyat uzoq yoki qisqa davr ichida sodir etiladi. Shu bois jinoyat tarkibining obyektiv tomonini amalga oshirishdan oldin shaxs ongida fikrlash jarayoni yuzaga kelib, kelgusida amalga oshiradigan jinoiy xatti-harakatlar rejasini tuzadi. Mazkur jarayonni qisqa qilib, jinoiy qasdning shakllanishi deb atash mumkin. Jinoiy qasdning shakllanishi bosqichi jinoiy maqsadni aniqlash, unga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni anglash, jinoyatni sodir etish va keyinchalik uning izlarini yo'qotish usullarini topish, jinoyatni sodir etishda ko'maklashish uchun boshqa shaxslarni jalb etish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi haqida fikr yuritish kabilarni qamrab oladi. Biroq bularning hammasi shaxs ongida bo'lib o'tadi.

Amaliyotning ko'rsatishicha, jinoyat sodir etishga qasd qilgan shaxs uni yashiradi. Lekin ko'p hollarda shaxsning jinoyat sodir etish maqsadi boshqa shaxslarga ayon bo'lib qoladi, ya'ni bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beriladi yoki jamoatchilikka oshkor bo'ladi yoxud shaxs o'z fikrlarini boshqalar bilan bo'lishganda atrofdagilar (qarindosh-urug', do'stlar, tanish-bilish, qo'ni-qo'shni va shu kabilarga) jinoyat sodir etishi qasd qilganligi haqida so'zlab berganidan so'ng ayon bo'ladi. Mazkur hol jinoyat huquqi nazariyasida qasdni izhor qilish deb atalib, unga shaxs ongida jinoyat sodir etish bo'yicha tashqi yuzaga kelgan va shakllangan xohish-istak, maqsad deb ta'rif beriladi.

Jinoiy qasd haqida o'zgalarga bildirish esa shaxs tomonidan o'z jinoiy maqsadlarini og'zaki, yozma, konkyudent xatti-harakatlar, ya'ni imo-ishora, muayyan so'z yoki tana harakatlari bilan boshqa shaxslarga xabar berish orqali amalga oshiriladi. Respublikamiz jinoyat qonunida jinoiy qasdni izhor qilish va u haqda bildirish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan [9]. Ammo, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, "Avesto"da kimda-kim birovni urmoq qasdida otlansa, kimda-kim birovning boshi ustiga urmoq qasdida bostirib kirs, kimda-kim g'araz bilan birovni urmoqqa qasd qilsa, ular jazoga tortilganlar. Kimda-kim besh marta ushbu gunohga qo'l urs, u "pishavtanu" bo'ladi. Pishavtanu - "o'z gunohi uchun tanasini bag'ishlagan odam" ma'nosini anglatadi. Uning boshqa bir nomi "arzon o'lim", ya'ni gunohlari evaziga o'lim jazosini topgan shaxs. Pishavtanu gunohi uchun boshqa jazo usullari ham qo'llanilgan. Chunonchi "Avesto"da o'qiyimiz: "Kimda-kim oldingi gunohlarining tovonini to'lagach, sakkizinchi marta "ochiripta" yozug'i bilan bulg'angan bo'lsa, uning jazosi nechuk? Ahura Mazda javob berdi: - Uning kirdikori "pishavtanu"dir. Gunohining jazosi yigirma qamchin aspahiq-ashatra bilan, yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalanadi. Kimda-kim "ochiripta" gunohi bilan bulg'ansa va tovon to'lashdan bosh tortsa, uning jazosi nechuk? Ahura Mazda javob berdi: - Uning kirdikori "pishavtanu"dir. Gunohining jazosi yigirma qamchin aspahiq-ashatra, yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalanadi" [10].

Yuqorida ta’kidlanganidek, “avauyrayshta” gunohi, ya’ni qo’lga qurol olib, birovni urish qasdida jahl bilan aylantirgan shaxs sodir etgan gunoh sanaladi. Avestoda mazkur jinoyat darajalari, shu bilan birga mazkur gunohdan poklangandan keyin yana sodir etish holatlari belgilangan. Unga ko’ra, mazkur gunohni birinchi marta sodir etgan yoki takroriy sodir etilishi miqdoriga qarab jazo choralari o’zgarib borgan.

Masalan, kimda-kim “avauyrayshta” gunohini birinchi marta sodir etgan bo’lsa, u o’n qamchin aspahiq-ashatra bilan va o’n qamchin saravushu-charana bilan savalangan. Ikkinchi marta o’n besh qamchin aspahiq-ashatra bilan va o’n besh qamchin saravushu-charana bilan; uchinchi marta o’ttiz qamchin aspahiq-ashatra bilan va o’ttiz qamchin saravushu-charana bilan; to’rtinchi marta ellik qamchin aspahiq-ashatra bilan va ellik qamchin saravushu-charana bilan; beshinchi marta yetmish qamchin aspahiq-ashatra bilan va yetmish qamchin saravushu-charana bilan; oltinchi marta to’qson qamchin aspahiq-ashatra bilan va to’qson qamchin saravushu-charana bilan savalangan [11].

Agarda biror bir shaxs oldingi gunohlarining tomonini to’lagandan keyin ham yettinchi marta “avauyrayshta” gunohi bilan bulg’ansa, u “pishavtanu” amalini sodir etgan hisoblanib, u yigirma qamchin aspahiq-ashatra bilan, yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalangan.

Bundan tashqari, kimda-kim “avauyrayshta” gunohi bilan bulg’angan bo’lsa va tovon to’lashdan bosh tortsa, u ham “pishavtanu” amalini sodir etgan hisoblanadi. Bunday gunohining jazosi yigirma qamchin aspahiq-ashatra bilan va oltmish qamchin saravushu-charana bilan savalangan.

Avestoda “aridush” gunohi va uning jazosi belgilangan. Unga ko’ra, aridush gunohini birinchi marta sodir etgan shaxs, o’n besh qamchin aspahiq-ashatra bilan va o’n besh qamchin saravushu-charana bilan savalangan [12]. Xuddi yuqorida keltirilganidek, mazkur gunohni takroran, yoki tovon to’langanidan keyin yana sodir etilganda qo’llaniladigan jazo chorasi aniq belgilangan. Bunda jazo choralari og’irlashib borganligining guvohi bo’lamiz [13].

“Avesto”da birovni urib, unga qattiq tan shikasti yetkazilganda ham shaxsga nisbatan jazo choralari qo’llanilgan [14]. O’zbekiston Respublikasida ham fuqarolarning sog’lig’i va jismoniy daxlsizligini jinoyatkorona tajovuzlardan muhofaza qilish jinoyat huquqining eng dolzarb vazifalaridandir. Yuridik adabiyotlarda badanga shikast yetkazishning yagona tushunchasi hanuzgacha ishlab chiqilmagan. Yuristlar badanga shikast yetkazish deb topilishi mumkin bo’lgan sog’liqqa zarar yetkazilishining chegaralarini aniq belgilash va uni boshqa zo’ravonlik tajovuzlaridan farqlash (ajratish) imkonini beradigan ikkita obyektiv mezonni asos qilib ko’rsatadilar:

1) odam tanasi a’zolari va to’qimalarining anatomik bus-butunligini yoki bir me’yorda ishlab turishining buzilganligi;

2) odam sog’lig’iga, sud tibbiy ekspertizasi yordamida yetkazilgan zararining og’irligi va darajasini aniqlash imkonini beradigan zararining yetkazilganligi.

Ana shu mezonlardan kelib chiqib, badanga shikast yetkazishni o’zga kishining sog’lig’iga uning xohishiga zid ravishda, tashqi muhit omillari ta’siri ostida to’qimalar yoki a’zolarining anatomik bus-butunligi yoki fiziologik funksiyalari buzilishiga sabab bo’lgan g’ayriqonuniy zarar yetkazish, deb ta’riflash mumkin [15].

“Avesto”da birovni urib, unga qattiq tan shikasti yetkazilganda shaxsga nisbatan qilmishi tegishli jazo choralari qo’llanilgan. Unga ko’ra, kimda-kim birovni urib, unga qattiq shikast yetkazsa, gunohkor o’ttiz qamchin aspahiq-ashatra, o’ttiz qamchin saravushu-charana bilan savalangan. Xuddi shuningdek, ikkinchi marta ellik qamchin aspahiq-ashatra bilan, ellik qamchin saravushu-charana bilan; uchinchi marta yetmish qamchin aspahiq-ashatra bilan, yetmish qamchin saravushu-charana bilan; to’rtinchi marta to’qson qamchin aspahiq-ashatra bilan, to’qson qamchin saravushu-charana bilan savalangan.

Shu bilan birga, kimda-kim oldingi gunohlarining tovonini to'laganidan keyin ham beshinchi marta ushbu gunohni sodir etgan taqdirda, u "pishavtanu" amalini sodir etgan bo'lib, gunohi yigirma qamchin aspahiq-ashatra bilan, yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalangan. Kimda-kim shunday gunoh sodir etib, tovon to'lashdan bosh tortsa, u yigirma qamchin aspahiq-ashatra bilan, yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalangan [16].

Shunday qilib, Avestoda shaxsning sog'lig'i, tan butunligini asrash, uni turli darajadagi zo'ravonlik va o'zboshimchaliklardan muhofaza qilishga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu qoidalarining tatbiq etilishi natijasida, jamiyat a'zolarining zo'ravonliklardan muhofazasi ta'minlangan.

Mamlakatimiz jinoyat qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy qonunchilik normalari shaxsning sog'lig'i, unga turli shikast yetkazilishini oldini olishga qaratilgan Jumladan, O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 109-moddasi qasddan badanga yengil shikast yetkazish deb nomlanib, unga ko'ra: 1) badanga sog'liqning qisqa muddatli yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan yengil shikast yetkazish;

2) badanga sog'liqning qisqa vaqt, ya'ni olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan ko'p bo'lmagan muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qotilishiga sabab bo'lgan yengil shikast yetkazish uchun javobgarlik belgilangan [17].

Sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan yengil tan jarohatlari jumlasiga uncha ko'p bo'lmagan, tez o'tib ketadigan, oqibati og'ir bo'lmagan olti kundan uzoq davom etmagan shikastlar kiradi. Bu shikastlar lat yeyish, tiralish, shilinish, uncha katta bo'lmagan g'urra tarzida bo'lishi mumkin.

Sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga olib kelgan yengil tan jarohatlari jumlasiga:

1) sog'liqning olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan ko'p bo'lmagan muddatga yomonlashuviga sabab bo'lgan shikastlar;

2) mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qotilishiga sabab bo'lgan shikastlar kiradi.

Mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qotilishi deganda, umumiy mehnat qobiliyatining o'n foizgacha yo'qotilishi tushuniladi [18].

"Avesto"da birovni urib, uning qonini oqizgan kimsa, ellik qamchin aspahiq-ashatra va ellik qamchin saravushu-charana bilan savalangan. Ikkinchi marta yetmish qamchin aspahiq-ashatra va yetmish qamchin saravushu-charana bilan; uchinchi marta to'qson qamchin aspahiq-ashatra, to'qson qamchin saravushu-charana bilan savalangan [19].

Kimda-kim oldingi gunohlarini tovonini to'lagani holda to'rtinchi marta bunday gunoh sodir etgan taqdirda, u "pishavtanu" amalini sodir etgan hisoblanadi va jazo tarqiasida yigirma qamchin aspahiq-ashatra, yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalangan.

Agarda birovga shikast yetkazib, uning qonini oqizgan holda tovon to'lashdan bosh tortgan taqdirda, gunohi uchun yigirma qamchin aspahiq-ashatra va yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalangan [20]. "Avesto"da keltirilgan ushbu holatlar, ya'ni birovni urib, uni qonini oqizish kabi qilmishni sodir etish, hozirda qonunchiligimizda o'z ifodasini topgan qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish kabi jinoyatga o'xshaydi. Chunki o'rtacha og'ir tan jarohatlari odamning sog'lig'iga ancha ziyon yetkazishi mumkin, lekin ular a'zoning yo'qotilishiga yoki og'ir tan jarohatlari uchun xos bo'lgan boshqa oqibatlariga olib kelmaydi.

Badanga yetkazilgan o'rtacha og'ir shikastlarning asosiy belgilari quyidagilardir:

1) sog'liqning uzoq vaqt, ya'ni kamida yigirma bir kun, ammo to'rt oydan ko'p bo'lmagan davrda yomonlashuvi;

2) umumiy mehnat qobiliyatining o'n foizidan o'ttiz uch foizgacha yo'qotilishi [21].

Umumiy mehnat qobiliyatining oʻn foizidan oʻttiz uch foizigacha yoʻqotilishi badanga yetkazilgan oʻrtacha ogʻir shikastini mustaqil belgisi hisoblanadi.

“Avesto”da birovni urib suyagini sindirsa, shaxsga nisbatan jazo belgilangan. Unga koʻra, birovni urib, suyagini sindirgan kimsa, yetmish qamchin aspahiq-ashatra bilan, yetmish qamchin saravushu-charama bilan savalangan.

Ikkinchi daʼfa toʻqson qamchin aspahiq-ashatra, toʻqson qamchin saravushu-charana bilan savalangan.

Agar shaxs oldin sodir etgan shunday jinoyatlari uchun tovon toʻlagan holda uchinchi marta ham mazkur jinoyatni sodir etsa, u holda u “pishavtanu” qilmishini sodir etgan hisoblanadi. Gunohi uchun yigirma qamchin aspahiq-ashatra bilan, yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalangan.

Shu bilan birga, birovni ni urib, uning suyagini sindirgan holda tovon toʻlashdan bosh tortgan kimsa, “pishavtanu”ni amalini sodir etgan hisoblanib, u aspahiq-ashatra hamda saravushu-charana qamchilari bilan yigirma marta savalangan [22].

Muqaddas bitikda birovni kaltaklab, uni hushidan ketkizgan yoki ushbu jinoyatni qayta sodir etgan taqdirda jinoyatlar jami boʻyicha jazo tayinlash qoidasi belgilangan. Unga koʻra, birovni kaltaklab, uni xushidan ketkazgan kimsa, aspahiq-ashatra qamchin bilan toʻqson marta, saravushu-charana qamchini bilan oltmish marta savalangan. Dastlabki gunohining tovonini toʻlab turib ham qayta ushbu gunohni sodir etgan kimsa sodir etgan gunohi uchun aspahiq-ashatra qamchini bilan yigirma marta, saravushu-charana qamchini bilan yigirma marta kaltaklangan.

Agarda bir kimsani urib, xushidan ayirgani holda tovon toʻlashdan bosh tortgan shaxs, aspahiq-ashatra hamda saravushu-charana qamchilari bilan yigirma martadan kaltaklangan [23]. Yuqorida bayon etilgan jazolar nihoyasida bu gunohkorlar poklangan va ashavan boʻlgan hisoblanadi. Shundan soʻng, Mazda diniga amal qilishda davom etgan.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan koʻrinib turibdiki, “Avesto”da jinoyat va jazo masalalari har tomonlama tartibga solinganligini koʻramiz. Shu nuqtayi nazardan Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat qonunlarining rivojlanish tarixini bevosita mamlakat tarixi bilan uzviy bogʻliqlikda koʻrib chiqish lozim. Oʻzbekistonning toʻla davlat mustaqilligiga erishishi, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida demokratik respublikaning ijtimoiy tizimiga oid vazifalarning qayd qilinishi, oʻz navbatida, respublikamiz jinoyat qonunlarining rivojlanishi tarixi masalasiga ham asosiy diqqat-eʼtiborni jalb qilishni talab qiladi.

“Bugungi kunda yurtimizda inson huquq va erkinliklarini qonuniy himoya qilish boʻyicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Jumladan, shaxsni ayblashda qonunga zid usulda olingan maʼlumotlarda dalil foydalanganlik uchun qatʼiy javobgarlik belgilandi” [24].

“Avesto”da koʻrib oʻtilgan shaxsga qarshi sodir etilgan jinoyatlarga berilgan jazodan koʻzlangan maqsad adolatli hukm chiqarish uchun ham asos hisoblanadi, jinoyatlarning oldini olishning muhim vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ртвеладзе Э. В., Саидов А. Х, Абдуллаев Е. В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. - Т.: “Адолат”, 2001. - Б.235.
2. Ртвеладзе Э. В., Саидов А. Х, Абдуллаев Е. В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. - Т.: “Адолат”, 2001. - Б.218.
3. Жинойт ҳуқуқи. Умумий қисм: Дарслик / А. С. Якубов, Р. Кабулов ва бошқалар. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2004. - Б. 100-101.
4. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: “Шарқ”, 2001. - Б.118.
5. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: “Шарқ”, 2001. - Б.118.
6. Бобоев Ҳ., Дўсжонов Т., Ҳасанов С. “Авесто” - Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. ТМИ. - Т., 2004. - Б.22.

7. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: «Шарқ», 2001. - Б.339.
8. Бобоев Х., Дўсжонов Т., Ҳасанов С. «Авесто» - Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. ТМИ. - Т., 2004. - Б. 22.
9. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қасм: Дарслик / А. С. Якубов, Р. Қабулов ва бошқ. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2004. - Б.200-201.
10. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: «Шарқ», 2001. - Б.118.
11. Бобоев Х., Дўсжонов Т., Ҳасанов С. «Авесто» - Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. - Б.63.
12. Бобоев Х., Ҳасанов С. «Авесто» - маънавиятимиз сарчашмаси. - Б.64.
13. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Б. 119.
14. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: «Шарқ», 2001. - Б.119.
15. Рустамбоев М. Х. ва бошқ. Жиноят ҳуқуқи. - Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2000. - Б.56.
16. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Б. 119-120.
17. Рустамбоев М. Х. ва бошқ. Жиноят ҳуқуқи. - Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2000. - Б.74.
18. Уголовный кодекс Республики Узбекистан: научно-практический комментарий / Под ред. Якубов А. С. - С.148.
19. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Б. 120.
20. Бобоев Х., Ҳасанов С. «Авесто» - маънавиятимиз сарчашмаси. - Б. 66.
21. Уголовный кодекс Республики Узбекистан: научно-практический комментарий / Под ред. Якубов А. С. - Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 1996. - С.146.
22. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: «Шарқ», 2001. - Б.120.
23. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: «Шарқ», 2001. - Б.120-121.
24. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. -Б.60.



“АВЕСТО”ДА ШАХСГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ

Ушбу мақолада муаллиф жиноятлар ва улар учун қўлланилган жазоларни жиноят қурбонининг ҳаёти ва соғлиғига таъсир қиладиган "Авеста" даги сабабий муносабатлар нуқтаи назаридан таҳлил қилади. Шу билан бирга, муаллиф ният тушунчаларини, муайян ҳужумда ифодаланган жиноятнинг объектив томонини, шу жумладан ятроген характердаги ҳаракатларни, ҳомиладорликни тўхтатишни таҳлил қилади.

Муаллиф инсонни ҳаётдан маҳрум қилиш жамиятга тузатиб бўлмайдиган зарар, инсоннинг соғлиғига зарар етказиш еса жисмоний, маънавий, психологик жароҳатларга олиб келади ва унинг жамоат ишларида иштирокини чеклайди, деб хулоса қилади. Бундан ташқари, Авеста бўйича жавобгарликка ҳуқуқбузарни тан жароҳати шаклида жисмоний жазолаш киради.

Муаллифнинг таъкидлашича, Авестога кўра жазо тайинлаш ҳуқуқбузар учун адолатли адолатни таъминлаш мақсадини кўзлайди, бу еса бундай жиноятларга қарши муҳим профилактика чораси ҳисобланади.

ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРОТИВ ЛИЧНОСТИ В «АВЕСТЕ»

В данной статье автор анализирует преступления и назначаемые за них наказание с позиции причинно-следственной связи в «Авесте», которые посягают на жизнь и здоровье жертвы преступления. При этом автор анализирует понятия умысла, объективной стороны преступления, выраженного в конкретном нападении, включая также действия ятрогенного характера, прерывания беременности.

Автор резюмирует, что лишение человека жизни наносит непоправимый ущерб обществу, а нанесение вреда здоровью личности, причиняет физические, моральные, психологические травмы и ограничивает ее участие в общественных делах. Причем, ответственность по «Авесте» включает физическое наказание преступника в форме нанесения телесных повреждений.

Автор отмечает, что назначение наказания по «Авесте» преследует цель – осуществление справедливого правосудия над преступником, что является важным профилактическим средством против такого рода преступлений.

ISSUES OF RESPONSIBILITY FOR CRIMES AGAINST THE PERSON IN «AVESTO»

In this article, the author analyzes crimes and the punishment imposed for them from the position of cause and effect in the Avesta, which encroach on the life and health of the crime victim. At the same time, the author analyzes the concepts of intent, the objective side of the crime expressed in a specific attack, including also actions of an iatrogenic nature, termination of pregnancy.

The author summarizes that depriving a person of life causes irreparable damage to society, and harm to the health of an individual causes physical, moral, psychological trauma and limits his participation in public affairs. Moreover, liability according to Avesta includes physical punishment of the offender in the form of bodily harm.

The author notes that the imposition of punishment according to the Avesta pursues the goal of administering fair justice to the criminal, which is an important preventive measure against this type of crime.

FIZIKA-MATEMATIKA VA TEXNIKA FANLARI
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ И ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHYSICAL, MATHEMATICAL AND TECHNICAL SCIENCES

UDK 656.8

**POCHTA ALOQASIDA JO'NATMALARNI SARALASHNI
SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI**

X.X.Axmadbekov*

xokimbek.axmadbekov@mail.ru

***Kalit so'zlar:** avtomatlashtirish, jo'natma, saralash, mexanizatsiya, konveyyer, oqim, tranzit, pochta, banderol, ishlov berish, lenta.*

Kirish. Hozirgi vaqtda, jo'natmalarni avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish uchun mo'ljallangan mashinalar tizimi ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo'lib, ular jo'natmani o'lchamlari va qattiqligi bo'yicha ajratuvchi, ustiga shtamp bosuvchi, manzil raqam kodi bo'yicha saralovchi avtomatlashtirilgan mashinalarni o'z ichiga oladi. Bunday mashinalar tizimini yaratishda texnikaviy masalalarni hal qilish bilan bir qatorda, pochta korxonalarini raqamli indeksatsiyalash tizimini ishlab chiqildi.

Pochta jo'natmalariga ishlov berish borasidagi asosiy va qo'shimcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan maxsus pochtaga ishlov beruvchi mashinalar, mexanizmlar va qurilmalarga uchun mo'ljallangan avtomatik ajratuvchi, ustiga shtamp bosuvchi va saralovchi mashinalar, yarim avtomat mashinalar, qop tikuvchi, o'rovchi, manzil yozuvchi va boshqa mashinalar orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining ikkinchi bobi pochta aloqasi operatorlari, provayderlarining huquq va majburiyatlari belgilangan bo'lib, uning 181-bandida pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish uchun zarur bo'lgan texnologik uskunalar, mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va axborotlashtirish vositalariga ega bo'lishi[1] zarurligi belgilab o'tilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Olim Verxova G.V. fikricha pochta aloqasini yangi loyihalashtirish, qurish, texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, pochta aloqasini modernizatsiya qilish, zamonaviy mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalarini joriy etish asosida logistika va transport aloqalari va vositalari tizimi, pochta aloqasini ilmiy ko'llab-quvvatlashni rivojlantirish, ilmiy-texnik bazani takomillashtirish va qayta qurish, texnologik taraqqiyotning istiqbolli yo'nalishlari, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish masalalarini hal qilishga imkon beradigan ilmiy-texnik bazani takomillashtirish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish[2] juda muhim bo'lib, bunda jarayonlarni to'g'ri tashkil etish, pochta aloqasini modernizatsiya qilish, zamonaviy mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish bugungi kunda muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Avtomatlashtirilgan loyihalash sistemasini ishlab chiqish korxonani hozirgi zamon hisoblash texnikasi bilan jihozlash va shu asosda programmalar bilan ta'minlashdan iboratdir. Ilg'or

* X.X.Axmadbekov – Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti mustaqil izlanuvchisi.
«Yosh olimlar axborotnomasi» – «Вестник молодых ученых» – «The bulletin of young scientists»

texnologiyaga asoslangan avtomatlashtirilgan loyihalash sistemalarini bunyod etish nazariy tadqiqot bilan ishlab chiqarishni birgalikda qo‘shib olib borishni taqozo etuvchi murakkab muammodir.

Olim Garg N. fikricha pochta tizimi zaif simsiz tarmoqdan farq qiladi, pochta tizimi yuqori jo‘natma kechikmasligi uning yuqori sifatini ta‘minlaydi[3] deb ta‘kidlab o‘tgan. Bugungi kunda jahon tajribasi ushbu fikrni haqiqatdan to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatmoqda.

“Rossiya pochta” pochta aloqasi bo‘limlarini avtomatlashtirish uchun ularni dasturiy ta‘minotga ega zamonaviy pochta kassa terminallari bilan ta‘minladi. Qishloq joylardagi bo‘limlarda pochta kassa apparatlarini avtomatlashtirish uchun 14 mingtadan ziyod nazorat kassa texnikasi qo‘llaniladi, operatsiya darajalarini kompyuter kassa terminallari bilan jihozlashni 75% ga yetkazilgan[4]. Maqsad qishloq joylardagi istiqomat qilayotgan fuqarolarga pochta aloqasidagi mavjud xizmat turlarini aholiga taqdim etish hamda pochta aloqasi bo‘limlari faoliyatini bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hisoblanadi.

Shuningdek olim Gudova Ye.A. fikricha pochta yig‘imlarini to‘lashning muqobil shakllari, pochta markalari, frankirlash mashinalari va elektron markalarini chiqaradigan avtomatlar hisoblanadi. Pochta korxonalarida avtomatlashtirishning keng joriy etilishi pochta markalarining sotilishiga yangi yondashuvni taklif etadi. Hozirgi vaqtda pochta xizmatlari tomonidan pochta bo‘limlarida tayyor pochta markalari va butun buyumlarni sotish uchun avtomatlar samarali ko‘llaniladi. Bunday avtomatlardan ko‘p mamlakatlarda foydalanib kelinmoqda.

Butun dunyo bo‘ylab pochta aloqasi operatorlari bugungi kunda jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar. Masalan ichki raqobat, xususiy kompaniyalar va kurerli xizmatlari[5] bugun barcha sohada aholi tomonidan talab va takliflar ortib bormoqda. Bu esa pochta aloqa tizimida mavjud xizmatlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor berish kerakligini ko‘rsatmoqda.

Pochta foydalanuvchilarining ehtiyojlari va ularga xizmat ko‘rsatuvchi pochta tizimlari o‘zgarmoqda. Mijozlar va korxonalar tomonidan yuborilgan pochta jo‘natmalar soni pasayishda davom etmoqda, ammo posilkalar hajmi yildan yilga o‘sib bormoqda. Covid-19 pandemiyasi ushbu tendensiyalarni tezlashtirdi va Buyuk Britaniya bo‘ylab doimiy mijozlar va korxonalar uchun pochta xizmatlarining muhimligini ta‘kidladi. Bu esa pochta operatorlarining rivojlanishiga olib keldi. Pochta xizmatlari uchun ayniqsa onlayn xarid qilish buyurtmalarini bajarish uchun raqobat kuchaydi. Bu iste‘molchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga javoban innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Bugungi kunda misol uchun “Royal mail” tomonidan boshqa operatorlar singari, o‘z biznesini rivojlantirib, shu bilan birga universal pochta xizmatini aholiga taqdim etishni davom ettirmoqda[6]. Hozirgi kunda, jo‘natmalarni jo‘natish havo transporti orqali Turkiya, Estoniya, Litva, Singapur, Fransiya, Belgiya, Shveysariya, Daniya va Gollandiya davlatlaridan, yer usti transporti orqali esa Latviya, Xitoy, Estoniya, Gruziya davlatlaridan O‘zbekistonga yuborilmoqda.

Natijalar. Har bir pochta jo‘natmasi jo‘natuvchidan oluvchiga qadar yagona ishlab chiqarish jarayonining bir qancha majburiy bosqichlaridan o‘tadi. Buning natijasida pochta aloqasi xizmatiga berilgan buyurtma pochta aloqasi mahsulotiga aylanadi. Yagona ishlab chiqarish jarayonini har bir pochta korxonasi uchun o‘ziga xos bo‘lgan va ularda to‘la bajariladigan alohida jarayonlarga ajratish mumkin. Ularda chiqayotgan, kirayotgan va tranzit pochta jo‘natmalariga ishlov berish jarayonlari qamrab oladi.

Pochta jo‘natmalariga ishlov berish, mijozlardan qabul qilib olingan yoki boshqa aloqa korxonalaridan kelib tushgan pochta jo‘natmalarini belgilangan manzil bo‘yicha jo‘natish va topshirishga tayyorlashni ta‘minlovchi ishlab chiqarish jarayonlari majmuasi hisoblanadi. Bu jarayonda tabiiyki jo‘natma manzilga yetib borishda bir qancha jarayonlardan o‘tib ba‘zan uning kechikishiga sabab bo‘ladi.

Jo‘natmalarni saralash uskunalarining funksional sxemasi tarkibiga ishga tushirish qurilmasi, taqsimlash konveyyeri va yig‘gichlar orqali amalga oshiriladi.

Ishga tushirish qurilmasi operatorning ish joyi hisoblanib, yuklarni taqsimlash konveyyeriga uzatish mexanizmlari va klaviatura mujassamlashgan. Klaviatura tugmalari yordamida

boshlang'ich ish stolidan yukni chiqarish vaqtida sinxronlashtirish datchikli tomonidan vaqt belgilanadi va bu vaqtdan boshlab boshqarish tizimi yukni tegishli yig'gichga yo'naltirish borasidagi ishlarni boshlaydi. Zarur hollarda ishga tushirish qurilmasida yuklarni tashqi o'lchamlari bo'yicha nazorat amalga oshiriladi, odatda, tashish yo'nalishi bo'ylab yuklarning uzunligi nazorat qilinadi.

Taqsimlash konveyyeri saralanayotgan yuklarni tegishli yig'gichga yetkazib berish uchun mo'ljallangan. U yuk tashish trassasidan iborat bo'lib, har bir yig'gich yonida o'rnatilgan yuk tushirgichga kelib yetgan vaqtda boshqaruv tizimi buyrug'i asosida ishga tushadi.

Yig'gichlar bir yo'nalishda ketayotgan yuklarni to'plash va vaqtinchalik saqlash uchun mo'ljallangan. Ular 50 taggacha pochta yuklarini sig'dira oladigan gravitatsiya yoki mexanizatsiyalashgan sig'imlardir. Jo'natma, nashr, banderollar kabi pochta yuklarini saralash jarayoni xatlarni saralash jarayonidan tubdan farq qiladi. Pochta yuklarining massasi xatlarning massasidan o'rtacha 1000 marotaba kattadir. Bu ularning tashish tezligini ancha cheklanishiga sabab bo'ladi. Hozirgi saralash qurilmalarida tezlik 2 m/s dan oshmaydi. Bundan tashqari, saralanayotgan yuklar massasining kattaligi tushirgichlar tezligini ham cheklaydi. Ko'rsatib o'tilgan cheklashlar taqsimlash konveyyerining yetarlicha uzunligida pochta yuklarini saralashning silliq usulini qo'llashga imkon bermaydi. Chunki bunday usulda ishlovchi saralash qurilmalarining samaradorligi kichik bo'ladi. Shuning uchun jo'natma, nashr va banderollarni saralovchi barcha qurilmalar oqim usulida ishlaydi.

Oqim ishlovchi qurilmaning samaradorligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P = 3600 \cdot V/a = 3600 \cdot V/(L+D)$$

Bu yerda: V — yuklarning tashilish tezligi, m/s; a — yuklar qadami; L — yuklarning tashilish yo'nalishidagi uzunligi; D — yuklar orasidagi masofa.

Shunday qilib, saralash qurilmasining samaradorligi yuklarning tashilish tezligiga to'g'ri proporsional va yuklar orasidagi qadamga teskari proporsionaldir. Bundan ko'rinadiki, saralash qurilmasining samaradorligini yuklarni tashish tezligini oshirish hisobiga yoki ular orasidagi qadamni qisqartirish hisobiga ko'paytirish mumkin.


Muhokama. Kiruvchi jo'natmalarni yig'ish, tashish va avtomashinalarga topshiriladi. Chiquvchi va tranzit jo'natmalar solingan konteynerlarni tashish va topshirish esa quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Konteynerlar ombor liniyalaridan konveyyerlar orqali tartibga solish doiralari deb ataluvchi joyga chiqariladi. Bu doiralardan konteynerlar pochta vagoni yukxonasiga joylashtirish tartibiga muvofiq ravishda ketma-ket tanlab olinadi va konveyyerning tushirish bo'lmasi yordamida pochta vagoni yonidagi platformaga o'rnatiladi. Bu yerdan konteynerlar vagon krani orqali yukxonaga joylanadi.

Konveyyerlar, asosan, pochtni qayta ishlashda operatsiyalar transport ishlarida va pochta korxonalarida hamda turli xil pochtni qayta ishlovchi mashinalarning tarkibiy elementlari sifatida ham keng qo'llaniladi. Konveyyerning turli xil ko'rinishlari ayrim pochta korxonalararo pochtni tashishda kerak bo'ladigan yuklash va tushirish ishlarida qo'llaniladi.

Lentali konveyyerlar to'xtovsiz harakatdagi keng tarqalgan transport mashinalari bo'lib, konstruksiyasining oddiyligi, ishonchliligi, tovush chiqarmasligi va yuqori ish unumdorligi bilan ajralib turadi.

Yuklovchi qurilmalar lentali konveyyerning xohlagan joyiga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Biroq lentali konveyyerlar ko'pincha barabanining dum qismida ko'proq yuklaniladi. Ularning konstruksiyasi tashiluvchi yuklar va yuklarni tushirish usullariga bog'liq.

Yuklar uchun yuklash qurilmalari



Donali yuklar (posilkalar, banderollar va shu kabilar) bir necha kichik lentali va rolikli konveyyerlar yordamida yuklanadi. Quyida donali yuklar uchun yuklash qurilmalari quyidagi rasmda keltirilgan:

- *qiyalik tushirish;*
- *rolik.*

Sochiluvchi yuklar uchun lentaning ust qismida 3 ta qiyalik, devorli metall lotoklar joylashgan bo‘ladi. Lotokdan chiquvchi yuklar eni lenta enidan kabi bo‘ladi. Bu esa yuklarni lentalardan tushib ketish oldini oladi.

Xulosa. Xulosa o‘rinida shuni ta’kidlab o‘tish lozim pochta jo‘natmalarni ishlov berishda avtomatlashtirilgan ishlov berish uchun mo‘ljallangan mashinalar orqali saralash jarayonlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, pochta aloqasida tashish va yuklash tushirish ishlarini bajarishda turli xil ko‘tarish tashish asbob-uskunalari qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Bularga quyidagilar kiradi:

- *jo‘natmalar, nashr o‘ramlari, biror burchak ostida yoki vertikal tekislikda tashish imkonini harakatlanuvchi va statsionar tasmali, zanjirli konveyyerlar va ko‘targichlar;*
- *avtomashinalar va pochta vagonlariga pochtani yuklash va tushirish uchun ishlatiladigan bo‘limlari suriluvchi, qiyalik burchagi o‘zgaradigan harakatlanuvchi va statsionar tasmali konveyyerlar;*
- *korxonada, pochta vagonlariga yoki vagonlardan orqaga pochta solingan qoplarni, jo‘natmalarni va elektr shataklagach, tirkama va qo‘lda boshqariladigan pochta arxivlari;*
- *vokzal va aeroportlar qoshidagi pochta tashish bo‘limlari, shahar aloqa korxonalarini va nashriyotlar orasidagi pochta almashish hamda shahar ichida tashish uchun g‘ildirakli va g‘ildiraksiz konveyyerlar;*
- *bino qavatlarini orasida pochta tashish uchun yuk liftlar.*

Natijada bu tashkilotlar markalar sotib olish va yopishtirishdan ozod bo‘ladi, bu esa markalar sarfini kamaytirishga, konvertlarni (xatjildlarni) markalash jarayonini mexanizatsiyalashga va pul hisob-kitoblari tizimini ancha soddalashtirishga olib keladi. Bundan tashqari, markalovchi mashinalar qo‘llanganda pochta korxonasiga kelib tushgan jo‘natmaga shtamp bosish zarurati yo‘qoladi, ajratish ishlaridan so‘ng u bevosita saralashga o‘tkaziladi, natijada ishlov berish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktorining 2011-yil 22-fevraldagi “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish” qoidalari. <https://lex.uz/docs/1772402>.
2. Верхова Г.В. Системный анализ, управление и автоматизация технологических процессов в системах почтовой связи. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора технических наук. 2005 Б.3-4
3. Garg N.A. Postal system based digital network and a distance learning application. A dissertation presented to the faculty of Princeton university in candidacy for the degree of doctor of philosophy. – S., 2006 Б. 126.
4. <https://www.russianpost.ru/>
5. Гудова Е.А. Процессуальный подход к анализу организационных изменений на примере фгуп “Почта России”: на соискание ученой степени кандидата социологических наук НИУ ВШЭ (PhD HSE) диссертация. М. 2018 Б. 20.
6. Review of Postal Regulation. Statement Publication date: 18 July, 2022 Б. 3.



**POCHTA ALOQASIDA JO‘NATMALARNI SARALASHNI
SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI**

Ushbu maqolada pochta aloqasida boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda saralash jarayonlarining o‘rni, jo‘natmani saralash uchun vaqt normasini hisobga olish, bu borada xorijiy olimlarning fikr-muloxazalari asosida jo‘natmani manzilga yetkazib berishning o‘ziga xos yo‘llariga to‘xtalib o‘tilgan.

**СПОСОБЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ
СОРТИРОВКИ ОТПРАВЛЕНИЙ В ПОЧТОВОМ ОТДЕЛЕНИИ**

В данной статье рассматривается роль сортировочных процессов в организации управленческих процессов в почтовой связи, учет нормы времени на сортировку отправления, конкретные способы доставки отправления к адресату на основе отзывов зарубежных ученых по этому поводу

**WAYS TO EFFECTIVELY ORGANIZE THE
SORTING OF SHIPMENTS AT THE POST OFFICE**

This article focuses on the role of sorting processes in organizing management processes in postal services, taking into account the time standard for sorting items, as well as specific methods of delivering items to the address based on the opinions of foreign scientists on this matter.

UDK 622.271.2

JYEROY-SARDARA QATLAMLI KONIDAN DONADOR FOSFORITLARNI QAZIB OLIHDA UNING KON-TEKNOLOGIK SHAROITLARINI VA LOYIHAVIY YECHIMLARINI BAHOLASHLARNI TAHLIL QILISH

U.Yermekboyev, O.Giyazov, P.Karimov*

Kalit soʻzlar: maʼdan, togʻ jinsi, frezerli kombayn, qatlam, geologiya, skvajina, burgʻilash, fosforit, Jeroy-Sardara, koeffitsiyent, kon.


Jeroy-Sardara koni Qizilqum choʻllarining markaziy qismida joylashgan boʻlib, u Oʻzbekiston Respublikasidagi Navoiy viloyatining 70% dan ortiq hududini egallaydi (1-rasm).

Togʻ tizmalari kenglik yoʻnalishi boʻyicha mutloq balandlik nuqtasi 350-800 m boʻlgan subparallel tizmalar bilan choʻzilgan; hududning eng baland nuqtasi (Aktau sh.) – 900 m [1; 132 b, 2; 17-19 b]. Jeroy - Sardara va “Janubiy-Jeroy” deb ataluvchi notekisliklar va keyinchalik shu nomlar bilan atalgan konlarning maydoni, shimol va shimoliy-gʻarbdan Muruntau bilan Tamdytau, gʻarbdan Auminzatau, janub va janubiy sharqdan Aristantau bilan chegaradosh. Konning relyefi biroz tepaliklardan iborat boʻlib, uning nisbiy balandlik oʻlchovlari 200-310 m.

MDH mamlakatlari (Qoratau, Boltiqboʻyi davlatlari) ning eng yirik fosforitli havzalari resurslari bilan taqqoslanadigan, markaziy Qizilqum fosforitli hududlari Markaziy Osiyoda mineral oʻgʻitlarning yirik xom ashyo bazasi hisoblanadi, chunki uning resurslari 1,5 milliard tonna (R_2O_5) ga teng.

“Janubiy-Jeroy” uchastkasi

muhandislik-geologik sharoitlarga koʻra oddiy turiga kiradi. Muhandislik-texnologik nuqtayi nazardan, konda fizik-mexanik xossalari bilan farq qiluvchi toʻrtta togʻ jinslar guruhi ajratiladi. Qidiruv ishlari olib borilgan hududlar sinklinal tuzilmalarning nisbatan sokin monoklinal qanotlarida joylashgan. Togʻ jinslarining yotish burchaklari odatda 3—5° dan oshmaydi va faqat togʻ oldi (chetki) qismlarida 10—15° ga yetadi. Submeridial va subkenglik yoʻnalishidagi buzilishlar fosforit qatlamlarini yotishiga taʼsir qiladi, ayniqsa Kurukkuduk qismida. Fosfoplastlarning deyarli gorizontall joylashishi tufayli siljishi 1,2-1,8 km ga yetadi. Qatlamlarni ajratish va choʻziqlik azimutlarining mos kelganda, ular gorizontall siljishlarga yaʼni fosforit qatlamlarini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun, vertikal siljishning kichik amplitudalariga (10-12 m) qaramay, har 25-50 metrda skvajinalarni burgʻilash oʻrnatilgan, bu siljishlarni gorizontall tekisliklarning planlarda sezilarli darajada koʻrish mumkin. Ajratilgan paleogen qirqimlarining aniqlangan oltita qatlamdan faqat birinchi va ikkinchisi sanoat ahamiyatiga ega.



1-rasm. Jeroy – Sardara konining geologik tuzilishi;
a) Jeroy-Sardara konining geologik xaritasi,
b) Navoiy viloyatidagi Jeroy-Sardara fosforit konining «Janubiy-Jeroy» uchastkasini qazib olish xududi.

*Umiddjon Yermekboyev - “Konchilik ishi” kafedrasida NavDKTU katta oʻqituvchisi, Otabek Giyazov – texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori PhD, NavDKTU dotsenti, Poʻlotjon Karimov – NavDKTU talabasi.

Birinchi qatlam noldan 0,4-1,5 m pastda joylashgan. U asosan oddiy tuzilishga ega. Ba'zi joylarda qatlam orasida fosforitlangan mergel qatlami joylashgan, ularning qalinligi 0,1-0,15 myetrlik, kamdan-kam hollarda esa 0,2 myetrlik bo'ladi. Bu qatlam maydonlarining aksariyati geologik qidiruv lahimlari bilan ochilgan.

Fosforitlarning ikkinchi qatlami stratigrafik ravishda birinchisining ostida joylashadi. Ushbu qatlamlarni ajratib turadigan mergellarning qalinligi "Janubiy-Jeroy" va Kurukkuduk uchastkalarida 8-9 metrni va Janubiy-Jeroy uchastkalarida 12-13 m. Qatlam donador fosforitdan iborat bo'lib, u asosan oddiy tuzilishga va har tomonga keng tarqalgan. "Janubiy-Jeroy" uchastkasining sharqiy qanotida, Kurukkuduq uchastkasida va "Janubiy-Jeroy" uchastkasining g'arbiy qanotlaridagi qatlamlar orasida qalinligi 0,05-0,15 m bo'lgan fosforitlangan mergel qavatlar mavjud.

"Janubiy-Jeroy" uchastkasida I va II qatlamlar qalinligi 0,3 dan 0,15 m oralig'ida o'zgaradi, shimoliy-g'arbda va janubiy-g'arb qanotlari tomon esa qatlamlarning qalinligi 0,3 dan 0,45 metrga o'zgaradi. I va II fosforit qatlamlar qalinlashishi sharq tomonga qarab o'zgaradi. Markaziy qismlarda qatlamlarning qalinligi asosan 0,4 dan 0,6 m ga teng. Kurukkuduk uchastkalarida qatlamlarning qalinligi 0,4-0,8 m oralig'ida. "Janubiy-Jeroy" uchastkasining sharqiy qismidagi I va II qatlamlarning qalinligi bir xilda bo'lib u 0,6 dan 0,8 m oralig'ida bo'ladi. G'arbiy tomonga qarab I qatlamning qalinligi oshib boradi ya'ni 1÷1,5 m ga va bu qatlam orasida qalinligi 0,05-0,2 m detrit mergellari xam mavjud. II qatlamlarning qalinligi esa shu yo'nalishda kamayib boradi ya'ni 0,25 dan 0,35metrgacha.

"Janubiy-Jeroy" uchastkasida I-qatlamning o'rtacha qalinligi 0,8 m ga ega bo'lib, unga yaqin bo'lgan sinflar esa 0,4-0,59 m va 0,6-0,79 m qatlamlar kesishmalarining 86% ni tashkil qiladi.

Olingan ma'lumotlar barcha qidiruv maydonlarida I va II fosforit qatlamlari qalinligining judayam kam o'zgaruvchanligini tasdiqlaydi. Muhandislik va texnologik vaziyatlarga ko'ra konda to'rtta tog' jinslar guruxlari ajralib turadi (1-jadval).

1-jadval. Jeroy-Sardara konidagi tog' jinslarining fizik mexanik ko'rsatkichlari


Tog' jinslarining nomi	Ko'rsatkichlar					
	Xajmiy og'irlik, g/sm ³	G'ovak dorlik, %	Siqilishga bo'lgan mustaxkamlik chegarasi, MPa	Ichki ishqalanish burchagi, grad.	Bo'laklarning bir-biriga nisbatan solishtirma ushlanilishi, MPa	Namli lik, %
Ma'dan usti qatlami: Qum, qumloq tuproq, qumoq tuproq	1,36-1,96	39,0	0,6-4,9	N/d [*]	N/d [*]	2,8
Oxaktoshli va gipslangan mustaxkam gil	1,85	31,0	1,4-22,1	37-45	0,2-0,4	15,6
Ma'dan qatlami: Fosforitlar	2,02-2,09	13,9	38,9-49,4	N/d [*]	N/d [*]	2,5-5,4
Qatlamlararo mergellar	1,64-2,0	31,9	20,0-44,3	35-50	3,6-10,2	6,59
Ma'dan osti qatlami: Gillar, myergellar, qumtoshlar	1,42-1,89	23,8-45,6	5,1-27,1	25-50	1,8-5,2	N/d [*]

Fosforitlar qatlami mavjud bo'lgan "Janubiy-Jeroy" uchastkasi sharq – janubiy sharqqa qarab 3-5⁰ ga yotgan 6ta fosforit qatlamlari aniqlangan. Faqat birinchi va ikkinchi qatlamlar sanoat ahamiyatiga ega. Fosforit qatlamlarining xususiyatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Fosforit qatlamlarining xususiyatlari

Qatlamlar nomlari	Qalinligi, m <u>дан – гача</u> ўртача	R ₂ O ₅ -miqdori, % <u>дан – гача</u> ўртача	Davrlilik	Aralashgan tog' jinslar	
				Osilgan tomon	Yotgan tomon
Tomirsimon	<u>0.1 – 0.3</u> 0.27	<u>7.8 – 21.6</u> 18.0	Yuqori va o'rta eotsen chegarasidagi oxakli gillar asosida	gillar	mergellar
Nolinchi	<u>0.15 – 0.36</u> 0.26	<u>4.2 – 20.4</u> 11.4	o'rta eotsen mergellari ustki qismiga yaqin	mergellar	mergellar
Birinchi	<u>0.5 – 0.85</u> 0.63	<u>4.2 – 20.4</u> 11.4	o'rta eotsen mergellari ustki qismiga yaqin	mergellar	mergellar
Ikkinchi	<u>0.55 – 1.05</u> 0.66	<u>13.0 – 24.0</u> 20.84	o'rta eotsen mergellari qirqimining o'rtasida	gilli mergellar	mergellar
Uchinchi	<u>0.1 – 0.35</u> 0.29	<u>3.83 – 21.0</u> 12.97	o'rta eosyenning asosida	oxakli mergellar	gillar
To'rtchi	<u>0.15 – 0.4</u> 0.31	<u>2.0 – 10.9</u> 3.6	quyi eosyenning asosida	gillar	qumtoshlar

Fosforit qatlamlari (I va II) qalinligi 10 m dan 13 m gacha bo'lgan bo'sh tog' jinslar bilan ajratilgan. Ustki qatlam to'rtlamchi davr qumoq tuproq, qum qumtosh aralash, shag'al, gil va mergel qatlamlari bo'lgan tog' jinslar bilan qoplangan, qalinligi esa yon tomonlaridan o'rtasiga qarab 0 dan 50 m gacha oshib boradi. Birinchi navbatdagi kon ishlari olib boriladigan hududlarning I qatlamini tepa qismidagi qoplovchi tog' jinslarining o'rtacha qalinligi 15 m ni tashkil qiladi. O'rtacha qoplovchi tog' jinsi koeffitsiyenti 10,2 m³/tonnani tashkil qiladi. Qoplovchi tog' jinslari koeffitsiyentining bunday qiymatlari tufayli katta hajmdagi ochish ishlarini bajarish kerak bo'ladi, bu esa ochish ishlari uchun texnika va texnologiyalarni tanlashda asosiy omil hisoblanadi. Bo'sh qoplovchi tog' jinslari bo'lgan xududlarda rotorli ekskavatorlar, qatlam-qatlam kesish mashinalari va konveer transportidan foydalangan holda qazish ishlarining uzluksiz texnologik sxemalarini qo'llash imkoniyatini ko'rib chiqish uchun zaruriy shartdir. 2-rasmda karyer hududining dastlabki qazish ishlarini kon-geologik qirqimlari sxemasi keltirilgan bo'lib, u 1998-2000-yillar davomida konni ekspluatatsion qidiruv natijalariga asoslangan holda shakllangan. Ichki ag'darmalar mergellardan tashkil topgan bo'lib, ular I-chi fosforit qatlami ostida va II-chi fosforit qatlamining yuqori qismida joylashgan. [5; 22-23 b].



2-rasm. Karyerning sxematik qirqimi.

	Aralash tog' jinslarning qirqimi	Protodyakonov shkalasi bo'yicha qirqimi, MPa
1	Yumshoq qumloq va qumoq tuproq (o'rtacha qalinligi – 1,2 m)	f -2 gacha; 20 MP
2	Oxaklili sement bilan ko'p uchraydigan gipslangan mustaxkam gravelit (o'rtacha qalinligi – 3,2 m)	f > 4; 40 MPa
3	Oxaktoshli gil (qalinligi 0 dan 20 m. gacha)	f 2-4; 20-40 MPa
4	Gilli mergel (o'rtacha qalinligi - ~ 2 m)	f 2-4; 20-40 MPa
5	Mergel qatlamli I fosforit qatlami (qalinligi – 0,5-0,6 m)	f 3-4; 30-40 MPa

6	Gilli myergel (oʻrtacha qalinligi – 10,2 m)	f 2-5; 20-50 MPa, 2-m qatlam >50 MPa
7	II fosforit qatlami (qalinligi – 0,6-0,9 m)	f 2-4; 20-40 MPa
8	Oxaktoshli myergel, qatlam asosi	f 3-4; 30-40 MPa
9	Ichki agʻdarma	f 2-4; 20-40 MPa

Tashqi qoplovchi jinslar I-chi qatlam ustida joylashgan jinslardir. Ularning qalinligi 5 dan 50 m oraliqda oʻzgaradi (asosan 12-20 m). Ular yuqoridan pastgacha sariq qumoq bilan qumshagʻal aralashmasi, gil xamda ohakli gil va mergel boʻlgan qatlamlari bilan ifodalanadi. Oxirgilari esa I-chi qatlam ustida joylashgan boʻlib, ularning qalinligi 0 dan 4 m gacha oraliqda boʻlib, oʻrtachasi 2 m ni tashkil qiladi va mustahkamlik koeffitsiyenti esa 3 gacha boʻladi [6; 480 b, 7; 132 b].

Tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, tashqi qoplovchi togʻ jinslarning toʻrtlamchi qatlamlari orasida gips va karbonat bilan sementlangan, mustahkamlik koeffitsiyenti 4 gacha yoki undan ham koʻproq boʻlgan qattiq qatlamlar mavjud va gillar orasida esa mustahkamlik koeffitsiyenti 3 gacha boʻlgan zich va karbonatlashgan gil maydonlari mavjud.

2-rasmda ichki qoplovchi togʻ jinslar yarim qoyatosh mergellarni oʻz ichiga olishi keltirilgan boʻlib, ular birinchi va ikkinchi fosfoqatlamlar orasida joylashgan. Ularning mustahkamlik koeffitsiyenti 4÷5 qiymatlarga yetib boradi. Mergellarning qalinligi 8-9 m dan 15 m gacha boʻlib va ularning oʻrtachasi 10,2 m ga teng. Gravelitlar-pleystotsen yoshidagi mustahkam, ohaksimon sementlangan, oʻrtacha va yirik togʻ jinslardir. Ular konning butun maydonini qamrab oladi. Gravelitlarning qalinligi 2 dan 10,2 m gacha, oʻrtachasi esa-3,5 m. Bentonit gillari yashilroq-kulrang, baʼzi hududlarda jigarrang. 8-10 m chuqurlikka qadar gillarda gipergenez mahsuloti boʻlgan koʻplab qurituvchi yoriqlar, uyalar va gips tomirlari mavjud. Mergellar yashil va sargʻish tusli mustahkam och kulrang togʻ jinslaridir. Fosforit qatlami va mergel oʻrtasidagi chegaralar koʻpincha aniq emas. Qatlamning markaziy qismidagi donador fosforit qalinligi kichikroq mergelsimon fosforitiga va undan keyin mergelga oʻtadi. Koʻrib chiqilgan barcha variantlarda qoplovchi togʻ jinslarini qazishga tayyorlash burgʻilash-portlatish ishlari yordamida bajariladi, fosforit maʼdanlarini qazib olish esa frezerli kombayn yordamida amalga oshiriladi.



3-rasm. “Janubiy-Jeroy” uchkasi plani.

Ishda “Janubiy-Jeroy” karyeri koʻrib chiqilgan boʻlib, u 310 ming tonna maʼdan quvvatiga ega, hamda kazib olish ishlari konning janubiy – sharqiy kismidagi tajriba karyeridan boshlanadi 3-rasm.

Qazish ishlari janubdan shimolga qarab olib boriladi. “Janubiy-Jeroy” karyerining 1 va 2 chi tartibli karyer maydonlari kichik hajmdagi qoplovchi togʻ jinslardan iborat boʻlgani uchun ularni oʻzlashtirish qulay

hisoblanadi.

Xulosa. Jeroy-Sardara konining kon-geologik sharoitlari tahlil qilinib, fosforit qatlamlarining oʻrtacha qalinligi 0,60 dan 0,75 m gacha ekanligi aniqlandi, togʻ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustahkamlik darajasi 3÷5 gacha, shuningdek, I fosfoqatlamning qalinligi boʻyicha oʻzgaruvchanlik koeffitsiyenti 10÷12% ni va II fosfoqatlam 11÷18% ni tashkil qiladi, qatlamning nishabliligi esa 5⁰ gacha.

Qazib olishning optimal texnologik parametrlarini, qazish ishlari olib boriladigan maydon uzunligini, kon ishlari xarakati yoʻnalishini, frezerlash qatlami qalinligini va kon mashinalarining optimal ishchi parametrlarini, shuningdek asosiy texnikalarni ishlatishda ularning ishlatilishini oshirishni tashkil etish maqsadlarini belgilash kerak.

Adabiyotlar:

1. Xakimov Sh.I., Yermekboyev U.B., Tadjiyev Sh.T., Kobilov O.S. Obosnovaniye ratsionalnoy texnologicheskoy sxemy otkrytoy razrabotki mestorojdeniy fosforitov s pologopadayushimi plastami maloy moshnosti //Monografiya. – ISBN 978-9943-8178-6-9. – NAVOIY, 2022. – 132 s.
2. Obrazsov A.I., Norkin N.A., Tarziyev R.A., Mamoxin I.I., Kuleshov A.Yu. Gorno-geologicheskkiye osobennosti razrabotki uchastka “Djeroy – Yujnyy” Jeroy-Sardarinskogo fosforitovogo mestorojdeniya //Gornyy vestnik Uzbekistana, 2001. – №1. – S.17-19.
3. Yermekbayev, U. B., Nematov, A. R., & Xojiyev, I. G'. (g. 2022). Tashkura fosforit karyerida foydali qazilmalni qazib olishda ratsional texnologik sxemani asoslash. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, str. 36-40.
4. Yermekboyev, U. B. (2023-04-25). Razrabotka texnologicheskix sxem s primeneniym frezernyx kombaynov. st. Germamaniya: LAP LAMBERT Academic Publishing <https://www.lap-publishing.com/>. S-174
5. Xakimov, Sh. (g. 2004). Osenka razvitiya gornyx rabot na karyere Tashkura i razrabotka effektivnyx variantov transportnoy sistemy razrabotki. Gornyy vestnik Uzbekistana, str. 22-23.
6. Kucherskiy N.I., Astvatsaturyan G.G., Berdinkov Ye.A. i dr. Navoiyskiy – gorno - metallurgicheskii kombinat: Istoriya sozdaniya i razvitiya. – Navoi, 2002.– 480 s.
7. Xakimov Sh.I., Yermekboyev U.B., Tadjiyev Sh.T., Kobilov O.S. Obosnovaniye ratsionalnoy texnologicheskoy sxemy, otkrytoy razrabotki mestorojdeniy fosforitov s pologopadayushimi plastami maloy moshnosti //Monografiya. – ISBN 978-9943-8178-6-9. – NAVOIY, 2022. – 132 s.



JYEROY-SARDARA QATLAMLI KONIDAN DONADOR FOSFORITLARNI QAZIB OLIISHDA UNING KON-TEKNOLOGIK SHAROITLARINI VA LOYIHAVIY YECHIMLARINI BAHOLASHLARNI TAHLIL QILISH

Jeroy-Sardara konining kon-geologik sharoitlari tahlil qilinib, fosforit qatlamlarining o'rtacha qalinligi 0,60 dan 0,75 m gacha ekanligi aniqlandi, tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustahkamlik darajasi 3÷5 gacha, shuningdek, I fosfoqatlamning qalinligi bo'yicha o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti 10÷12% ni va II fosfoqatlam 11÷18% ni tashkil qiladi, qatlamning nishabliligi esa 5⁰ gacha ekanligi o'rganildi.

O'rganishlar natijasida Jeroy-Sardara fosforit konini qazib olish bo'yicha xulosalarga kelindi. Qazib olishning optimal texnologik parametrlarini, qazish ishlari olib boriladigan maydon uzunligini, kon ishlari xarakati yo'nalishini, frezerlash qatlami qalinligini va kon mashinalarining optimal ishchi parametrlarini, shuningdek asosiy texnikalarni ishlatishda ularning ishlatilishini oshirishni tashkil etish maqsadlarini belgilab berildi.

АНАЛИЗ ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ, И ОЦЕНКА ПРОЕКТНЫХ РЕШЕНИЙ РАЗРАБОТКИ ДЖЕРОЙ-САРДАРИНСКОГО ПЛАСТОВОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ ЗЕРНИСТЫХ ФОСФОРИТОВ

Анализом горно-геологические условия месторождения «Джерой Сардара» установлено, что средняя мощность фосфоритов колеблется от 0,66 до 0,75 м, а физико-механические свойства горных пород от 3 до 5, а также коэффициент вариации мощности I фосфопласта 10÷12% и для II фосфопласта 11÷18% пласты пологопадающие (до 5⁰).

В результате исследований сделаны выводы относительно отработки фосфоритового рудника Джерой-Сардара. Оптимальные технологические параметры горных работ, протяженность участка разработки, направление горных работ, толщина слоя фрезерования и оптимальные параметры работы горных машин, а также цели организации увеличения их использования в эксплуатации. были определены основные приемы.

ANALYSIS OF MINING TECHNOLOGICAL CONDITIONS AND EVALUATION OF DESIGN SOLUTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF THE JEROY-SARDARINSKY BED DEPOSIT OF GRANULAR PHOSPHORITES

By analyzing the mining and geological conditions of the Jeroy Sardara deposit, it was found that the average thickness of phosphorites ranges from 0.66 to 0.75 m, and the physical and mechanical properties of rocks from 3 to 5, as well as the coefficient of variation of the power of I phosphoplast 10-12% and for II phosphoplast 11-18%, the layers are gently falling (up to 50).

As a result of the research, conclusions have been drawn regarding the mining of the Jeroy-Sardar phosphorite mine. Optimal technological parameters of mining operations, the length of the development site, the direction of mining operations, the thickness of the milling layer and the optimal parameters of mining machines, as well as the goals of organizing an increase in their use in operation. The main techniques were identified.

UDK 656.13:004.89

AVTOTRANSPORT VOSITALARINING YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI OSHIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

*O.Q.Kamolov**

Kalit so‘zlar: *aqlli texnologiyalar, radiochastota, identifikatsiya, EZ-Link kartochka, “Touch and Go” to‘lov tizimi, RFID texnologiyasi, haydovchi, xavfsizlik, yo‘l harakati.*

So‘nggi o‘n yilliklarda simsiz texnologiyalar, aqlli texnologiyalar va radiochastotani identifikatsiyalash (RFID) texnologiyalari gavjum avtomobil yo‘llarida tirbandlik paydo bo‘lishining oldini olish uchun chet elda faol qo‘llanilmoqda. Bunday texnologiyalardan foydalanishning mohiyati aniq. Avtomobil yo‘llarining tirbandligi keskin o‘shib bormoqda va infratuzilma "klassik" harakatni boshqarish usullari bu o‘shishga dosh bera olmaydi. Shu bilan birga yuqori samaradorlik bilan radiochastotani identifikatsiya qilish texnologiyalar rivojlanib, bu esa harakat xavfsizligini tashkil etishda eng qulay va eng arzon innovatsion texnologiya hisoblanadi.

Hindiston og‘ir sanoat vazirligi mamlakatda ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun RFID texnologiyasidan foydalanishni majburiy qilish taklifini ko‘rib chiqmoqda. Singapurda jamoat transporti va poyezdlar allaqachon radiochastotani identifikatsiyalash texnologiyalariga asoslangan EZ-Link kartochkalaridan foydalanmoqda. Malayziyada tezyurar poyezdlar RFID “Touch and Go” to‘lov tizimidan foydalanadi [3].


Yo‘l harakati va uning xavfsizligini o‘rganishda turli xil yondashuvlar mavjud. Bir qancha chet ellik olimlar A. I. Ryabchinskiy, B. V. Kisulenko va T. E. Morozova, Y. M. Nemtsov va A. V. Mayboroda, V. S. Yushkov, B. S. Yushkov va A. M. Burgonutdinov, R. Lin, D. Kaban va J. Koullar harakat va ekspluatatsiyaning mexanik jihati transport vositalari va yo‘l-transport infratuzilmasi va xavfsizligini tashkil etishga asoslangan o‘z ilmiy ishlarida alohida e‘tibor qaratishgan [5].

Boshqa tadqiqotchilar A. V. Gorskaya, A. M. Yakupov psixologik- pedagogik yondashuvlar doirasida bolalar va maktab o‘quvchilari o‘rtasida xavfsiz yo‘l harakati madaniyatini tarbiyalash va o‘qitish orqali bolalar shikastlanishining oldini olish muammolarini chuqur o‘rganishgan.

RFID texnologiyasi ikki xil bo‘ladi: passiv va faol (1-rasm). Passiv yorliqda tashqi radio signal texnologiyaning integral sxemasini ishga tushirish va javobni qaytarish uchun yetarli bo‘ladi. Faol yorliqda o‘rnatilgan quvvat manbaiga ega.



a) Aktiv RFID




b) Passiv RFID

1-rasm. Aktiv va Passiv RFID yorliqlari.

* Kamolov Otabek Quadratovich – Jizzax politexnika instituti, Transport” fakulteti, “Transport vositalari muhandisligi” kafedrasida erkin tadqiqotchisi.

Umuman olganda, trafikni baholash uchun ishlatiladigan RFID yorliqlari transport vositasini ko'chma va statsionar radarlarga qaraganda aniqroq aniqlaydi, chunki ikkinchisi yo eng katta aks ettiruvchi sirtidan yoki eng yaxshi aks ettiruvchi sirtidan foydalanadi. Natijada, yuqori darajada aks ettiruvchi vosita orqasida harakatlanayotgan har qanday narsa radar tomonidan yo'qolishi mumkin.



2-rasm. Axborot ustuni ostida o'rnatilgan tezlikni o'lchovchi radarlar.

Eng oddiy va arzon hisoblanadigan passiv RFID yorliqlardan foydalanganda radarlar tepaliklarga, yoritish ustunlariga,

qo'shimcha axborot ishora beruvchi ustunlarga o'rnatiladi (2-rasm) va hamda yorliqlarining o'zi ham avtomobillarning old oynasiga o'rnatiladi [4] (3-rasm).

Biroq, bunday tizimlar odatda harakatni boshqarish emas, balki hodisalarni qayd etish usullariga ishora qiladi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ba'zida alohida transport vositalarining tezligiga yoki butun oqimga faol ta'sir qilish kerak, masalan, quyidagi hollarda:

- haydovchilarda charchoq sezilishi yoki og'riqli holatning boshlanishi;
- o'rganuvchi va yoshi kattaroq haydovchilar uchun shaharda harakatlanayotganda vaziyatni nazorat qilish hissi yo'qolishi;
- haydovchilar e'tiborini yo'l belgilaridan chalg'ituvchi bannerlar, reklama plakatlarini mavjudligi;
- vaqtinchalik yo'l belgilarini ko'pincha GOSTga mos kelmaydigan yoki transport vositalari



3- rasm. Avtomobil old oynasidagi RFID yorlig'i.

haydovchilari ko'rish uchun noqulay bo'lgan joylarda o'rnatish;

- ayrim transport vositalari haydovchilarining yo'l belgilariga e'tibor bermaslik [1].

Biz ushbu ilmiy maqolada radiochastotani identifikatsiyalash texnologiyasidan foydalangan holda yo'l harakati xavfsizligini tartibga solish muammosiga yangi yechim taklif qilmoqdamiz. Usulning mohiyati quyidagilardan iborat: transport vositalari harakati xavfsizligini oshirishga asosiy yo'l

belgilari va svetoforlarni takrorlaydigan va to'g'ridan-to'g'ri ularda joylashgan RFID yorliqlari bo'lgan modulyatsiyalangan radio signali bilan yo'l belgilari va svetoforlarning elektron analoglarini so'roq qilish orqali erishiladi [2]. Tadqiqot transport vositasiga o'rnatilgan radio signal uzatgich - qamrov zonasi bo'ylab tor yo'naltirilgan nurlanish radari tomonidan amalga oshiriladi.

Taklif qilinayotgan ilmiy usulning amaliy amalga oshirilishi quyidagicha bo'lishi mumkin (4-rasm). RFID yorliqlari qo'shimcha ravishda yo'l belgilariga (tegishli cheklovlarni yoki barcha cheklovlarni olib tashlaydigan cheklash belgilari va belgilari) va transport vositasining old qismiga o'rnatilgan svetofor vaqti-vaqti bilan yoki doimiy ravishda yo'l tomon radio signalini chiqaradi. belgilar va svetoforlar (transport vositasining harakatiga qarab). Radio signali RFID yorlig'iga tegsa, unda tebranishlar paydo bo'ladi. Belgilangan belgiga xos bo'lgan ma'lum bir tebranish chastotasida tebranishlar amplitudasining oshishi bilan birga rezonans hodisalari yuzaga keladi va signal atrofdagi bo'shliqqa chiqariladi. Transceiver tebranishlarning chastotasi yoki fazasiga ko'ra

chiqarilgan signalni (javob signalini) aniqlaydi va unga ma'lum bir m yorlig'ini belgilaydi va keyin bu belgini avtomatik ravishda signalni aniqlash uchun qurilmaga yuboradi.

Signalni avtomatik aniqlash qurilmasi har biri ma'lum bo'lgan yo'l belgisi va svetofor turiga mos keladigan belgilar to'plamini (matritsasini) o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, to'plamdagi har bir belgi audio fotosurat yoki video fragment shaklida, shuningdek ma'lum bir oqim qiymatining doimiy signali shaklida taqdim etilgan analogga ega. To'plamdagi yorliqlar o'z navbatida qabul qiluvchidan olingan yorliqqa qarama-qarshidir. Agar belgilar to'plamidan ma'lum bir belgiga mos keladigan bo'lsa, bu belgi audio, fotosurat yoki video fragment shaklida ma'lumotni ko'rsatish blokiga, shuningdek berilgan joriy qiymatning yonilg'i ta'minotini boshqarish blokiga doimiy signali shaklida uzatiladi, yonilg'i ta'minoti cheklovchisi bilan jihozlangan bo'ladi.


Ma'lumotni qayd etish bloki o'rnatilgan karnaylar orqali audio parchani qayta ishlab chiqaradi (masalan, "Diqqat! Avtomobilingiz tezligini 40 km/soat dan oshirmang"), shuningdek, ushbu yo'l belgisiga mos keladigan foto yoki video ma'lumotlarini ko'rsatadi. Masalan, "40 km/soat" belgisi tasviri yoki svetofor [4].

Yoqilg'i ta'minotini boshqarish bloki kiruvchi doimiy signalning kuchini oshiradi va uni cheklovchining elektromagnitiga yuboradi. Elektromagnitdagi maydonning o'zgarishi uning ichida joylashgan jismning harakatiga olib keladi, bir uchi shundan muhr orqali cheklovchining korpusiga kiradi va asosning qiyalik burchagi bilan kesilgan konus shaklida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, cheklovchining korpusiga kiritilgan va unga qattiq o'rnatilgan avtomobil yonilg'i liniyasining ikkala uchi ham xuddi shunday moyillik burchagiga ega. Jismning harakati natijasida yonilg'i liniyasining ko'ndalang kesimi o'zgaradi va buning natijasida avtomobilning yonish kamerasiga yonilg'i ta'minoti o'zgaradi, bu uning tezligining pasayishiga olib keladi [3].

Avtomobilning yonish kamerasiga yonilg'i yetkazib berishni cheklash yo'l belgisidan oldin sodir bo'ladi, bu tegishli cheklovni yoki barcha cheklovlarni olib tashlaydigan belgini bekor qiladi. Bunday holda, cheklash zonasiga mos keladigan RFID yorlig'i cheklash/cheklovlarni olib tashlaydigan belgidan bir oz masofada joylashgan bo'lishi mumkin. Bunday holda, ma'lumotni ko'rsatish bloki o'rnatilgan dinamiklar orqali audio fragmentni chiqaradi (masalan, "Tezlik cheklovlari olib tashlandi"), shuningdek, ma'lum bir yo'l belgisi yoki svetoforga mos keladigan foto yoki video ma'lumotlarini ko'rsatadi. . Shu bilan birga, yonilg'i ta'minotini boshqarish blokining chiqishidan, yonilg'i ta'minotining o'zgarishi tufayli avtomobilning keskin silkinishini oldini oluvchi chiziqli qonunga muvofiq, cheklovchiga signal to'xtaydi, jism yonilg'i liniyasidan chiqadi va yoqilg'i ta'minoti to'liq tiklanadi.

Harakatni to'liq taqiqlash bilan siz ikkita RFID yorlig'ini o'rnatishingiz kerak bo'ladi-biri haydovchini taqiqlangan zonaga kirish to'g'risida xabardor qiladi, ikkinchisi esa birinchisidan bir oz masofada joylashgan bo'lib, qurilma signallarini avtomatik ravishda tanib olish uchun

ishlab chiqarishga olib keladi.yonilg'i ta'minotini to'xtatish uchun mkn yorlig'i, bu transport vositasining yonilg'i liniyasi qismining to'liq bir – birining ustiga chiqishiga olib keladi. Transport vositasini taqiqlovchi yo'l belgisidan tashqariga ko'chirgandan keyingina harakatni tiklash



1 - йўл белгиси; 2 - RFID ёрлиги; 3 - қабул қилувчи; 4 - сигнални автоматик аниқлаш қурилмаси; 5 - маълумотни кўрсатиш блоки, динамиклар ва дисплей билан жиҳозланган; 6 - автомобиль ёнилги таъминотини бошқариш блоки; 7 - чекловчи; 8 - электромагнит; 9 - жисм электромагнети; 10 - муҳр; 11 - чекловчи танаси.

4-расм. Тактиф этилаётган усۇлни амалга ошириш схемаси.

mumkin. Xuddi shunday yo‘l belgisi bir nechta belgilar bilan tramvay yo‘llari, yo‘laklar, maysazorlar, piyodalar va velosiped yo‘llari va boshqalarda amalga oshiriladi [4].

Taklif etilayotgan usul, ma‘lum bo‘lganlardan farqli o‘laroq, quyidagilarga imkon beradi: xavfli hududlarda (piyodalar o‘tish joylari, chorrahalar, qat‘iy harakatlanuvchi transport vositalari uchun ajratilgan bo‘laklar, tramvay yo‘llari, maktabgacha va ta‘lim muassasalari va boshqalar) transport vositalarining tezligini faol ravishda nazorat qiluvchi yo‘l patrul xizmati mashinasidan "nol tezlik" signalini uzatish orqali qonun buzuvchini ta‘qib qilganda avtomashinani to‘xtatish uchun protsessorni yoki yonilg‘i ta‘minotini to‘siq qo‘yish orqali transport vositalarining tramvay yo‘llari va ajratilgan jamoat transporti yo‘llari bo‘ylab harakatlanish imkoniyatini cheklaydi [5].

Avtotransport vositalarining harakat xavfsizligini oshirishga innovatsion yondashuv - bu yo‘llardagi mavjud vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Ushbu yondashuvning asosiy jihatlari transport vositalarining mustahkamligi va barqarorligini oshirish uchun intellektual transport tizimlari, transportni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari, ilg‘or materiallar va konstruksiyalardan foydalanish kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

Innovatsion yondashuvning asosiy elementlaridan biri haydovchiga yordam berish tizimlaridan (ADAS) foydali tizimi bo‘lib, u avtomatik favqulodda tormozlash va adaptiv kruiz nazorati kabi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar yo‘l sharoitlari o‘zgarishiga tez va aniq javob berish orqali baxtsiz hodisalar xavfini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, infratuzilmani, jumladan, yo‘l sharoitlari haqidagi ma‘lumotlarni tezkorlik bilan uzata oladigan va haydovchilarni yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlardan ogohlantiruvchi sensorlar va aloqa tizimlari bilan jihozlangan aqlli yo‘l qoplamalarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Innovatsion yondashuvlar, shuningdek, transport sharoitlarini tahlil qilish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarni bashorat qilish uchun Big Data va undan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu nafaqat o‘zgarishlarga tezda javob berish, balki baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun faol choralar ko‘rish imkonini beradi.

Haydovchilarni malakasini oshirish va yo‘llarda mas‘uliyatni oshirishga qaratilgan ta‘lim va o‘qitish ham xavfsizlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib, yo‘l harakati xavfsizligi sohasida innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarning integratsiyasi bizga xavfsizroq, samaraliroq va bashorat qila oladigan transport muhitini yaratishga imkon beradi, bu esa baxtsiz hodisalar sonining kamayishiga va ularning oqibatlarining og‘irligining pasayishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Jizzax viloyati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining statistik ma‘lumotlari.
2. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlari 2020-y.
3. Azizov Q.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T., Fan va texnologiya, 2009,-244b.
4. Venttsel, E.S., Tutygin, A.G., Boxes, V.B., 2010, Advantages and disadvantages of the analysis method of hierarchies, Natural and exact sciences, 1(122), pp.108-115.
5. Lobanov, Ye.V. Transportnaya planirovka gorodov [Tekst]: ucheb. dlya studentov vuzov / Ye.M. Lobanov. - M.: Transport, 2010. – 240 s.



AVTOTRANSPORT VOSITALARINING YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI OSHIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Ushbu maqolada transport vositalarining yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilashga innovatsion yondashuv muhokama qilinadi. Asosiy e‘tibor baxtsiz hodisalarni kamaytirish va umumiy yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilashga qaratilgan yangi texnologiya va usullarni ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan. Maqolada intellektual transport tizimlari (ITS), transportni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari, transportni boshqarishda sun‘iy intellekt va narsalar interneti (IoT) dan foydalanish kabi yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi joriy tendentsiyalar va innovatsion yechimlar tahlil qilinadi. Favqulodda vaziyatlarni bashorat qilish va oldini olish uchun katta ma‘lumotlar va tahliliy platformalardan foydalanish, shuningdek, yo‘l infratuzilmasi holatini monitoring qilish va nazorat qilish tizimlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, muallif turli mamlakatlarda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning muvaffaqiyatli misollarini ko‘rib chiqadi va ularning samaradorligini baholaydi. Maqola transport xavfsizligi sohasidagi mutaxassislariga, muhandislarga, shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilashga qiziqqan barchaga qaratilgan.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД ПОВЫШЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ

В данной статье рассматривается инновационный подход к повышению безопасности дорожного движения транспортных средств. Основное внимание уделяется разработке и внедрению новых технологий и методов, направленных на снижение аварийности и улучшение общей безопасности на дорогах. В статье анализируются современные тенденции и инновационные решения в области дорожной безопасности, такие как интеллектуальные транспортные системы (ITS), автоматизированные системы управления транспортом, применение искусственного интеллекта и интернета вещей (IoT) в управлении дорожным движением. Особое внимание уделяется использованию больших данных и аналитических платформ для предсказания и предотвращения аварийных ситуаций, а также развитию систем мониторинга и контроля за состоянием дорожной инфраструктуры. Автор также рассматривает успешные примеры внедрения инновационных технологий в различных странах и оценивает их эффективность. Статья направлена на специалистов в области транспортной безопасности, инженеров, а также всех заинтересованных в повышении безопасности дорожного движения.

AN INNOVATIVE APPROACH TO IMPROVING VEHICLE ROAD SAFETY

This article discusses an innovative approach to improving vehicle road safety. The main focus is on the development and implementation of new technologies and methods aimed at reducing accidents and improving overall road safety. The article analyzes current trends and innovative solutions in the field of road safety, such as intelligent transport systems (ITS), automated transport management systems, the use of artificial intelligence and the Internet of things (IoT) in traffic management. Particular attention is paid to the use of big data and analytical platforms for predicting and preventing emergency situations, as well as the development of monitoring and control systems for the condition of road infrastructure. The author also examines successful examples of the implementation of innovative technologies in various countries and evaluates their effectiveness. The article is aimed at specialists in the field of transport safety, engineers, as well as everyone interested in improving road safety.

UDK 330.342

RAQAMLI IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

G.I.Kasimova, Sh.T.Jo'rayeva*

Kalit so'zlar: ERP tizimi, kompaniya resurslari, boshqaruv tizimi, yagona axborot makoni, Billing tizimi, portal, integratsiya, statistika, iqtisodiy statistika, ijtimoiy statistika, miqdoriy taxlil, statistik xisobot, iqtisodiyot, eStat tizimi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik.

ERP tizimlari (Enterprise Resource Planning System) – bu kompaniya resurslarini boshqaruv tizimlaridir. Bu tizimlar kompaniyaning barcha bo'linmalarini va uning zarur funksiyalarini yagona kompyuter tizimida birlashtirish uchun joriy etiladi. Bunda u kompaniyaning bo'linmalari joriy ehtiyojlarini qondirishga xizmat ko'rsatadi.

ERP tizimi barcha bo'linmalar va vazifalar bo'yicha yagona axborotlar bazasini yuritadi, shuning uchun axborotdan foydalanish osonlashadi va eng asosiysi bo'linmalarda axborot almashish imkoniyati yaratiladi.

Tashkilotga ERP tizimini joriy etish ma'lumotlarning ishonchlilik darajasining yuqoriligini, zarur axborotni olishda tezkorlikni, barcha bo'linmalarda bir xil ma'lumotdan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga tizimda axborotni ruxsatsiz olish va chiqib ketmasligini ta'minlash ishonchli himoya darajasini qo'llash orqali amalga oshiriladi. ERP tizimida barcha asosiy va yordamchi biznes-jarayonlar avtomatlashtiriladi, shu jumladan moliyaviy hisobot va distributsiya, ishlab chiqarish va logistika, kadrlar bilan ishlash hamda mijozlar bilan o'zaro munosabatni boshqarish kabi jarayonlardir. Yaratilgan boshqaruv tizimi kompaniyaning daromad olish darajasini va uning bozordagi o'rnini oshiradi.

ERP tizimi tashkilotga yoki tashkilotlar guruhiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- yagona axborot makonini yaratish;
- faoliyatning asosiy ko'rsatkichlarini oshirish;
- boshqaruv tizimini tizimlashtirish va takomillashtirish;
- boshqaruv samaradorligini oshirish;
- o'z faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni olishda ishonchlilikni va tezkorlikni oshirish;
- hisobotlarni o'z vaqtida va sifatli olishni takomillashtirish;
- kompaniyaning asosiy biznes-jarayonlarini samaradorligini oshirish.

Tashkilotlardagi boshqaruv va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish.

Katta tashkiliy tuzilmaga ega tashkilot va idoralar uchun UZINFOCOM Markazi tashkilotning ko'p sonli va tarqoq filiallarini yagona axborot muhitiga birlashtirish imkonini beruvchi axborot tizimini yaratishni taklif etadi.

Markaz mutaxassislari MS SharePoint Portal Server platformasida jamoaviy axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha loyihalarni amalga oshirib kelmoqdalar. Loyiha o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- Buyurtmachi-tashkilot talablarini o'rganish va tahlil qilish
- Portalni loyihalashtirish va uning prototipini yaratish

* Gulnora Ismoilovna Kasimova – Islom Karimov nomidagi TDTU “Axborot texnologiyalari” kafedrasida assistenti, Shoxista Tagirovna Jo'rayeva – Islom Karimov nomidagi TDTU “Axborot texnologiyalari” kafedrasida katta o'qituvchisi.

- *Dasturiy ta'minotni o`rnatish va sozlash*
- *Joriy etish va o`rgatish*
- *Texnik qo`llab-quvvatlash.*

Bunday axborot tizimlarini joriy etish natijasida, tashkilotda asosiy ish jarayonlaridagi samaradorlik ortib boradi.

Bugungi kunga kelib Markaz tomonidan qator axborot tizimlari ishlab chiqilgan va joriy etilgan:

“Ctrl” Davomatni nazorat qilish axborot tizimini joriy etish orqali tashkilotingizdagi xodimlarning mexnat intizomi monitoringini yuritib borish va tashkilotingizga ruxsatsiz kirishlarni cheklash kabi keng ko`lamli imkoniyatlarni yaratishingiz mumkin. Mazkur tizim hozirda UZINFOCOM markazida joriy etilgan bo`lib, boshqa tashkilotlarda ham joriy etish maqsadida sinovdan o`tkazilgan.

MS SharePoint asosida jamoaviy portal – u tashkilotda yangi ish muhitini shakllantiradi, natijada axborotni tezkor qabul qilish va qayta ishlash, qo`yilgan vazifalarni ijrosini nazoratga olish, hujjatlarni elektron ko`rinishda kelishish, to`g`ri qarorni qabul qilish uchun kerakli hisobotlarni va tahliliy ma`lumotlarni olish imkoniyati yaratadi. Portal UZINFOCOM Markazida bir necha yil oldin joriy etilgan va uni boshqa tashkilotlarga ham o`rnatish maqsadida sinovdan o`tkazilgan.

“Aloqa” Axborot tizimlari kompleksi – uning doirasida “Telefon aloqasi”, “Pochta aloqasi» va “Aloqa va ma`lumot uzatish tarmoqlarini boshqarish” tizimostilari yaratildi. Mazkur tizimlar yordamida telefon aloqasi, pochta aloqasi va aloqa tarmoqlari hamda ma`lumotlarni uzatish bo`yicha axborotlar jamlanadi va ularni foydalanuvchilarga faoliyat doirasida qo`llash, shu jumladan, bu yo`nalishlar bo`yicha asosiy ko`rsatkichlarni monitoring va tahlilini amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. Hozirgi kunda Axborot tizimlari kompleksi “O`zbekiston pochta» OAJning, “O`zbektelekom” AK va O`z TTBRMning barcha bo`linmalarida joriy etilgan.

“Mahalla” axborot tizimlari kompleksi – mahalliy o`z-o`zini boshqarish muassasalari va ular faoliyatlari to`g`risida ma`lumotlarni jamlash, qayta ishlash, tizimlashtirish va saqlash uchun “Fuqarolar yig`ini” axborot tizimi yaratildi.

EMMM axborot tizimi – EMMM markaziy apparati va filiallarida electron hujjat aylanish tizimini joriy etish.

O`zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari qo`mitasi axborot tizimi – axborot tizimining asosiy vazifalari bo`lib ish yuritish va hujjat aylanish jarayonlarini hamda o`zaroaloqa shakllarini standartlashtirish va unifikatsiya qilish, takrorlanuvchi jarayonlarni bartaraf etish hisoblandi.

Davlat statistika qo`mitasi axborot tizimi. Bu loyiha doirasida 5 ta tizim ishlab chiqilgan:

- *Asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko`rsatkichlarning ma`lumotlar bazasini boshqarish bo`yich maxsus dasturlar kompleksi (ONLINE – yechim)*
- *Internet tarmog`i orqali statistika hisobotlarini yig`ish tizimi (ONLINE – yechim)*
- *Tashkilotlar va muassasalarining yagona davlat registrini boshqarish va firma nomlarini taqdim etish tizimi (ONLINE – yechim)*
- *Elektron hujjat aylanish tizimi*
- *Rasmiy veb-sayt orqali ststistik ma`lumotlarni taqdim etish bo`yicha interaktiv davlat xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha tizim.*
- *Axborot tizimlarini yaratish bo`yicha shartnoma tuzish yuzasidan quydagi raqamlarga murojaat qilishingiz mumkin: telefon: 238-4228*

Axborot xavfsizligi ekspertizasi. Axborot xavfsizligi (AX) ekspertizasi tashkilotlarning kompyuter tizimlarini kamchilik va zaifliklarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi hamda ularning ish samaradorligini baholash va tashkilotning axborot himoyasini tahlilini tashkil etish maqsadida quidagi ishlarni amalga oshiradi:

- *tizimning mavjud meyoriy talablarga mosligini baholash;*

- *xavfsizlik sohasida qabul qilinayotgan barcha yechimlarni asosli va xuquqiyligini aniqlash.*

Tizimni samarali va to'g'ri ishlashini baholash axborot xavfsizligi darajasini oshirish maqsadida tashkilotlarning tashabbuslari bilan UZINFOCOM Markazi mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Tashkilot o'z faoliyati doirasida konfidensial ma'lumotlar bilan ishlasa (xodimlar yoki mijozlar ma'lumotlari) AX ekspertizasini o'tkazish o'ta muximdir. Bu turdagi ma'lumotlarni tashqi kirishlardan himoyalash shunchaki extiyotkorlik emas, balki tashkilotning asosiy majburiyatlaridan biridir.

UZINFOCOM Markazi mutaxassislari tomonidan o'tkaziladigan AX ekspertisasi ma'lumotlar muximligi darajasi, konfidensial axborotlarni saqlash ob'ektlarining tahlili va ularni saqlash ob'yektlariga kirish yo'llarini aniqlashni; korporativ muhitda yechilayotgan masalalarni tekshirishni; operatsion tizim, tarmoq xizmatlari protokollari va himoya tizimlari analizini o'z ichiga oladi.

O'tkazilgan, tarmoq va tizim axborot xavfsizligini ekspertisasi asosida, UZINFOCOM Markazi mutaxassislari, tashkilotning axborot resurslari himoyasini kerakli darajaga oshirish imkoniyatini beruvchi tavsiyalar beradilar.

AX ekspertisasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- *ishchi stansiyalarni tashqi nazorati;*
- *serverlarni tashqi nazorati;*
- *ishchi stansiyalar va serverlarni local tarmoq doirasida zaifliklar mavjudligiga maxsus dasturiy ta'minot bilan skanerlash;*
- *mavjud veb-saytlarni zaifliklar mavjudligiga avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minot bilan skanerlash va standart qo'losti vositalari yordamida tekshirish;*
- *o'rganilayotgan axborot tizimi joylashgan hududda mavjud jismoniy himoyaning tahlili;*
- *mavjud ichki meyoriy xujjatlarning taxlili, xususan axborot himoyasi doirasida;*
- *tashkilotdagi javobgar shaxslarni so'rovdan o'tkazish;*
- *ommaviy resurslarni va tarmoqda aylanayotgan ma'lumotlarning tahlili.*

Bugungi kunda tashkilotlar o'z xodimlari davomati va intizomini ob'ektiv baholashda bir qator muammolariga duch kelmoqdalar. Yirik tashkilotlarda xodimlarning ish vaqtini kuzatib borishni texnik vositalarsiz amalga oshirishning deyarli iloji yo'q. Bundan tashqari, yirik tashkilotlarda turli xil ob'ektlarga kirish-chiqish huquqi nazoratini axborot-kommunikatsiya texnologilarni joriy etmay turib, qator muammolarni jumladan xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni hal etish imkoni yoq. UZINFOCOM Markazi tomonidan yaratilgan «Ctrl» tizimini joriy etish orqali tashkilotingizdagi xodimlarning mexnat intizomi monitoringini yuritib borish va tashkilotingizga ruxsatsiz kirishlarni cheklash kabi keng ko'lamli imkoniyatlarni yaratishingiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, mazkur tizim joriy etilgandan so'ng, texnik tomonlama uni qo'llab-quvvatlashga harajatlar minimalligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ushbu tizim avtomatlashgan tarzda xodimlarning davomatini juda aniqlik bilan qayd qilib borib, ularni turli ob'ektlarga kirib chiqishini ham nazorat qiladi. Mazkur tizim hozirda UZINFOCOM markazida joriy etilgan bo'lib, boshqa tashkilotlarda ham joriy etish maqsadida sinovdan o'tkazilgan.

«Ctrl» tizimini ishlash tamoyili shundan iboratki, bunda zaruriy joyga nazorat nuqtasi (NN) o'rnatilib, shu nuqtadan ID-kartani (RFID tizimida ishlovchi) o'tkazish yo'li orqali kirish yoki chiqish amalga oshiriladi.

NNlarning funksional ahamiyati qo'yiladigan talablarga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Bu faqatgina NNdan o'tganlikni qayd etish yoki NNdan o'tganlikni belgilash va nazorat qilish bo'lishi mumkin.

Har bir NNsi orqali qayd etilgan faktlar yagona bazada to'planib boriladi. Keyinchalik xodimlarning kirish-chiqishini ko'rib borish uchun ularni avval ma'lumotlar bazasiga kiritish va ularning ID-kartalarini kirish ruxsati nishoni tarzida belgilab qo'yish kerak.

MS SharePoint asosidagi jamoaviy portal va elektron hujjat aylanishi tizimi

Hozirgi kunda faoliyatni yaxshilash uchun faqatgina ko'p miqdordagi axborotga ega bo'lish kamlik qiladi.

Ko'p miqdordagi turli xil ma'lumotlar (huquqiy hujjatlar, tahlillar, shartnomalar, hisobotlar, ish davomidagi yozishmalar va h.k) mazkur jarayonni faqatgina sekinlashtirishi mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni optimallashtirilmasa, xodimlar kerakli ma'lumotlar bilan ishlashdan ko'ra ularni izlashga ko'p vaqt sarflaydilar.

Bu muammoni yechishda korporativ portal yordam beradi. U web texnologiyasi yordamida yaratiladigan tizim bo'lib, tashkilot faoliyatiga uzviy bog'langan va uning resurslarini boshqarish imkonini beruvchi axborot tizimini aks ettiradi.

Korporativ portalni joriy etish quyidagi vazifalarga yechim topish imkonini beradi:

- *Turli axborot manbalariga kirishga ruxsat berish orqali xodimlar mehnati samaradorligini oshirish;*
- *Tizimga kirishga ruxsatni chegaralash orqali hujjatlar bilan ishlashda hamkorlikni ta'minlash;*
- *Tashkilotlarning biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va turli xil ilovalarini korxonaning yagona axborot muhitiga birlashtirish, Microsoft Office System, biznes-tahlil va loyihalarni boshqarish, shuningdek mavjud sohaga oid tizimlar, xususan ixtisoslashgan dasturiy ta'minot kabi qator tizimlarga bir nuqtadan kirish imkoniyatini yaratish;*
- *Tashkilotning axborot xizmatlariga kirishlarini markazlashtirilishi, ularni qo'llab-quvvatlash va modernizatsiyalashning osonlashtirilishi hisobiga kompaniya xarajatlarining kamayishi;*
- *AT xizmatlarini yanada rivojlanishi va tashkilotlarning biznes jarayonlarini avtomatlashtirish uchun yagona platforma yaratish.*

Tashkilotni boshqarishni kompleks avtomatlashtirish bo'yicha UZINFOCOM Markazi ichki korporativ portalni joriy etishni taklif etadi. Ushbu portal tashkilotda yangi ish muhitini shakllantiradi, natijada axborotni tezkor qabul qilish va qayta ishlash, qo'yilgan vazifalarni ijrosini nazoratga olish, hujjatlarni elektron ko'rinishda kelishish, to'g'ri qarorni qabul qilish uchun kerakli hisobotlarni va tahliliy ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratadi. Bu tizim doirasida quyidagi asosiy jarayonlarni avtomatlashtirish Mazkur tizim doirasida quyidagi asosiy jarayonlarni avtomatlashtirish amalga oshiriladi:

- *EDO ichki elektron hujjat aylanishi tizimi;*
- *Ijro intizomi monitoringi va boshqaruvi;*
- *Xodimlar masalalari bo'yicha ish yuritish;*
- *Barcha yoki alohida bo'lim va bo'linmalar ishini yuritish;*
- *Buxgalteriya va boshqa statistik hisobotlarni yuritish;*
- *Tashkilot faoliyati bo'yich ma'lumotlar bazasini va markazlashgan reestreni yuritish (bazasi, hisobot shakllari, turli blankalar, kontaktlarning ma'lumotlar banki, tashkilotlar va xodimlar reestri va h.z.).*

Mazkur tizim UZINFOCOM Markazida bir nacha yil avval joriy etilgan va to'liq sinovdan o'tkazilgan. Elektron hujjat aylanish tizimi muntazam ravishda yangilanib hamda uning funksional imkoniyatlari kengaytirib borilmoqda.

Billing tizimi. Taqdim etilayotgan xizmatlarni iste'mol qilinish hisobini yurituvchi qulay tizim.

Tizimda qulay tarif rejalarini yaratish uchun kerakli asboblarni majmuasi taqdim etilgan.

Tizim bo'limlar orasida bitta tizim doirasida vazifalarni taqsimlash imkoniyatini beradi (texnik xizmat, abonent bo'limi, hisob-kitob bo'limi). Foydalanuvchining har bir harakati tizimda batafsil qayd etiladi. Mijozlar o'z shaxsiy kabinetlariga kirish huquqiga egalar. U yerda mijozlar

buyurtmalar holatini va hisoblaridan mablag`lar yechilish jarayonini nazorat qilib borishlari mumkin.

Foydalanuvchining shaxsiy kabineti abonent bo`limini taqdim etilayotgan xizmatlar holati bo`yicha ma`lumotnomalar berish vazifasidan ozod qiladi. Foydalanuvchi o`z xizmatlarini o`zi nazorat qilib boradi. Tizimning ochiqdigi (barcha narsa foydalanuvchining ko`z o`ngida) hisobotlarni chiqarishda xilma-xillik (moliyaviy hisobotlar, ko`rsatilgan xizmatlarning xajmi bo`yicha hisobotlar).

The author's arguments in the article are well supported by relevant examples and case studies, making the article a valuable resource for scholars, policymakers, and practitioners in the field of surrogacy. In conclusion, the article demonstrates the need to create a global regulatory framework that provides protection for all parties involved in surrogacy. Overall, this article provides a thorough analysis of the rights and responsibilities of parties to surrogacy contracts and provides valuable insight into the challenges and opportunities in this rapidly evolving field.

UDK 821.512.133

MAKON-ZAMON VA OBRAZLARARO O'XSHASH IKKI ROMAN

D.U.Mamanova*

Kalit soʻzlar: tarixiy janr, pentalogiya, Qoʻqon xonligi, tarixiy shaxslar, tarixiy mavzu, pozitsiya, mingboshi, toʻqima obraz, obrazlar xarakteri, Xudoyorxon davri.

Vatan uning shonli va qonli tarixi necha ming yillarni necha zamon-u xonlarni koʻrgan. Boy tarixiy meros bugunga qadar yetib kelib barchani lol qoldirmoqda. Vatanimizdagi qadim Samarqand, Buxoro, Margʻilon, Xiva, Qoʻqon va boshqa bir qancha shaharlar tarixiy taraqqiyot davrini bosib oʻtgan va necha-necha ming yilliklarni qamrab olgan. Xususan, 2000-yildan oshgan Qoʻqon shahri va uning oʻtmishi hali hanuz tillarda shuningdek, kitoblarga muhrlanmoqda.

Yozuvchi tarixiy janrga murojaat etar ekan, tarixiylik prinsipini buzmagani, undan boshqa bir qolib yaratmagan holda estetik ideali tarixiy haqiqatga monand boʻlsagina yetuk tarixiy asar yarata oladi. Xuddi shunday Qoʻqon xonligi haqida Abdulla Qodiriy tarixiy real voqeylik bilan badiiy toʻqima asosida “Oʻtkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlarini yaratgan. “Oʻtkan kunlar” muqaddimasida “Yozmoqqa niyatlanganim ushbu – “ Oʻtkan kunlar” yangi zamon roʻmonchiligʻi bilan tanishish yoʻlida kichkina bir tajriba yana toʻgʻrisi, bu havasdir. Maʼlumki, har bir ishning ham yangi – ibtidoiy davrda talay kamchiliklari bilan maydonga chiqishi, ahllarning yetishmamlari ila sekin-sekin tuzalib, takomilga yuz tutishi tabiiy bir holdir...” [1. 5-b] deya aytib oʻtar ekan, “Tanazzul” pentalogiyasi ham xuddi shu asosda dunyoga kelgan. Yozuvchi Saʼdixon Mavlavixon oʻgʻli ushbu romanini yozishda undan ilhomlangan buni birinchidan, roman epigrafida, ikkinchidan, romanda Qoʻqon tarixini yoritishida, uchinchidan obrazlararo oʻxshashliklarda va boshqa koʻplab oʻrinlarda uchratishimiz mumkin. Bir davr haqida bugungi kunda yozilgan Saʼdixon Mavlavixon oʻgʻli Eshonjonovning “Tanazzul” romani va XX asr 1-yarmida yozilgan Abdulla Qodiriy asarlari oʻrtasida zamon-makon, voqealari, obrazlari oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlikda yozilgani bir-biriga mutanosibdir.

“Tanazzul” romaniga Abdulla Qodiriyning “Moziyga qaytib ish qilish xayirlik deydilar...” gapi epigraf sifatida olinib yozilgani ilk bogʻliqlik boʻlib, bu asar gʻoyasini ham belgilovchi jihati hisoblanadi. Bu jummalarni Qodiriy “Oʻtkan kunlar” da “... Shunga koʻra mavzuni mazmuni moziydan yaqin oʻtkan kunlardan, tariximizning eng kirlik qora kunlaridan belgiladim.” [1. 5-b] deb yozadi. “Tanazzul” asari ham nomlanishi bilan yuqoridagi Qodiriy fikrlarini isbotlaydi. Yaʼni Xudoyorxon davri, xonlikdagi yemirilib borayotgan vaziyat, qipchoqlarning hokimiyat boshqaruvini oʻz qoʻliga olgani, aka-ukalar oʻrtasida beklarning nayranglariga uchib taxt talashishlar, Rossiya tomonidan xonlikni bosib olishga boʻlgan harakatlari va natijada mustamlakaga aylantirgani hamma-hammasi Qoʻqon xonligining parokandaligi, tanazzulga yuz tutishidir. Darhaqiqat, har qachon ham ortga qarab, puxta oʻylagan holda qilingan ishda hayr-baraka boʻladi. Shunday ekan, tarix bizga har doim koʻzgu, eslatma, oʻrnak vazifasini bajaradi. Shu sababdan ushbu asarlar yaratilgan desak xato boʻlmaydi.

Asarlarda tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar hatto toʻqima obrazlararo oʻxshashliklarni koʻrishimiz mumkin. Buni “Tanazzul” dagi Yusufbek hoji, Musulmonqul mingboshi, Normuhammad, Oʻtapboy qoʻshbegi, Xudoyorxon, qipchoqlar qirgʻini voqealari va boshqa koʻplab

* Dilnoza Uktamovna Mamanova – Samarand davlat tibbiyot universiteti oʻzbek tili fani oʻqituvchisi.
«Yosh olimlar axborotnomasi» – «Вестник молодых ученых» – «The bulletin of young scientists»

o‘rinlarda uchramiz. “O‘tkan kunlar” dagi bosh to‘qima obrazlardan biri Yusufbek hoji obrazi “Tanazzul”da ham xarakter, siyosatga munosabati jihatidan mutanosiblikda aks ettirilgan. Buni asarlardagi quyidagi voqealar orqali tahlil qilamiz. “O‘tkan kunlar” da Yusufbek hoji Azizbek davri va qipchoqlar qirg‘ini holatida “Azizbek bo‘lsa javohir tojlar, oltin taxtlar, nozanin parivashlar, dong‘dor mahramlar” haqidag‘ina o‘ylar edi.

- Hoji, - dedi Azizbek so‘z ochib, - manim sizni o‘rdag‘a chaqirg‘anim sababini, albatta, bilmagandirsiz?

Yusufbek hoji xayolidan ko‘z ochdi:

- Taqsir... chaqirishingiz, albatta, fuqaroning tinchlig‘i, raoyoning holati rohati, hukumatning barqaror turmog‘i uchundir.

Hojining bu so‘zi Azizbekni yashindek urdi. Uning ko‘z o‘nglari qorong‘ulanib, haligi shirin xayollar tag‘in qorong‘iliqda yashirindi. ...Qarorim shundan iboratkim, ertadan boshlab yurtka o‘ttiz ikki tanga soliq sohasiz.

...Hoji Azizbekning bu ablahona qaroriga qarshi qizishdi. Azizbek bu zolimona buyrug‘iga qarshi qattiq so‘zlar aytishka o‘ylansa ham achchig‘ini qanday kishiga aytishni o‘ylab o‘zini bir oz yig‘di.

- Taqsir amringizga qarshi tushadiring‘an joyim yo‘q, - dedi, lekin shunisini bir oz o‘ylamoq kerakki, yurt yetmish kun qamal kechirdi... Menga qolsa bu kunlarda o‘ttiz ikki tanga emas, o‘ttiz ikki qora pul solish ham og‘irdir.” [1. 84-b.] degan suhbat orqali siyosatda ustuvor kishilardan, xalqni o‘ylab hokim rad eta olmaydigan maslahat beruvchi obraz sifatida tasvirlangan. Obraz xarakterining o‘xshashligi va to‘qima bo‘lishiga qaramay, bir xil pozitsiyada berilganligi yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Shunday ekan, asardan asarga ko‘chgan voqelik, turli obrazlar yaratish ortida tarixiy mavzudagi asarning salmog‘i-yu qiyinchiligi yotadi.

“Tanazzul” asarida esa Yusufbek hoji Xudoyorxonning Toshkentda hokimlik qilayotgan akasi Sarimsoqbekka otasi Sheralixon tilidan “O‘g‘lim, Yusufbek hoji dunyoning past-balandini, achchiq-chuchugini, qattiq-yumshog‘ini ko‘rib bilgan odam. Kengash bahslik bo‘lganda Yusufbek hojining gaplariga e‘tibor qiling,” [2. 256-b] deb aytilgan gaplarda shuningdek, Qo‘qonga yuboriladigan Toshkent atrofidagi bojlar beklarning gapi bilan o‘sha yerda olib qolishni maslahat qilayotganda Yusufbek hoji tilidan “...Mobodo, bojni olishga qaror qilgan bo‘lsalar, yarmini emas, xonlikka keladigan hamma bojni olib Farg‘ona davlatini bo‘ysundirsinlar. Toshkentni poytaxt qilsinlar. Salohiyatli bo‘lib, Buxoro amirligi bilan Xiva xonligini ham kuch bilan qo‘lga olib, tasarrufingizga oling. Oldingi buyuk Turkistonni barpo qiling. Bu ishda kamina joni dilim bilan yordamlashaman. Agar janoblar bojlarni Xo‘qanddan bu yog‘ini qayirib olishga farmon bersalar, xonlik ikkiga bo‘linadi. Ikkala tomondan minglab musulmonlar qirilib ketishadi. ...Mashoyixlarimiz “ayrilganni ayiq yer bo‘linganni bo‘ri yer,” - deb berkorga aytib o‘tishmagan. Shunday ham bo‘lingan Turkistonni yana bo‘lmasinlar, hokim janoblari,” [2. 257-b] degan gaplari keltirilib, obrazlararo tenglik borligini ko‘rishimiz mumkin. Yana bir o‘rinda “Agar siz nafsingizga qarasangiz ikki xalqni bir-biriga sovuq ko‘rsatib, adovat tuxumini sohib kelguchi bir nechagina odam bor... Menga qolsa mamlakatni tinchitish uchun shular to‘g‘risida o‘ylash kerak. Nainki, to‘rtta muttahaman deb butun bir xalqqa hujum qilish!” [2.257-b] deya Toshkentda bo‘layotgan beklarning qipchoqlar qirg‘iniga yig‘ilishlariga qarshilik ko‘rsatadi. Ikki asarda ham Yusufbek hoji obrazi siyosat ichidagi inson, hammaga so‘zini o‘tkazadigan mulohazakor sifatida gavdalantirilgan. “O‘tkan kunlar” da Toshkentdagi g‘alayon voqealari ko‘proq aks ettirilgan bo‘lsa, “Tanazzul” da Qo‘qondagi vaziyatga asosiy urg‘u qaratilgan.

Qodiriy Toshkentda yashaganligi va asarni ham shu joyda yozgani sabab u yerdagi voqealar tarixini yaxshi biladi. Otabek obrazi orqali ham xalqni uyg‘otishga, fikr mulohaza qilishga, ilm egallab mustaqil qadam qo‘yishga dav‘at etadi. Marg‘ilonga kelganda ilk mehmondorchilik suhbatlaridan birida O‘rus shaharlarida bo‘lganini, u yerdagi ijtimoiy-siyosiy holat haqida “Men o‘rusning idora ishlarini ko‘rib o‘z idoramizning xuddi bir o‘yinchoq bo‘lganini iqror etishga

majbur bo‘ldim... Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa, holimizning nima bo‘lishiga aqlim yetmay qoldi.” [1. 17-b] degan fikrlar keltiriladi.

“Tanazzul” romanida to‘qima Saidbek va Qilich obrazlarida ham Otabek yo‘lidan ketish kuzatiladi. Xudoyorxon ularni Rossiyaga o‘qishga – ilm maqsadida yuboradi. Dastlab imperator farmoniga asosan, “Naplyuyev nomidagi kredit korpusi” da keyin Qozonda tahsil oladi. Olti yil mobaynida rus, ingliz, arab tilida ravon so‘zlashni, harbiy soha - jang qilish taktikalarini o‘rganib, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jihatdan yetuk bo‘lib qaytishadi. Ayniqsa, buni Saidbek misolida romanda ochib berilgan. Xudoyorxon u bilan maslahatlashar, boshqa davlatlarda bo‘layotgan ishlarni batafsil so‘rab o‘rganar edi. Bu obraz orqali yangiliklar olib kiritilgan: askarlarning kiyimlari bir xilda bo‘lishi, saf bo‘lgan holda yurish, jang qilish texnikasi, elchilik aloqalari va shu kabi xonlikda yo‘q chet el nafasi kiritiladi:

“ – Uch yuz-to‘rt yuz nafar navkarlarni ularda rota deyishadi, ana shu navkarlar bir tekisda saf tortib podsho, vazirlar turgan maydondan gursillab o‘tsa, parad deyiladi.

...Besh-o‘nta ayg‘oqchi faqat bizda, xon hazratlari, ularda minglab ayg‘oqchilar bor. O‘rislar mirshablardan ko‘ra ayg‘oqchilardan ko‘proq qo‘rqishadi.

...O‘rislar g‘arb tomonda o‘ndan ortiq mamlakatni o‘ziga tobe qilib olgan hatto bir-ikkisini podsholigini yo‘q qilib, o‘zini o‘risidan bek tayinlab qo‘ydi. Ularda viloyat bekligini “gubernator” deb atashadi. O‘rislar o‘ta bosqinchi xalq. Bizning mamlakatimizga ham ko‘z tikiyadi shekilli.” [3. 63-b] Bu orqali ikki asarda ham yozuvchining maqsadi orqada qolishni oldini olish, rivojlangan davlatlardan o‘rnak olgan holda ish ko‘rmay qilingan harakatlar mustamlaka bo‘lishga olib kelishi mumkinligi aks ettirilgan.

Yana bir o‘rinda Otabek tilidan “Shamayda ekanman, qanotim bo‘lsa vatanga uchsam, to‘ppa-to‘g‘ri xon o‘rdasiga tushsam-da, o‘risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig‘ yozib o‘risning idora tartibini dasturilamal etishka buyursa, men ham bir oy ichida o‘z elimni o‘risniki bilan bir qatorda ko‘rsam.” [1. 17-b] degan fikr keltiriladi. Buni yozuvchi Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li “Tanazzul” asarida davom ettirib barchasini Saidbek obrazi orqali ochib berishni uddalagan. Lekin bu obraz orqali yangi havo nafasini olib kirdi-yu, oxirigacha yetkazilmaydi. Tarixiy haqiqatga xoslik bunga zamin yaratmadi.

Ikki asardagi Xudoyorxon obraziga keladigan bo‘lsak, Qodiriy romanida Xudoyorxon portret tasviri quyidagicha chizilgan “...to‘rt oyoqli marmardan yasalg‘an taxt ustida oltin kamarga taqilgan oltin sopli qilichini tizzasi ustiga ko‘ndalang qo‘yib, qizil duxobadan tikilgan po‘stin kamzul ustidan adras to‘n kiygan, boshig‘a simobi shohi salla o‘rag‘an o‘n sakkiz yoshlar chamaliq, cho‘ziqqina yuzlik, bug‘doy ranglik xon o‘ltirar edi.” [1. 115-b,] Musulmonqul mingboshi esa “O‘ratepa chakmani ustidan qayish kamar bog‘lab, soddag‘ina qilich taqq‘an, boshig‘a oq barra popoq kiyib, basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarli tekis yaratilg‘an, o‘rtacha soqol, qisiq ko‘z, bug‘doyrang, o‘rta yoshliq bir qirg‘iz,,,” [1. 115-b,] shaklida tasvirlanadi. “Tanazzul” dagi portret tasviri ham shunga o‘xshash bo‘lib tasvirlar bir xilligini uchratish mumkin.

Yana bir tarixiy shaxs Normuhammad qo‘shbegi obrazi asli qipchoq bo‘lsa-da “Musulmonqulning tutgan siyosatini yurt manfaatiga xilof deb biladi.” Ikki asarda ham Normuhammad qo‘shbegi Xudoyorxonga qarshi Toshkentni mustaqil hukumat qilgandek bo‘lib, Musulmonqul mingboshiga qarshi chiqadi. Xonga itoat etadigan qipchoqlarga teginmaydi, xonlikdan chiqib ketishini aytadi. “O‘tkan kunlar” da Normuhammad davrida “...o‘rinsizga kishi o‘ldirishlar, vaqtsiz ham o‘rinsiz soliq solishlar, behuda o‘rda usrofotlari, bo‘lmag‘ur taqiqlar va ortiqcha diniy takallufotlar bir muncha ebka olindilar.” [1. 206-b.] Negaki Azizbek qipchoq davrida bu o‘ta og‘ir ahvolga kelib qolgan edi. “Tanazzul” da Normuhammad qo‘shbegi davrida Toshkent osoyishtalikda, xalq undan minnatdor ekani bayon etiladi. Qipchoq urug‘idan bo‘lsa ham Musulmonqul mingboshiga qarshi turib xonning eng yaqin kishisi sifatida tasvirlangan.

Musulmonquldan keyin kelgan O‘tapboy mingboshi obrazi esa avval Marg‘ilon hokimi bo‘lib keyin xon tomoniga o‘tadi va mingboshining o‘rniga o‘tiradi. “Tarixiy shaxs – 1862-

yilda vafot etgan. Qipchoqlarning etalon urug'idan. Qurama (1847), Toshkent (1858), Marg'ilon (1860) hokimi bo'lgan. 1852-yil qipchoqlar qirg'inidan Xudoyorxon homiyligi natijasida omon qolgan edi." [4. 42-b.] deya tasvirlanib bu obraz ham ikki asarda uchraydi. "O'tkan kunlar" da Marg'ilondagi hokimligi tasviri bilan berilgan bo'lib, Otabekka qarshi Homid tomonidan ayblov qo'yilganda hokimning qo'liga tushadi. U tomonidan Yusufbek hojining Toshkentda Azizbekni hokimlikdan tushirib xonga qilgan yordami evaziga hamda Kumushning qaynotasi tomonidan yozilgan xatni keltirgandan so'ng otasi va eri – Otabek ozod qilinadi. Shu epizodik holat tasvirlarida tarixiy shaxs O'tapboy qo'shbegi obrazi kiritilgan. Mualliflar tarixiy shaxsni badiiy jihatdan tarix haqiqatlariga mos holda tasvirlaydi. Asarlar o'rtasidagi uyg'unlik zamon-makon va tarixiy shaxslar obrazini yaratishda yaqqol ko'zga tashlandi.

"Tanazzul" yozuvchisi tarix bilan bir qatorda Qo'qon xonligi haqidagi ilmiy, badiiy asarlarni o'rganganini, bunda Qodiriy asarlari asosiy ekanini ham ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, "Tanazzul" romanida diqqatimizni tortgan bir voqeani olaylik, Mallaxon Xudoyorxon tomonidan Toshkent hokimi etib tayinlangandan keyin beklar bilan yig'ilishda, beklar orasida " - Kattalarning ichida qo'shningiz ko'rinmaydi.

- Kimni aytyapsiz?

- Yusufbek hojinida.

- Ha-a... Hojibobomi? Kelinlari ko'z yorib, qazo qilgandan bu yog'iga o'rdaga qadam bosmay qo'ydilar." [2. 224-b.] degani "O'tkan kunlar" da Kumushga ishoradir u ham xuddi shu zaylda ko'zi yorishigandan keyin Zaynab tayyorlagan zahar qo'shilgan atalani yeb zaharlanib vafot etgan edi. Yozuvchi Qodiriy romanlaridan ilhomlangan badiiy to'qimadan to'qima xarakterni ham asarga kiritgani tahsinga sazovordir. Tarixni yaratishda yozuvchuning ilmiy, ijodiy salohiyati asarning haqqoniyligini, badiiyatini ta'minlab, tanqidchi, o'quvchi uchun ham manzur bo'ladi.

"O'tkan kunlar" so'ngida Otabek Kumush vafotidan keyin o'g'li Yodgorni olib Marg'ilonga ketadi va qaytib kelmaydi. Asar yakunida Yusufbek hoji Qanoatshodan bir maktub oladi. Qanoatsho Avliyo otadan yozar edi: "O'g'lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo'shunda edi. Olmaota ustidagi o'rus bilan to'qnashmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramanona urushib shahid bo'ldi. Men o'z qo'lim bilan ikkisini dafn etdim..." [1. 379-b.] degan xat tasviri uchraydi va pentalogiyada Qanoatsho obraziga havolada "Hozirgi Turkistonning Qorateginidan. Qo'qon xonlarining bir nechtasida amir lashkar lavozimida, shuningdek, Turkiston viloyatining hokimi bo'lgan. Ruslarga qarshi kurashganlardan. Buxoroga elchi bo'lib borganda amir Muzaffar tomonidan qatl etiladi." kabi fikr keltiriladi. Otabek o'z suyuqlisidan ajralgandan keyin usta Alimdek holatga tushadi. Ikki taqdirdosh qo'shinga navkarlikka tushib jonini omonatga qo'yganligi anglashilar ekan, Qanoatsho va undan kelgan maktub buni yaqqol ko'rsatib beradi. Bu tarixiy shaxs obrazi pentalogiyada ham keltirilgan bo'lib, ikkisida ham o'xshash bir-birini to'ldiruvchi fikrlarni uchratamiz. "Tanazzul" da esa "Qanoat otalig' – Qanoatshoh otaliq tojik. Qorateginning Samsoliq qishlog'ida olamga kelgan. Rus bosqinchilariga qarshi Uzug Ag'ach muhorabasida Qo'qon qo'shiniga boshliq bo'lgan va shu urushdan so'ngra g'oziy unvonini olgan. Amir Muzaffar farmoni bilan 1862-yili qatl etilgan." [4. 125-b.] degan ma'lumot uchraydi. Asarda esa uning xarakteri, nima sababdan qurol olib navkarlikka tayinlangani keltirilib o'tiladi. Uning amir Muzaffar tomonidan qatl etilishi ham bejizga emas, negaki uning yakka-yu yolg'iz singlisi bor edi. Tog'da yashashardi suluvligi-yu go'zalligi uni amirga kanizak sifatida olib ketilishiga sabab bo'ladi. Qiz o'z nomusi uchun kurashadi, lekin uddalay olmaydi. Amirga qo'pollik, qarshilik qilgani uchun uni o'ldirtirib yuboradi. Bu voqealardan keyinchalik so'rab-surishtirib xabardor bo'lgan aka - Qanoatshohda amirga nisbatan dushman kayfiyati paydo bo'ladi. Qanoatshohning qatli ham shu tufayli sodir bo'ladi. Tarixiy shaxslarni o'z holicha badiiylik bilan bezatgan yozuvchining "Tanazzul" romani va "O'tkan kunlar" romanlari o'rtasida umumiy xulosalar chiqarar ekanmiz uni quyidagicha keltiramiz: birinchidan, yozuvchi bir mavzu va davr o'z ifodasini topgan badiiy asarlar bilan mukammal tanishgan, ayniqsa, Qodiriy "O'tkan kunlar" romani bilan mutanosibdir;

ikkinchidan, romanlararo ham tarixiy ham to‘qima obrazlar jihatidan uyg‘unlik mavjud; uchinchidan, makon-zamon, voqealar, harbiy jihatlar ikkisida ham bir-biriga bog‘liqlikda; to‘rtinchidan, Qodiriy romanining mantiqiy davomi bo‘lib, yozuvchi undan ilhomlangan va o‘z asari uchun materillarni puxta o‘rgangan holda “Tanazzul” romaniga qo‘l urgan. O‘zining ijodiy rejasini amalga oshirib uning uddasidan chiqqan.

Tarix - hamma narsalarni o‘z qariga olar ekan, unda ba‘zan oddiy detallardan tortib katta-katta narsalar, shaxslar, voqealar tasvirlanadi. Tarix yaxshi nom bilan qolgan va qilingan ishlarni yaxshi ko‘radi. Shuningdek, uning aksini ham o‘z ichiga olishga majburdir. Xuddi shunday, xonliklar tarixi uning voqealari ham shaxslari ham badiiy adabiyotda biz uchun muhim o‘rnak olarli va vatanparvarlik hissini uyg‘otish uchun yetarli asosdir. Qodiriy merosi va undan bahramand bo‘lish biz uchun muhim. Ayniqsa, undan ta’sirlanib, ilhomlanib “Tanazzul” dek asar yaratish ham tahsinga sazovordir.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy O‘tkan kunlar – T; Navro‘z. 2019.5-17-84-115-206-374-b.
2. Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li. Tanazzul. 1-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi 2019. 224-257-b.
3. Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li. Tanazzul. 2-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi 2020. 63-b.
4. Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li. Tanazzul. 3-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi 2019. 42-125-b.



MAKON-ZAMON VA OBRAZLARARO BIR DAVR YORITILGAN IKKI ROMAN

Maqolada Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li Eshonjonovning “Tanazzul” pentologiyasi va Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani o‘rtasidagi zamon-makon, obrazlararo uyg‘unlik, voqealar rivojidagi o‘xshash jihatlar ko‘rib chiqilgan. Chunki bu ikki asar ham Qo‘qon xonligi tarixini aks ettirgan badiiy asarlardir. Abdulla Qodiriy romanida asosiy voqealar rivojida badiiy to‘qima obrazlar harakatlantirilgan bo‘lsa-da o‘sha qahramonlar siyosatdan yiroq bo‘lmagan obrazlardir. Ya‘ni siyosiy-ijtimoiy vaziyatga befarq emas. Qo‘qon xoni Xudoyorxon zamoni uning hukmronligi atrofidagi voqea-hodisalar ichida yoritilgan.

“Tanazzul” romani esa real tarixga asoslangan badiiy ijod namunasi bo‘lib, asosiy obrazlar ham tarixiy shaxslar tarixiy haqiqatga aloqadordir. Demak, bu ikki romanlarda bir-biriga bog‘liqlik mavjud bo‘lib ularning tarixiy obrazlar nuqtayi nazaridan va badiiy to‘qima jihatidan taqdiq qilish mumkin va shu holat o‘zaro qiyosiy tahlil qilingan. Shu jumladan, “O‘tkan kunlar” dagi bosh obrazlardan - to‘qima obraz hisoblangan Yusufbek hoji obrazi “Tanazzul” romanida ham keltirilgan. Shuningdek, “Tanazzul” da bu obraz vositasida uning kelini ya‘ni Kumushga nisbatan ham ishora borligini uchratishimiz va boshqa ko‘plab o‘rinlarda tadqiq qilishimizga dahldor nuqtalar yuzasidan tanqidiy tahlil etishimiz mumkin. Bu maqolada aynan shu jihatlarga asosiy urg‘u qaratilib, maqolaning xususiyati esa ikki asarning tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima jihatidan mutanosibligini tadqiq etish bo‘lgan.

Yakunida ikki asar o‘zaro makon-zamon, obrazlari va voqealar rivoji bilan aloqadorligi tarixiy haqiqatiga monand ekanligini ko‘rish mumkin. Hamda Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li asar yaratishdan oldin o‘zidan oldingi tarixiy va badiiy asarlar bilan puxta tanishgan holda yozilgan degan xulosaga kelingan.

ДВА РОМАНА ОСВЕЩАЮЩИЕ ОДИН ПЕРИОД МЕЖДУ ПРОСТРАНСТВОМ, ОБРАЗАМ И ВРЕМЕНЕМ

В данной статье рассматриваются время-пространство, межперсонажная гармония и сходство в развитии событий пентологи сына Садихана Мавлавихона Эшонджанова «Таназзул» и романа Абдуллы Кадири «Минувшие дни». Потому что

эти две работы являются произведениями искусства, отражающими Коканское ханство. В романе Абдуллы Кадири герои не далеки от политики, хотя основные события романа оживляются художественными персонажами. То есть ему небезразлична политическая и социальная ситуация. Время Кокан-хана Худоярхана освещено событиями, окружающими его правление.

Роман «Таназзул» представляет собой образец художественного творчества, основанного на реальной истории, а главные герои и исторические личности связаны с исторической действительностью. Итак, эти два романа связаны друг с другом, и это можно подтвердить и с точки зрения исторических образов, и с точки зрения художественной фактуры, и эта ситуация была сравнительно проанализирована. Среди них в романе «Таназзул» упоминается и образ Юсуфбека-хаджи, который является одним из главных героев «Минувшие дни». Кроме того, в «Таназзуле» мы можем найти Кумуш, его невестку через этот образ, и во многих других местах мы можем сделать критический анализ вопросов, которые нам следует исследовать. В данной статье в основном говорится именно об этих аспектах, а особенностью статьи является исследование соразмерности двух произведений с точки зрения исторической правды и художественной фактуры.

В конечном итоге видно, что обе работы схожи в исторической реальности взаимоотношениями пространства и времени, их образами и развитием событий. Был также сделан вывод, что перед написанием произведения сын Са'дикхана Мавлавихан тщательно ознакомился с историко-художественными произведениями своих предшественников.

TWO NOVELS THAT ILLUMINATE A PERIOD BETWEEN SPACE-TIME AND IMAGES

This article examines the time-space, inter-character harmony, and similarities in the development of events between Sa'dikhan Mavlavikhan's son Eshonjanov's pentology "Tanazzul" and Abdulla Qadiri's novel "Bygone Days". Because these two works are works of art that reflect the Kokhan Khanate. In Abdulla Qadiri's novel, the characters are not far from politics, even though the main events of the novel are animated by artistic characters. That is, he is not indifferent to the political and social situation. The time of Kokan Khan Khudoyar Khan is covered in the events surrounding his reign.

The novel "Tanazzul" is an example of artistic creativity based on real history, and the main characters and historical figures are related to historical reality. So, these two novels are related to each other, and it can be confirmed from the point of view of historical images and from the point of view of artistic texture, and this situation has been comparatively analyzed. Among them, the image of Yusufbek Haji, who is one of the main characters in "Gone Days", is also mentioned in the novel "Tanazzul". Also in "Tanazzul" we can find that there is a reference to Kumush, his daughter-in-law through this image, and in many other places we can make a critical analysis about the points that we should research. In this article, the main emphasis is on these aspects, and the feature of the article is the research of the proportionality of the two works in terms of historical truth and artistic texture.

In the end, it can be seen that the two works are similar to the historical reality of the relationship between space and time, their images and the development of events. It was also concluded that before writing the work, the son of Sa'dikhan Mavlavikhan had thoroughly familiarized himself with the historical and artistic works of his predecessors.

QISSADA DAVR IJTIMOIIY TALQINI

F.M.Nizomov*

Kalit soʻzlar: *motiv, xarakter, obraz, ramz, ramziylik, realizm, navotorlik, modern ong, ijtimoiy hayot, badiiyat, uslub, qadriyat, tamoyil, maʼrifat, talqin.*

Istiqloq davri adabiyotida, qissa janri namunalarida mavzular rang-barangligi, gʻoyaviy tizimining milliy-maʼnaviy, diniy qadriyatlarni atroflicha talqin etish tamoyillari kuchayganligi hamda davr ijtimoiy dardini aks ettirishi bilan eʼtiborni tortadi. Bunda Luqmon Boʻrixon, Abduqayum Yoʻldoshev kabi navqiron yozuvchilarning ham hissasi katta boʻlmoqda.

Istiqloq davrining oʻzbek nasri namunalarida aks etadigan xususiyatlar, adabiy izlanishlaridagi novatorona xususiyatlar Luqmon Boʻrixon asarlarida ham oʻziga xos namoyon boʻlganligi bilan eʼtiborga molikdir. Uning “Chorbogʻ qoʻriqchisi yoxud Xizr koʻrgan yigit” qissasi asar tuguni, umumiy falsafiy mohiyatida aks etgan.

“Kechagina eshagiga qiyshiq mingan qishloqi edim, bugun esa ajabtovur mashina oʻrindigʻida yastanib oʻtiribman-a?! Nahotki, Xizr koʻrganim chin?!” [1; 4-bet], degan bir qadar gʻalati, balki, ilohiy-irfoniy soʻzlar bilan boshlanadi. Darhaqiqat, Xizrbek abadiy oʻlmaydigan Paygʻambarning el aro yurishi haqidagi ilohiy aqidaning xalq orasida yurishi bu eʼtirofga ishonish ruhini hosil qilardi. Luqmon Boʻrixon sarguzasht-detektiv uslubdagi asarlarga xos ravishda, yuqoridagi kichik “maʼlumoti” bilan qissani qiziqarlilik mohiyatini hosil qila olgan.

Uch-toʻrt toʻy-tomoshada uch-toʻrt dongdor kurashchining kuragini yer isqatib polvon nomini olgan Korjov shu bilan “polvon” boʻlgan. El-ulusda “Chorshanba choʻponning kenjasi Xizr koʻrgan, endi iqboli baland boʻladi” - degan gap-soʻz tarqaladi. U esa bunga doimo kulibgina qoʻyar edi. Tusmolga koʻra, bu mish-mishlarni Husan – Ulash agronomning oʻgʻli toʻqib-bichib tarqatgan edi.

Qissa arxitektonikasi, voqealar tizimi bagʻrida, asarning yetakchi qahramoni tilidan hikoya qilingan syujet koʻlamida Mark Tven, Gʻafur Gʻulom, Xudoyberdi Toʻxtaboyev asarlari uslubida namoyon boʻladigan yumorga moyillik, shoʻx-shodon va gʻayrat-shijoatli yigit lafziga monand hazilomuzlik poetikasi ustuvor.

Korjov - rivoyachi hikoyasidan mazmunan:

- *Oʻshanda Husan ikkovimiz qoʻshni sovxoz fermasidan tovuq oʻgʻirlab kelgani ketayotgan edik.*
- *Biznikida sinfdoshlar yigʻilishib, bir ziyofat uyushtirmoqchi boʻlganimizda.*
- *Goʻsht topish Husan ikkovlarimizning boʻynimizga ilingan.*
- *Shu sabab shom shafaqi qizargan mahal eshaklarimizni qichab-qichab yoʻlga tushdik.*
- *Kengsoy dashti boshlanganda gʻira-shira qorongʻilik inib qoldi.*
- *U yoq bu yoqdan gangir-gungur guringlashib boryapmiz.*
- *Husan nuqul maqtangani-maqtangan. Kelgusi yil maktabni bitirgach katta shaharga ketar ekan.*
- *Institutga kirar emish. Toʻgʻrisi, maqtanganicha bor qurgʻurning.*
- *maktabda tuzukkina oʻqiydi-da!*
- *Munajjimlar ham bir qoʻyib-biri olib uni alqashadi, “Husandan umidimiz katta, qishlogʻimizning faxri boʻladi”, deb bashoratlar qilishadi.*

* Farxod Muso oʻgʻli Nizomov – Navoiy davlat pedagogika instituti katta oʻqituvchisi, tayanch doktorant.
«Yosh olimlar axborotnomasi» – «Вестник молодых ученых» – «The bulletin of young scientists»

- *Menga esa o'qrayib qarashgani-qarashgan, hammasiga baland bo'yim, qarovli qomatim aybdorday bosh qayqashadi:*
- *“Esiz jasad... esiz kuch-quvvat...”*
- *Ba'zan orim qo'zib, astoydil o'qishga bel bog'lab kitoblarga qo'milib o'tirgan paytlarim ham bo'lgan [1; 4-11-betlar].*

Mazkur taqdir tizimida asar qahramoni tiynati, xarakter-xususiyati, hayotiy maqsad-muddaolari ko'lami psixologik, hatto, ramziylik jihatdan ancha yorqin aks etgan. Korjovning hikoyasida mardlik, to'g'rig'o'ylik ruhini sezish qiyin emas. Bu jihatdan u Geklberri Finni (M.Tven), Shum bolani (G'.G'ulom) eslatib turadi.

“Biroq o'z-o'zimga bosh og'riqdan boshqa narsa ortirmaganman. Kitob-daftarga termulib o'tirish allanechuk ensamni qotiradi, nazarimda, men boshqa bir ishlar uchun yaralgandek edim. Xayol sursam, xayollarim Kengsoyning qir-adirlaridan nariga oshib o'tolmaydi, qo'y-qo'zilar suruviga aralashib yalangliklarda o'tlab qoladi. Shu sabab o'sha izg'irinli kechada uch-to'rt tovuq dardida borar ekanmiz, Husandek maqtana olmadim” [1; 5-bet].

Umarali Normatovning fikricha, “Inson shaxsiyatiga munosabat, turli xil tomondan yondashish, uni ziddiyatlari, murakkabligi, kuchli va ojiz tomonlarini ko'rsatishga intilish - hozirgi adabiy jarayonning xarakterli xususiyatlaridandir. Bu adabiyotimizda, nasrimizda realizmning chuqur ildiz otib borayotganligini tasdiqlaydigan muhim bir fakt.

Modomiki, adabiyot bu - insonshunoslik ekan, axir u insonni, uning ma'naviyatini har tomonlama tahlil, tadqiq etib berishi, odamlar, ularning bisoti haqidagi tasavvurimizni boyitishi, chuqurlashtirishi lozim” [3; 129-bet].

Sho'ro davri, sosrealizm qoliplari taqozo etgan siyosatlanish, adabiyotni kommafura g'oyalari targ'ibi va himoyasi sari yo'naltirish prinsiplari 80-yillar, so'ngra Istiqlol davri adabiyot namunalarida insoniylashish, kishilarning chin dardi, ma'naviy olami uchun qarg'urish konsepsiyasi yetakchilik qila boshlaganligi L.Bo'rixon nasri namunalarida ham o'z aksini topa boshladi.

Tovuq o'g'riligiga ketayotib, jo'shqin yigitchalar sham qorong'isi bag'rida oq libosli sharpaning oldidan chiqib qolishadi. Arvoh, sharpa obrazlari sho'ro adabiyotida deyarli talqin qilinmasdi.

“- Arvoh! O'lay agar, oq arvoh bu! - vahimali ravishda Husan pichirlaydi arang. - Ilgari Kengsaroyga shahidlar ko'milganini eshitganman, shularning arvohi!

- Hovliqma-ye, - deydi Korajov qir tomon tikilib. U do'sti aytgan “arvoh”, “shahid” degan so'zlarning ma'nosini aglab yetmaganidan, harnechuk qo'rqmayotgan edi.

Oq sharpa asta-sekin ular tomonga yelib kelar edi.

- Qochdik! - deya qichqirib yuboradi Husan, eshagini ortga burib” [1; 6-7-betlar].

Bu oq sharpa - qishloqlaridagi mulla Mirzo degan qariya edi. Oq sharpadan qo'rqmagan Korjovning o'ziga xos jasur xarakterini shu tariqa shakllantira boradi.

Qissaning syujet tizimida ramziylik talqini bilan mo'jizaviy realizm uslubiga xos ohang sinkretik tarzda uyg'unlashib ketgan. Qorjov xarakteridagi keksaga hurmat-ehtiram ko'rsatish fazilati uning Mulla Mirzaga nisbatan insoniy g'amxo'rlik odatida namoyon bo'lgan. Istiqlol adabiyotida har holda sharqona odob mujdalarining namoyon bo'lishi hodisasida deklarativlik emas, donishmandona poetik xususiyatlar e'tiborni tortmoqda.

“Men cholni eshagimga mindirib:

- Mulla buva, siz qishloqqa ketavering. Men mollaringizni topib izingizdan haylab boraman, - dedim.

Ancha-muncha isib biyrongina bo'lib qolgan mulla Mirza duo ustiga duolar qila ketdi.

- Iloyo, Xudojonim O'zi senga panoh bo'lsin, iloyo suyganingga yetishib qo'sha qariinglar, iloyo menimas, hazrati Xizrni ko'rgan bo'l...” [1; 6-7-betlar].

Darvoqe, sharqona pandnomalarda “Yaxshilikning javobi - yaxshilik” axloqiy aqidasi bu qissa g‘oyaviy-falsafiy ko‘lamiga singib ketgan. Dono qariyaning o‘ziga shafqat ko‘rsatgan Qorjovga, “Hazrati Xizrni ko‘rgan bo‘l” deya duo qilishi shu ilohiy g‘oya bilan bog‘liq.

“Men qariya bilan bo‘lib o‘tgan voqeani hech kimga aytmadim... To‘g‘rirog‘i, xokisor mo‘ysafidni u yer-bu yerda hazil-mazax qilishlarini istamadim. Biroq uning duo-iltijolari yurak-yuraklariga singib ketgan edi. Shuning uchun ham o‘sha kech Husanni qishloqda qayta uchratganimda maqtanib qo‘ydim:

“Bekor qochib ketding-da, men hazrati Xizrga duch bo‘ldim...”[1; 7-bet].

Yozuvchi Qorjovning keksa insonga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligini oshkor qilib yurmaslik haqidagi so‘zlari va qat‘iy ahdini ta‘kidlash bilan uning yana bir muhim sifatini - oqibatlilikini, yaxshiligini minnat qilmasligini ta‘kidlayotganligi e‘tiborlidir. Bunday usul qissaga sharqona g‘oyaning realistlik, hayotiy talqini nomini bergan.

Husan Qorjovning gap-so‘zlariga laqqa ishongan ekan. Keyinchalik g‘oyibdan qo‘shib-bichib kimlargadir yetkazibdi-yu, u shu-shu odamlar orasida Xizr ko‘rganga chiqib qoladi. Eng g‘alatsi, o‘sha voqeadan so‘ng Qorjovning ketma-ket omadi chopavergach odamlar og‘zidagi cho‘pchakka o‘zi ham chippa-chin ishona boshlaydi: “Balki Xizr... mulla Mirza bo‘lib ko‘ringan...”

Ta‘kidlash joizki, L.Bo‘rixonning adabiy qahramonlari asosan qishloqning, olis dashtliklar, tog‘ yonbag‘irlari aholisi bo‘lgan odmi vakillari, hayotda o‘z o‘rnini, iunosib kasb-korini egallash yo‘lida muttasil izlanuvchan yosh yigit-qizlar hisoblanadi. Mazkur jihatdan bu adibning F.Dostoyevskiy, Ch.Aytmatov, N.Eshonqul, Sh.Bo‘tayevo kabi ijodkorlarning adabiy mahsullariga ergashganligini ta‘kidlash mumkin. Shu ma‘noda odmi cho‘pon farzandi Erali obrazi, uning betakror xarakter-tiynati istiqbol davri, bozor iqtisodi asoslari shakllanayotgan o‘tish pallasi ayrim yoshlarining siymosiga hosili bilan e‘tiborni tortadi.

Erali o‘zining, ota-onasining kamxarj oila sohiblari ekanligini ko‘rib-bilib, bu uchun kamsinib yashaydigan yigit timsoli. Shunday bo‘lsa-da, yozuvchi bu xokisor, kurashchi, tabiatan tanti yigit ma‘naviy olami go‘zalliklarini nutqiy psixologik tahlillar yordamida talqin qila olgan. Erali L.Tolstoyning Polikushka (“Polikushka” qissasi), Ch.Aytmatovning Sultonmurod (“Erta kelgan turnalar” qissasi), Kamol (“Bo‘tako‘z” qissasi), Bola (“Oq kema” qissasi), N.Eshonqulning Muazzam (“Momoqo‘shiq” qissasi) adabiy timsollarining xarakter-tiynatini eslatuvchi obraz sanaladi.

Mana, u cho‘pon otasining izidan otarga bormoqda:

“Quyosh ko‘nglimday charaqlab turgan kunlardan birida odatdagiday charaqlab turgan kunlardan birida odatdagiday otarga jo‘nadim. Havo issiq edi. O‘t-o‘lanlar allaqachon qovjirab sarg‘aygan. Tevarakdagi qir-tepaliklar behol sulaygan tuyalarga o‘xshaydi. Bir bo‘zto‘rg‘ay baland uchib, quyosh tig‘lariga jo‘sh urgan ko‘yi bo‘zlab yotibdi. Ahyon-ahyon mening ham lab-lunjimdan ajabtovur hirgoyilar chiqib ketmoqda” [1; 7-8-betlar].

Tabiatning pokiza va suluv jamolini ko‘ra olish, his qila olish - ma‘naviy yetuklik belgilaridan biri ekanligi bo‘lib, bu o‘rinda Erali ruhiy olami go‘zalligi nishonasi kabi taassurot qoldiradi. Otarga borgan Erali tamoman kutmagan manzara ustidan chiqadi.

- Otasining cho‘liqlaridan biri o‘choqqa o‘t yoqib, qora qozonni to‘ldirib go‘sht qaynatmoqda.

- Uning esa ich-ichida allanequk g‘azab, allanechuk alam qaynab toshyapti: axir, aanovi avtoullov ne sababdan kelganini ichkarida kimlar o‘tirganini Erali xo‘b bilardi-da.

- Ular har yilning shu faslida “Qahratonda qirilgan ... yirtqichlar yeb ketdi... tullashda nosub bo‘ldi...” degan bahonalari bilan suruv-suruv qo‘y-qo‘zilarga akt-hujjat tuzishardi...

- Aslida o‘sha “qirilib ketgan” jonivorlar qir-adirlarni to‘ldirib o‘tlab yurgan bo‘lardi.

- Faqatgina davlatning mulk daftaridan o‘chirilib, o‘sha akt-hujjat ijodkorlarining xususiy mulkiga aylangan.

- Shu sabab ham Erali fidoyi va sabrli otasi boqadigan suruvning hiylaginasini allaqanday amaldorlarga tegishli chorva mollari ekanligini yaxshi bilardi.

- U esini tanib, bunday “fokus-mokus”larni anglab-bilgani sayin o‘zini qo‘yarga joy topolmay qolar edi, goh jahli chiqar, goh xo‘rligi ham kelar edi.

- Shu sababli o‘sha kuni Erali qaynayotgan qora qozon yonidagi odmi cho‘liq bilan ham salomlashmasdan o‘tov ichiga tomon g‘azab bilan kirib boradi. [1; 19-20-betlar].

Luqmon Bo‘rixonning asarlariga xos bo‘lgan fazilatlaridan biri - hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirib, uni psixologik-poetik, poetik-ramziy jihatdan o‘zining me‘yorida tahlil qila olishi bilan ham bog‘liq. Erali otasining chorva otarida Ch.Aytmatovning “Oq kema” qissasida O‘rozqul Ko‘karak kabi yovuz kuchlarning Ona Bug‘ining go‘shini yeb, aroqqa berilgan maishiy davralari, “Alvido, Gulsari!” qissasida cho‘pon Tanaboyning otarida unga haqoratli munosabatda bo‘lgan prokuror Semizboyev voqeasiga o‘xshash voqelikka duch keladi. Demak, “Oq kema”, “Alvido, Gulsari!”, “Xizr ko‘rgan yigit” qissalarining g‘oyaviy ko‘lamida zohir bo‘ladigan holat - sho‘ro davri mustabidlik mafkurasining poetik talqinidagi hayotiy haqqoniylik xususiyati o‘zaro mushtaraklik kasb etadi.

Ichkarida, tekinxo‘r rahbarlar maishat qilayotgan joyda uning otasi poygakda, shundoqqina oyoq kiyimlar yechilgan joyda cho‘k tushib, xotirjam bir qiyofada o‘tirardi. (Uni darrov payqamagandi ham). Ota bechora o‘g‘liga sal taajjublanib ko‘z tashlab qo‘yadi. U esa unga otaga alam-iztirob bilan tikiladi. Tikila-tikila uning peshonasidagi qat-qat ajinlar allaqanday yirtqich panjasidan qolgan izlarga o‘xshashini nogoh payqaydi. Siyrak soqol, qoramtir oriqlik yuzi eski bir kigiz parchasini eslatardi. Go‘yo, allakimlar uni toptab, nimalab tashlagandek edi. o‘g‘ilning bo‘g‘ziga achchiq danakdek bir narsa tiqilib qolgandek bo‘ladi.

Erali akt tuzish o‘yini ostida, boyib ketgan korchalonlarning qilg‘iligi, davlat mulkini talon-taroj qiluvchi jinoyatkorona faoliyatlari bilan mutlaqo kelisha olmaydi. Ota bechora bu ajabtovur munofiqlikka qo‘shilib qolgan. U bu masalada o‘g‘liga tasalli berganday bo‘ladi:

- Tavba, akt qilishganini endi ko‘ryapsanmi? Har doim shunday-ku?! Buning nimasi orqangni qichityapti?

- Ota... - dedimu yana o‘chib qoldim, butun dardu alamimni yaqqol ifodalaydigan so‘zni topolmay qiynalar edim. Ota, shu sizga zarilmi, a? Nima, ularning oldida mo‘r-malahmisiz, qulimisiz shu enagalarning? Davlat molining sho‘rini quritib yotgan shular-ku? Shu quzgunlar nima desa, doim ko‘nasiz...” [1; 10-bet].

Ota bunday zo‘ravon bu manfaatparast korchalonlar oldida kam bo‘lmaslik uchun o‘g‘liga munosib jihatlarini bayon etadi:

- *Otaga ichi achisa, o‘g‘li o‘qishi kerak;*
- *“Sen ham bir ustalni (mansabni) egalla”*
- *“O‘tov to‘rida yonboshlab yotib, maishat qilasan...”*
- *“Ana shunday otangning ko‘ngli tog‘day ko‘tariladi”*.
- *“o‘qisang, arbob bo‘lasan, tayoq ko‘tarib yurgan bechora cho‘ponlarning mingtasi oyog‘ing ostida yuradi”*.

Otaning o‘g‘liga chin dildan duo qilishi ayni vaqtda barcha yoshlar uchun ham daxldor;

- “Omi-i-in-n, Xudoyo, bu bechoralardan ham muruvvatingni ayama! Ko‘zim ochiqligida, hech qursa, kenjamning o‘qimishli arbob bo‘lganligini ko‘ray, iloyo!” [1; 10-bet] deya niyat bildirishida ham diniy motiv ko‘zga tashlanadi.

To‘g‘ri, Erali garchi arbob bo‘lmasa-da, Alloh etgan ibratli ma‘naviyati, tug‘ma kurashchi polvonligi uning mo‘tadil hayotiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Qissada uni sport ishlarida faol ishtirok etish uchun shaharga olib kegan ustozlari Toshtemir aka, sevgilisi Marjona, ustozining xotinalari kabi personajlar Erali xarakterining mukammallik kasb etishida o‘ziga xos vosita-obrazlar vazifasini ado etgan.

Erali - istiqloq davri nasrining xarakter-tiynati yorqin adabiy tip - qahramon tarzida o'ziga xos betakror timsol sanaladi.

L.Bo'rixon qissalari "o'tkir syujeti, betakror insoniy taqdirlar aks ettirilgani, tilining jozibadorligi, tasvirning samimiyati, eng muhimi, qahramonlar ruhiyatining sof o'zbekcha ifodalanganligi bilan o'quvchilarni o'ziga rom etadi. Uning qissalariga xos bir umumiy jihat shundan iboratki, ularda voqea-hodisalar tasviridan ko'ra ruhiyat ifodasiga e'tibor ustuvorlik qiladi" [5; 6-bet].

"Quyosh hali botmagan" qissasi [2] L.Bo'rixon ijodining bir pog'ona yuksalganini ko'rsatadi. Mazkur asarda Norsoat, Davron degan ikki o'spirin yigitning jo'shqin hayoti, Norsoat-Tanzila o'rtasidagi sof sevgi voqealari, Absal polvon misolida milliy kurashimiz targ'iboti masalari talqin etilgan.

Xalq orasidan yo'qolib borayotgan ayrim milliy qadriyat namunalari asrashga da'vat hali-hamon chekka qishloqlarda yakka-yarim saqlangan sibizg'a cholg'usining go'zallik namunasi sifatidagi talqini e'tiborlidir. Qishloqdan taqiqli Absal polvonning yonidagi shogirdlarga e'tibor bermay sibizg'asini g'ilofidan chiqarib chalishi, shogirdlariga ham o'rgatishi va bu sibizg'ani muqaddas saqlashga da'vat etishi, uning polvonga kuch, ishonch berishi, yurakni tozalab turishiga ishonish o'rinlari, shuningdek, ustoz-shogird o'rtasidagi havas qilgulik munosabatlar, otaga onaga munosabatlari hamda kurashga chiqishdan avval yoshi keksa insonlardan duo olishlarida diniy motivlar ko'zga tashlanadi.

Qissada boshdan-oxir yoqimli musiqa sadosidek ohista, ba'zan shiddatvor qo'shiq sehri kabi davom etib turadigan jarayon Norsoat-Tanzila o'rtasidagi muhabbat mazmunini aks ettiradi. Bu vaziyatda muhabbat borasidagi qishloq odobi – nomahram qizning yigit bilan uchrashuvga chiqmasligi, oshiqning oilasi va begonalardan andisha qilishi, sevgiga sadoqat, gumondan tiyilish o'rinlarida islomiy ma'rifat seziladi. Bu kabi jihatlardan bugungi kun yoshlari o'rnak olishi va yashash tarziga aylantirishi lozim.

Bu kabi diniy ma'rifiy motiv Abduqayum Yo'ldoshev ijodida ham uchraydi. Muallifning istiqloq davrining yutuqlaridan bo'lgan "Gudbay, Amerika!" qissasi [6] qahramonlaridan biri ko'pni ko'rgan ziyoli, xorijda yashasa-da milliylikni, insoniylik sifatlarini yo'qotmagan Adham bobo misolida amal qilinadi. Atrofdagilarni ham bunga chorlaydi. O'zining vatanparvarligi, yuksak xulq-atvori, rostgo'yiligi, qadriyatlarni saqlashga intilishi, ilmga bo'lgan diqqatida, shuningdek, nutqlari davomida muqaddas hadisi sharifdan olingan jummalarni muntazam takrorlab turishida bu xususiyatlar yuzaga chiqadi.

An'anaviy nasrimizda mumtoz ishq ohanglari yuksak mahorat bilan aks ettirilgan "Shunbulaning ilk shanbasi" nomli qissada insonlar sirini saqlash, muhabbatni muqaddas bilish, birovning ichki "ishlariga" aralashmalaslik, ishqni ilohiy ne'mat tarzida munosabatda bo'lish kabi o'rinlarda diniy ma'rifiy motiv seziladi. Asarda oshiq yigit yoriga shunchalar mehrliki, suyuklisini "farishtam", "iloham" sifatlashlari bilan erkalaydi. Bu o'xshatishda yorini Allohning go'zal, bexato yaratilari qatorida ko'rishga arziydigan Inson deb ulug'laydi. Uni muloyim, betakror, haroratli so'zlar ila erkalaydi.

Qissada ma'shuqa tomonidan bitilgan, ammo o'z egasiga kelishga ulgurmagan maktub, asar nihoyasida rivoyachi tomonidan ikki yoshning qabriga olib boriladigan tuproq maqola sarlavhasiga bog'liq jihatlarni ko'rsatadi.

Tirikliklarning eng so'nggi manziligi tuproqdir. Yozuvchi asar yakunini ham majoziylik asosida nihoyalaydi. Maktub o'z egasiga yetib borishi kerak, shu sababli Samarqandga – yigit dafn etilgan joyga borib, xatni tuproqqa topshiradi. Hamda uning qabridan bir siqim tuproq olib, Turkistonga – juvonning qabriga sochishi, uning ham makonidan bir siqim tuproq olib, hamxonasining qabriga sochishini niyat qiladi. Bu orqali erta xazon bo'lgan ikki oshiqning ruhini shod etishni niyat qilishi bilan tugaydi [7; 73-bet]. Marhumlarning ruhini bezovta etmaslik, birovning omonati, tuyg'ularning muqaddasligi, inson qadr-qimmatini, har ishga Allohning

nazari tushib turishligi, taqdiri ilohiyning mavjudligi kabi masalalar ayni shu ikki badiiy detal – xat va tuproq vositalari bilan ochib beriladi. Bu kabi jihatlar bugungi o‘zbek qissalarida diniy-ma’rifiy motiv va uning ijtimoiy ahamiyatini to‘liq ifoda etadi.

Istiqlol davri qissalaridagi Erali (Korjov), Adham bobo, Davron, Norsoat, Tanzila, ismlari keltirilmagan oshiqlar timsolida adabiyotshunos olim, professor A.Rasulovning “Inson o‘sadi, o‘zgaradi, shakllanadi, ruhan-ma’nan boyib boradi. Lekin inson tamoman o‘zgarib, ikkinchi “men” kasb etmaydi, o‘zligini yo‘qotmaydi, ya’ni ijtimoiy munosabatlar majmui inson mohiyati, fitrati mehvarida ro‘y beradi. Aniqroq aytsak, fitrat mavjudki, inson o‘zgaradi, moslashadi, tuslanadi, turlanadi. Demak, betakror muqim o‘zak ijtimoiy munosabatlarni singdirib boradi” [4; 9-bet], degan qarashi badiiy ifodasini topgan.

Istiqlol davri o‘zbek nasri namunalarida ko‘rinadigan xususiyatlar, adabiy izlanishlardagi novatorona fazilatlar Luqmon Bo‘rixon, Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarida ham namoyon bo‘lganligi bilan e’tiborlidir. Muallif qissalarida diniy-ma’rifiy motiv, ma’naviy qadriyatlar va davr ijtimoiy dardi mohirlik bilan yoritilgan. Qissa arxitektonikasi, voqealar tizimi bag‘rida, asarning yetakchi qahramoni tilidan hikoya qilingan syujet ko‘lamida Mark Tven, G‘afur G‘ulom, Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari uslubida namoyon bo‘ladigan yumorga moyillik, sho‘x-shodon va g‘ayrat-shijoatli yigit lafziga monand hazilomuzlik, chin insoniy iztiroblar poetikasi ustuvor.

Adabiyotlar:

1. Bo‘rixon L. Xizr ko‘rgan yigit. Qissalar va hikoyalar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, T-2007, 4-bet (256-b.)
2. Bo‘rixon L. Quyosh hali botmagan. T.: “O‘zbekiston”, 2015. B. 56-207.
3. Normatov U. Talant tarbiyasi. “Yosh gvardiya”, T-1980, 129-bet (176 bet).
4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. Toshkent: “Sharq”, 2007. 9-bet.
5. Yo‘ldosh Q. Badiiy kamolot yo‘li // Bo‘rixon L. Quyosh hali botmagan. T.: “O‘zbekiston”, 2015. B. 6.
6. Yo‘ldoshev A. “Gudbay, Amerika” qissasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. 122-282-betlar.
7. Yo‘ldoshev A. Ishq afsunlari: qissalar// “Sunbulaning ilk shanbasi”, Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. 6-bet.



QISSADA DAVR IJTIMOIIY TALQINI

Maqolada istiqloq davri o‘zbek qissalaridagi obrazlar olami, mualliflarning xarakter yaratishdagi mahorati, mazmunning o‘ziga xosligi, o‘zbek va jahon adabiyotidagi nasriy asarning ayrim xususiyatlarini izohlashga hamda o‘rta epik janrda diniy-ma’rifiy motivning aks etishiga oid atroflicha fikrlar bayon qilingan. Mahoratli yozuvchilar Luqmon Bo‘rixonning “Xizr ko‘rgan yigit”, “Quyosh hali botmagan”, Abduqayum Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Gudbay, Amerika” qissalari misolida mulohazalar bildirilgan. Asar g‘oyasi, muallif badiiy niyati va ijtimoiy hayotni aks ettirishdagi o‘rinlarga e’tibor qaratilgan. Obrazlarning ziddiyatli olami, xarakterlari tahlil etilgan. Ijodkor badiiy mahorati hamda ifoda uslubiga tegishli ba’zi qarashlar bayon etilgan.

СОЦИАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПЕРИОДА ПОВЕСТИ

В статье описывается мир образов и мастерство авторов в создании персонажей в узбекских рассказах периода независимости, своеобразие содержания, интерпретация некоторых особенностей прозаического произведения в узбекской и мировой

литературе, и отражение религиозно-просветительского мотива в среднеэпическом жанре. Проанализированы примеры из рассказов опытных писателей, как Лукмона Борихана, «Юноша, видевший Хизра», «Солнце еще не зашло» и повести Абдукаюма Юлдошева «Первая суббота Сунбулы», «Прощай, Америка». Внимание акцентируется на идее произведения, художественном замысле автора и в отражении общественной жизни. Анализируется конфликтный мир и характерные черты образов. Представлены некоторые взгляды, связанные с художественным мастерством художника и стилем выражения.

THE SOCIAL INTERPRETATION OF THE PERIOD IN THE STORY

The article describes the world of images in the Uzbek stories of the period of independence, the skill of the authors in creating characters, the uniqueness of the content, the interpretation of some features of the prose work in the Uzbek and world literature, and the reflection of the religious-educational motive in the middle epic genre. Comments were made on the examples of the stories of skilled writers Luqmon Borikhan, “The Guy who saw Khizir”, “The Sun has not set”, “The First Saturday of Sunbula”, “Goodbye, America” by Abduqayum Yoldoshev. Attention is focused on the idea of the work, the author's artistic intention and the places in the reflection of social life. The conflicting world and characters of the images are analyzed. Some views related to the artist's artistic skills and the approach to the style of expression are presented.

UDK 316.17

GENDER TENGLIGI VA KOMPETENTLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MAZMUNI, NIZOLI OILALARDA NAMOYON BO'LISHI

U.S.Saribayeva*

Kalit so'zlar: Gender tenglik, erkak, ayol, jinsiy tenglik, gender kompetentlik-kompetensiya, intellektual, emotsional kompetentlik.

Gender tengligi va jinsiy tenglik, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va qonuniy munosabatlar hisoblanib, I.E.Kalabixinaning fikriga ko'ra, gender tengligi — patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichidir. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish, bartaraf etish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat[1, b.18].

Gender tenglik bo'yicha butunjahon statistikasida O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egallagan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rinlarni yegallashgan, Turkmanistonda yesa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan. O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan[2]. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbayeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya raisi hisoblanadi[3].

2015-yilda Pokiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tengligi va ayollarning huquqlarini kengaytirish bo'yicha "BMT-ayollar" deb tanilgan bo'limi tomonidan ayollarni ish bilan ta'minlash masalasida hisobot tayyorlandi[6]. Hisobot mualliflarining fikriga ko'ra, oliy ma'lumotli ayollar soni maksimal darajaga yetganiga qaramay, ularning ish bilan ta'minlanish holati achinarli ko'rinishda: Universitetlarni imtiyozli diplom bilan tugatgan yosh qizlar, ayniqsa, tibbiyot va matematika kabi fanlardan yosh yigitlarni tobora ortda qoldirishlariga qaramay, ish topa olmasligi, ish topishga muvaffaq bo'lganlar ham har doim ham ijtimoiy ishonchsizlik tufayli o'zlarini ishonchli his qila olmasliklari, ko'rsatilgan. Ushbu muammo rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa, ayollarning 75 foiz ish o'rinlari, ish beruvchi tomonidan qonuniy majburiyatlari himoyalangan qayd yetilgan. Jumladan, rivojlangan mamlakatlar Shvetsiya va Fransiyada ayollar maoshlaridagi farq erkaklarnikiga nisbatan 31 foizga kamligi, Germaniyada 49 foizga kamroq, Turkiyada esa 75 foiz bo'lib, gender tengsizligiga qarshi kurashning asosiy choralari

*Umida Sattarovna Saribayeva – psixologiya fanlari nomzodi, Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti dotsenti.
«Yosh olimlar axborotnomasi» – «Вестник молодых ученых» – «The bulletin of young scientists»

butun dunyo bo‘ylab ayollarni yaxshi ish joylari bilan ta‘minlash huquqi kerakligi qayd etilgan. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, erkaklar va ayollarning ish haqidagi farq o‘rtacha 37,8% ni tashkil etadi, bu ko‘rsatkich mamlakatlar bo‘yicha juda katta farq qiladi — Buyuk Britaniyada 18,1% dan Angolada 59,6 % gacha, Moskva davlat universitetining iqtisodiyot fakulteti aholishunoslik kafedrasida dotsenti Kalabixina Irina Yevgenyevna tadqiqot natijalarida qayd etilishicha, Rossiyada erkaklar va ayollar o‘rtasidagi gender ish haqi farqi erkaklar foydasiga 37% ni tashkil qiladi va otana ta‘tiliga bo‘lgan huquqidan foydalangan otalar soni 2% dan oshmaydi[6].

BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish ta‘kidlaganidek, «Gender tengligiga erishish, ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish bizning davrimizning tugallanmagan vazifasi va bugungi kunda dunyodagi eng katta inson huquqlari muammosidir»[7, 32-b]

Gender tenglik bo‘yicha butunjahon statistikasida qayd etilgan va tadqiqotimizdan olingan natijalar erkaklar tomonidan nima uchun va qanday sababga ko‘ra xotin-qizlarga yetarli imkoniyat, ahamiyat va imtiyoz berilmayotganligining umummilliy, ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [8. 35-b].

"Kompetensiya" atamasi psixologik ishlarda keng qo‘llaniladi. Ijtimoiy-psixologik kompetensiya. A.A. Bodalev, A.A. Derkach, L.G. Lapteva, A. N. Suxov, V. N. Kazansev va b.q. tadqiqotchilar tomonidan uzoq vaqt va juda samarali o‘rganilgan; muloqotdagi kompetensiya Yu.M Jukov, L.A. Petrovskaya; ijtimoiy vakolat V.N.Kunisyna, N.V.Kazarinova, V.M. Pogolsha V.N.Kunisyna, N.V.Kazarinova, V.M Pogolsha; Yu.Mel ishlarida va T.I. Samsonovanning sotsiologiya fanidan nomzodlik dissertatsiyasida "Ijtimoiy kompetensiya kabi shaxsiy xususiyat insonga ijtimoiy muhitga adekvat moslashish va ijtimoiy muhit bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi", deyilgan. "Gender kompetensiyasi" tushunchasi yaqinda paydo bo‘lgan va bu hodisani o‘rganish hali ham uning nazariy va yempirik tadqiqotlarining dastlabki bosqichida I.S. Kletsinaning bir qator tadqiqotlarida uchratish mumkin. Mazmuniga ko‘ra, "ijtimoiy kompetensiya" atamasi "shaxsning gender kompetensiyasi" tushunchasiga yaqin. I.S. Kletsina ta‘rifiga ko‘ra "Gender kompetensiya - shaxsning gender munosabatlari sohasida samarali bo‘lishiga imkon beradigan xususiyati" tushuniladi. Gender kompetensiyasini insonga gender tengsizligi sharoitida adekvat tan olish va munosabat bildirish imkonini beruvchi xususiyat sifatida aniqlash mumkin, deyilgan. Boshqacha qilib aytganda, gender kompetensiyasi-bu yerkaklar va ayollarning hayotidagi gender tengsizligi holatlarini aniqlash qobiliyati; seksistik, kamsituvchi ta‘sir va ta‘silarga qarshi turish; gender tengsizligi holatlarini o‘zlari yaratmaslik[12.20-b.]. Muallif I.S. Kletsina tamonidan gender kompetensiya tushunchasiga ta‘rif berilgan bo‘lsada, ammo gender kompetentlikni har jihatdan, batafsil qamrab oladigan qirralari yoritilmay qolgan.

Ushbu maqolada "Gender kompetentlik va kompetensiya" tushunchalarining ijtimoiy-psixologik mazmunini yoritishda ilmiy manbaalarga asoslanib gender kompetentlikning ijtimoiy-psixologik mazmuniga ta‘rif berildi. Er-xotinlar gender kompetentligi darajasini o‘rganish imkonini beradigan savolnoma ishlab chiqilib bir qator xududlarda olib borilgan tadqiqotlarda oprobatsiyadan o‘tkazildi.

"Kompetentlik" (ingl: "competence" – "qobiliyat") – ya‘ni, "Gender kompetentlik" er-xotin munosabatlarida, oilaviy turmushda va jamiyat, ijtimoiy-madaniy hayotida yangilanayotgan gender tenglik me‘yorlari, talablari borasidagi nazariy bilimlardan gender hulq-atvorni namoyon etilishida samarali foydalanish, yuqori darajadagi gender sifatlarni o‘zlashtirishdagi malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. Shuningdek, yangilangan konstitutsional qonunda belgilangan gender hulq-atvor talablarini tez va onson o‘zlashtirish va amal qilishda samarali natijalarga erishish qobiliyatidir, deb ta‘rif berish mumkin.

Shuningdek, "Gender kompetentlik - yangilangan konstitutsional qonunda belgilangan umumijtimoiy-madaniy me‘yorlarini milliy qadriyatlarga asoslangan tarzda yuqori darajada, sifatli tez va onson o‘zlashtirish, samarali foydalanish malakasi, mahorati iqtidor va qobiliyat" sifatida talqin etildi. Gender kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining ijtimoiy-psixologik

mazmunini respondentlar tamonidan qanday tushunilishi va qay darajada gender kompetentlikka amal qilishlari biz tomonimizdan ishlab chiqilgan savolnoma asosida o'rganildi. Savolnomada erkaklar va ayollar uchun 70 ta tasdiq mavjud bo'lib, oilaviy munosabatlarda er-xotin kompetentlik darajasi 7 ta parametr:

1. Intellektual kompetentlik – tafakkurni kengligi, mulohazakorlik, fikrlarni to'g'ri boshqara olish darajasi;

2. Muloqot kompetentligi - o'zaro axborot almashinuvi va munosabatlarni to'g'ri tashkil eta olish qobiliyatini shakllanganligi;

3. Emotsional kompetentlik, hissiy-emotsional intellekt darajasi;

4. Axloqiy kompetentlik darajasi va zulmkorlik;

5. Mehnatga munosabat kompetentligi – oilani moddiy-iqtisodiy ta'minlash darajasi;

6. Psixofiziologik kompetentlik, biologik va psixofiziologik uyg'unlik darajasi;

7. Androgen kompetentlik -har ikki jinsga xos xususiyatlarni tarkib topganligi va o'z o'rnida namoyon etilishi darajasi aniqlandi.

Shuningdek, gender shaxslararo munosabatlarda qo'llaniladigan to'rtta uslub eng keng tarqalgan: sheriklik, dominantlik, qaramlik va manipulyativ munosabatlar o'rganildi.

IPS (ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi) natijalariga ko'ra nizoli oila tarkibiga kiruvchi er-xotin sinaluvchilarda "Intellektual kompetentlik darajasi, ya'ni, tafakkurning kengligi, mulohazakorlik, fikrlarni to'g'ri boshqara olish qobiliyati" 1-parametr 10 talik tasdiqdan iborat savolnoma asosida aniqlandi. Sinaluvchilardan savollarni diqqat bilan o'qib chiqib, o'zlariga mos javoblarni 1-har doim, 2-ko'pincha, 3-ba'zida, 4-xech qachon, degan natijalar bilan baholab berishlari so'raldi.

Intellektual kompetentlik – tafakkurni kengligi, mulohazakorlik, fikrlarni to'g'ri boshqara olish darajasi.

1-jadval. (nizoli oilalar natijasi)

№	Tasdiqlar	1-5 yil (OYAM) ayol				1-5 yil (OYAM) erkak			
		har doim	Ko'pincha	Ba'zida	Xech qachon	har doim	Ko'pincha	Ba'zida	Xech qachon
1	TO'ning fikrlari keng, to'g'ri va asosli taklif, tushuncha bera oladi	6	17	29	48		9	21	70
2	Fikrlarim tarqoq, muxim va nomuximni ajrata olmayman	23	45	21	11		13	41	46
3	Janjallashib qolsak TO' mulohazakorlik va xotirjamlik bilan vaziyatni yumshata oladi			47	53	7	18	26	49
4	TO' har bir ishda mulohaza va bosiqlik bilan fikr yuritadi, xulosa chiqaradi		28	31	41		11	23	66
5	Men har bir ishda mulohaza va bosiqlik bilan fikr yuritaman, xulosa chiqaraman		9	33	58	21	34	28	17
6	TO'ning fikri, mulohazasi tor, zerikarli odam	8	43	39	10	19	43	32	6
7	Fikrimni to'g'riligini aytish uchun zarur so'z topa olmay qolaman	19	37	38	6	32	57	11	
8	TO'ni uzoqni o'ylamaydigan noshukurchilik odati bor	19	24	39	18	0	24	32	44
9	Uzoqni o'ylamay, diydiyo qiladigan, noshukurchilik odatim bor	11	28	43	18	12	21	18	49
10	Kam o'ylik qilib xato qaror qabul qilib qo'yaman	19	37	38	6	32	57	11	

Tadqiqotdan olingan natijalarga (1-jadval) binoan, nizoli oila guruhiga mansub, 1-5 yil oilaviy yashash muddati (OYAM) ga ega erkaklar "TO' (turmush o'rtog'im)ning fikrlari keng, to'g'ri va asosli taklif, tushuncha bera oladi" tasdig'i bo'yicha, har doim – 0 foiz; 9 foizi –

ko‘pincha; 21 foizi - ba‘zida; 70 foizi – -xech qachon degan javob berishgan. Bu er-xotin o‘zaro hayot kechirishi mobaynida insoniy va madaniy munosabatlarni amalga oshirishda zarur bo‘ladigan aqliy intellect darajasini nihoyatda quyi ekanligini izholaydi.

1-10 yillik OYAM ga ega er-xotinlar o‘rtasida gender tenglikni namoyon etilishiga salbiy ta‘sir etadi.

“Fikrlarim tarqoq, muxim va nomuximni ajrata olmayman” tasdig‘i bo‘yicha har ikkala erkak va ayollar o‘z-o‘zini baholaganlarida erkaklarning har doim tasdig‘iga – 0 foiz; 13 foizi – ko‘pincha; 41 foizi - ba‘zida; 46 foizi – xech qachon, degan javob berishgan. Ayollarning 23 foizi – har 45 foizi – ko‘pincha; 21 foizi – ba‘zi hollarda o‘z fikrlarini tarqoqligi, muxim va nomuximni ajrata olmasligini bildirishgan, atigi 11 foiz ayollar – xech qachon fikrlari tarqoq emasligini, muxim va nomuximni ajrata olishlarini bildirishgan. Tadqiqot natijalarining bunday ko‘rinishi - nizoli oilada ayollarning fikrlarini tarqoqligini, tafakkurning muxim va nomuximni ajrata olish jarayoni yaxshi tarkib topmaganligini ko‘rsatadi.


Janjallashib qolsak TO‘ mulohazakorlik va xotirjamlik bilan vaziyatni yumshata oladi tasdig‘i erkaklar tomonidan 7 foiz – har doim; 18 foizi – ko‘pincha; 26 foizi - ba‘zida; 49 foizi – -xech qachon, degan javob berishgan. Ayollarning javblariga ko‘ra erkaklarni janjalli vaziyatlarni mulohazakorlik va xotirjamlik bilan yumshata olish qobiliyatini - har doim – “0” foiz; ko‘pincha – “0” foiz; 47 foizi - ba‘zida, 53 foiz ayollar – xech qachon, deb tasdiqlashgan.

TO‘larning har bir ishda mulohaza va bosliqlik bilan fikr yuritishi, xulosa chiqarishi tasdig‘i bo‘yicha erkaklarning ayollarga bergan bahosida har doim – 0 foiz; 11 foizi – ko‘pincha; 23 foizi - ba‘zida; 66 foizi – -xech qachon degan javob berishgan. Ayollarning “0” foizi – har doim; 28 foizi – ko‘pincha; 31 foizi - ba‘zida, 41 foiz ayollar – xech qachon erlari har bir ishda mulohazakorlik va bosliqlik bilan fikr yuritmasliklarini, xulosa chiqarmasliklarini tasdiqlashgan.

Biroq, “Men har bir ishda mulohaza va bosliqlik bilan fikr yuritaman, xulosa chiqaraman”, tasdig‘i bo‘yicha er-xotinlar o‘z-o‘zini baholashganlarida erkaklarning 21 foizi – har doim, 34 foizi – ko‘pincha; 28 foizi - ba‘zida; 17 foizi – xech qachon o‘zini har bir ishda mulohazakorlik va bosliqlik bilan fikr yuritmasligi, xulosa chiqara olmasligini bildirishgan.

Ushbu tasdiq bo‘yicha, ayollarning “0” foizi – har doim 9 foizi – ko‘pincha; 33 foizi - ba‘zida, 58 foiz ayollar – xech qachon o‘zini har bir ishda mulohazakorlik va bosliqlik bilan fikr yuritmasligi, xulosa chiqara olmasligini baholashgan.

Shuningdek, erkaklarning 19 foizi – har doim 43 foizi – ko‘pincha; 32 foizi - ba‘zida, 6 foizi – xech qachon; ayollarning 8 foizi – har doim 43 foizi – ko‘pincha; 39 foizi - ba‘zida, TO‘ning fikri, mulohazasi tor, zerikarli odam, deb baholashgan. 10 foiz ayollar – xech qachon TO‘ning fikri, mulohazasi tor, zerikarli odam emasligini tasdiqlashgan. Bu ko‘rsatkich nizoli oila er-xotinlari o‘rtasidagi sheriklik va hamjixatlik munosabatlarga to‘sqinlik qiladi. Oilada intellektual kompetentlik va mulohazakorlikni yaxshi shakllanmaganligi zo‘ravonlik ko‘rinishidagi dominatlikka, qaramlik va manipulyativ munosabatlarga sabab bo‘ladi.



Nizoli 1-10 yillik yashash muddatiga ega oila ayol va erkaklari tomonidan intellektual kompetentlik – mulohazakorlikni baholanishi % hisobida.

Xulosa: tadqiqotimiz natijalari erkaklar, er yigitlar xulq-atvoridagi gender xususiyatlar - intellektual kompetentlik va mulohazakorlik, ishonch, xotirjamlik, muloxazakorlik, xissiyotlarini to'g'ri va ochiq namoyon eta olish, ayol qizlarga ma'naviy, ruxiy-psixologik, iqtisodiy tirgak, suyanchiq bo'la olish ko'nikmasi shunchaki, erkak bo'lib tug'ilganligi uchun o'z-o'zidan shakllanib qolmasligini, ushbu xulq-atvor shakllarini ijtimoiy, madaniy kontekstlarda tarkib topishi uchun ota xulq-atvorining oiladagi va jamiyatdagi namunasi zarurligini ko'rsatdi;

Ayollar xulq-atvorida mehnatga munosabat kompetentligi - oilani moddiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlash ma'suliyati va javobgarligi erkaklar kabi birdek tarkib topganligi kuzatildi.

Jumladan, O'zbek oilasi er-xotinlar o'rtasidagi gender tenglik masalalari ijtimoiy rollar va ijtimoiy ongliklik, umummadaniy shakllanganlik, aqliy intellektual salohiyat, umuminsoniy qadriyatlar tizimi va shaxsning o'z-o'zini baholash darajasiga xam bog'liqligini o'rganish o'z yechimini kutayotgan masalalardan biridir. Bunda albatta har bir shaxsning gender kompetentligi darajasi muhim ahamiyat kasb etadi, degan g'oyani ilgari suramiz.

Adabiyotlar:

1. I.E.Kalabixina Kratkiy ponyatiyniy slovar po gendernim issledovaniyam // Sotsialniy pol: ekonomicheskoye i demograficheskoye povedeniye Uchebno-metodicheskiye materialy po kursu.M., 1998.
2. <https://lex.uz/docs/-4494849> Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari to'g'risidagi O'RQ-562 02.09.2019
3. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi rasmiy sayt "komissiya haqida" sahifasi, 2021-04-14da asl nusxa arxivlandi, qaraldi: 2021-04-14
4. Savelev S. V. Intervyu: ot vesa mozga zavisit ves v obschestve
5. Aleftina Posternak Ravenstvo mujchini i jenshini. Takaya odna utopiya? (2011-10-18 sanasida arxivlangan) // Internet-gazeta "Yediniy mir", 08.03.2010
6. Sentr novostey OON — OON o pravax jenshin: do polnogo gendernogo ravenstva Prava jenshin | Novosti OON (un.org).
7. Guterrish A. Poslaniye po sluchayu Mejdunarodnogo jenskogo dnya. OON.08.03.2018.URL:<https://www.un.org/sg/ru/content/sg/statement/2018-03-08/secretary-generals-message-international-womens-day-scroll-down> (data obrasheniya: 05.09.2020). Data postupleniya rukopisi v redaktsiyu: 30.12.2019 Data prinyatiya k publikatsii: 15.06.2020 Dlya svyazi s avtorom / Corresponding author: Yemail: n.shvedova2015@yandex.ru 32.
8. Saribayeva U.S. O'zbek oilalarida gender tenglik va milliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. T.: Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnali. 2021-yil 4-son, 34-36 b.
9. Основы sotsialno-psixologicheskix issledovaniy: ucheb. dlya vuzov / pod общ. red. A.A. Bodaleva, A.A. Derkacha, L.G. Lapteva. – M.: Gardariki, 2007.
10. Petrovskaya L.A. Razvitiye kompetentnogo obsheniya kak odno iz na pravleniy okazaniya psixologicheskoy pomoshchi // Vvedeniye v prakticheskuyu sotsi alnuyu psixologiyu: ucheb. Posobiye / pod red. Yu.M. Jukova, L.A. Petrovskoy. M.: Smysl, 1996. – S. 150–166. Zakaz kopii fragmenta dokumenta. Podderjka:+7 (499) 557-04-70*1061 — Yandex Forms
11. Kunisyna V.N., Kazarinova N.V.. Pogolsha V.M. Mejlichnostnoye obsheniye: ucheb. dlya vuzov. – SPb.: Piter, 2001.
12. Kletsina I.S. Gendernaya kompetentnost lichnosti// Gendernaya psixologiya: praktikum. 2-ye izd. / pod red. I.S. Kletsinoy. – SPb.: Piter. 2009. – S. 316–339. □ Vvodnye zamechaniya, Glava 19. Gendernaya kompetentnost lichnosti. I. S. Kletsina. Gendernaya psixologiya. Klyotsina I. S. Stranitsa 20. Chitat onlayn - Bookap.info

GENDER TENGLIGI VA KOMPETENTLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MAZMUNI, NIZOLI OILALARDA NAMOYON BO'LISHI

Ushbu maqolada ilmiy-nazariy manbaalarga tayangan xolda gender kompetentlikning ijtimoiy-psixologik mazmuniga ta'rif berildi. Gender kompetentlik - gender me'yorlarni va zamonaviy gender rollarni umumijtimoiy-madaniy-milliy qadriyatlarga tayanib sifatli, tez va onson o'zlashtirish, samarali foydalanish va xulq-atvorda yuqori darajada namoyon etish malakasi, mahorati iqtidor va qobiliyati" sifatida talqin etildi.

"Gender kompetentlik darajasini o'rganish" savolnomasi yordamida nizoli oila er-xotinlarini "Intellektual kompetentlik" darajasi, ya'ni tafakkurni kengligi, mulohazakorlik, fikrlarni to'g'ri bayon eta olish qobiliyati tadqiqot natijalari asosida yoritildi.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ, ПОРЯДОК В СПОРНЫХ СЕМЬЯХ

В данной статье на основе научно-теоретических источников дана характеристика социально-психологического содержания гендерной компетентности. Гендерная компетентность - качественное, быстрое и своевременное овладение гендерными критериями и современными гендерными ролями, основанными на общесоциально-культурно-национальных ценностях, а также умение и умение эффективно использовать и демонстрировать их на высоком уровне.

С помощью вопросника «Изучение уровня гендерной компетентности» выявлена степень «Интеллектуальная компетентность», то есть широкое мышление, рассудительность, умение правильно выражать мысли.

GENDER EQUALITY AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONTENT OF COMPETENCE, ORDER IN CONTROVERSIAL FAMILIES

This article describes the socio-psychological content of gender competence based on scientific and theoretical sources. Gender competence - high-quality, quick and timely mastery of gender criteria and modern gender roles based on social, cultural and national values, as well as the ability and ability to effectively use and demonstrate them at a high level.

The questionnaire "Studying the level of gender competence" revealed the degree of "Intellectual competence," that is, broad thinking, prudence, and the ability to correctly express thoughts.

UDK 94 (575.172)*20*:654.19

OMMAVIY AXBOROT TIZIMIDA TELEVIDENIYENING O'ZIGA XOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

A.K.Utepbergenova*

Kalit soʻzlar: Ommaviy axborot vositalari, soʻz erkinligi, fuqarolik jamiyati, demokratiya, televideniye, radio, telejurnalistika, muharrirlar, redaksiya, televizor, MTRK Oʻzbekiston.

Hozirgi zamon hayotida yangi axborot tovar-mahsulot hisoblanadi. Shu bois axborot texnologiyalarining keng miqyosda rivojlanishi va telekommunikatsiya infratuzilmasining global rivojlanishi ushbu sohani yangi kompyuter tizimlari bilan taʼminlash zaruratini tugʻdirmoqda. XX asr oxirida dunyoning yetakchi davlatlari radioeshittirishning raqamli shakllariga oʻta boshladilar. Maʼlumki, analog signal televizor paydo boʻlganidan beri qoʻllaniladi va tasvir hamda tovushni uzatishning uzluksiz usulidan foydalanadi. Bunday holda, analog signal shovqinga duchor boʻladi, bu ularning sifatining yomonlashishiga olib keladi. Shu bois respublika hukumatining kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi eng muhim qarori raqamlashtirishga oʻtish boʻldi, raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, barcha soha va sohalarga birinchi navbatda, davlat boshqaruvi, taʼlim, sogʻliqni saqlash va qishloq xoʻjaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2020-yilning oʻzidayoq “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari ichki bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklar tashkil etish, ushbu sohani malakali kadrlar bilan taʼminlash boʻyicha 220 dan ortiq ustuvor loyihalar amalga oshirildi.[1]

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish sharoitida teleradioeshittirishning texnik bazasining xususiyatlarini oʻrganish katta ahamiyatga ega, chunki ishlab chiqarish jarayonlari koʻp jihatdan nafaqat tele- va radio dasturlarning balki ommaviy ongiga taʼsir darajasining sifatini belgilaydi. Raqamli televizor raqamli kodlash va maʼlumotlarni siqish yordamida uzatuvchidan signallarni televizorga uzatadi. Bu yaxshi tasvir va ovoz sifatiga ega. Bundan tashqari, raqamli televideniye koʻp sonli telekanallarni koʻrish imkonini bersa, bu sizga turli maʼlumotlarni olish imkonini beradi.

Bu esa, oʻz navbatida, teleradio auditoriyasiga dunyoda roʻy berayotgan voqea-hodisalar, yangi texnologiyalar, taʼlim tizimidagi yangiliklar, biznes yuritish yoki oʻzini-oʻzi rivojlantirish haqida ozmi-koʻpmi xolis maʼlumotlarni qoʻshish imkonini beradi. 2000-yillarda Oʻzbekistonda ham raqamli teleeshittirishga oʻtish dolzarb boʻlib qoldi. Mamlakatimiz birinchilardan boʻlib raqamli televideniye joriy qildi. 2007-yilda Toshkent va Buxoroda yer usti raqamli teleeshittirishlar boʻyicha eksperimental zonalar tashkil etildi, bu esa eshittirishning yangi turiga bosqichma-bosqich oʻtishning boshlanishi edi.[2.c.24]

2007-yildan boshlab “Oʻzbekiston” telekanali koʻrsatuvlari sunʼiy yoʻldosh orqali xorijda efirga uzatila boshlandi. Radio va teledasturlarni internet orqali onlayn uzatish yoʻlga qoʻyildi. 2009-yilda “UZDIGITAL TV” kompaniyasi tashkil etilgan boʻlib, bugungi kunda Oʻzbekistonda

* Amangul Kengesbaevna Utepbergenova– Nukus shahar,
Oʻzbekiston Davlat sanʼat va madaniyat instituti Nukus filiali,
«Ijtimoiy-gumantitar panlar» kafedrasi katta oʻqituvchisi.

raqamli televideniye ni uzatish xizmatlarini ko'rsatuvchi yetakchi operatorlardan biri hisoblanadi. 2011-yilda yuqori aniqlikdagi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan media-markaz foydalanishga topshirildi va bu barcha zamonaviy sifat standartlariga javob beradigan telemahsulotlar yaratish imkonini berdi. Bu mamlakatimiz teleeshittirish rivojining yangi bosqichining boshlanishi edi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli televideniye va radioeshittirishlar shovqin va yomon ob-havoga nisbatan ancha chidamli bo'lib, doimiy ravishda yaxshi tasvir va ovozni ta'minlaydi. Bundan tashqari, raqamli televideniye qamrovi ancha kengroq ya'ni analog televideniye uch yoki to'rtta kanalni ko'rsatishi mumkin bo'lgan joyda raqamli televideniye ko'proq kanallarni ko'rsatadi.[3]

Shunday qilib, 2012-yil 17-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli teleeshittirishga texnik va texnologik jihatdan o'tish buyicha Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qabul qilingan qarorga muvofiq, raqamli televideniye va radioeshittirishga sifat jihatidan o'tishga zamin yaratdi. Raqamli eshittirishga o'tish ikki bosqichda – 2012-2015 va 2016-2017-yillarda amalga oshirildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida o'tish davrida (2017-yil oxirigacha) teleko'rsatuvlar bir vaqtda analog va raqamli formatlardan foydalangan holda amalga oshiriladi. [4.c.21]

Xuddi shu 2012-yilda O'zbekistonda Yevropa DVB-T (Digital Video Broadcasting – Terrestrial) standarti asosidagi 12 kanalli teleko'rsatuvlarga o'tish boshlandi. Raqamli eshittirish dastlab Toshkent shahrini, so'ngra Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Andijon, Namangan, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasini qamrab oldi. Ushbu o'n ikkita kanal "ijtimoiy paket" deb nomlangan (operatorlar va provayderlar tomonidan iste'molchilarga bepul tarqatiladigan ijtimoiy ahamiyatga ega telekanallarning belgilangan to'plami – taxminan. U. A.), jumladan, "O'zbekiston", "Yoshlar", "Toshkent", "Sport" davlat kanallari, shuningdek, nodavlat studiyalari ("TV-Markaz", NTT, SofTS va boshqalar shular jumlasidandir. O'sha paytda Qoraqalpog'iston teleradioeshittirishining raqamli teleradioeshittirishga o'tishi ancha orqada qoldi. Sababi modiy-texnik jihatdan Qoraqalpog'iston televideniyesi va radio sohasi zamonaviy asbob-uskunalar bilan to'liq jihozlanmagan, hozirgi kundagi olib kelinayotgan texnik moslamalar va kompyuter texnologiyalarida ishlovchi mutaxassislar kam. Masalan, 2013-2014-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasida 204 nafar xodim ishlagan bo'lsa, ulardan 59 nafari radiokanalda ishlagan. Eshittirishning umumiy hajmi kuniga 6 soat 36 daqiqani tashkil etdi, televizion ko'rsatuvlar kuniga 18 soatni tashkil etgan. Logistika nuqtayi nazaridan teleradiokompaniya 40 ta kompyuter (ulardan faqat 13 tasi Internetga ulangan), 18ta matritsali printerlar bilan jihozlangan. Nukus teleradiokompaniyasida 178 nafar xodim ishlagan, ularda atigi 7 ta montaj stoli, 14 ta mashina, 2 ta studiya va 6 ta videokamera mavjud edi. Teleradioeshittirish faoliyatini takomillashtirish uchun faqat 2013-yilda 120 million 548 ming so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Biroq, raqamli eshittirishga o'tish uchun respublika tumanlarida uzluksiz efirni ta'minlash, yangi server uskunalarini o'rnatish, Nukus teleradiomarkaziga yangi raqamli uzatgich va radiokanaldan optik tolali oqim o'rnatish, Qoraqalpog'iston radiokanaliga chastota ajratish ("Mash'al" radiostansiyasi chastotasida efirga uzatilgan) zarur edi.[5]

Raqamli teleko'rsatuvning jadal rivojlanishiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2157 «O'zbekiston Respublikasida yer usti raqamli teleko'rsatuv tarmog'ini rivojlantirish uchun Yaponiya xalqaro hamkorlik banki va Yaponiya tijorat banklarining imtiyozli kreditini jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori turtki bo'ldi. Chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, 2013-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab 2 bosqichda raqamli teleko'rsatuv uzatgichlarini olib kirish va o'rnatish ko'zda tutilgan. Radiochastotalar bo'yicha Respublika kengashi qarori bo'yicha, O'zbekiston Respublikasida yer usti raqamli teleeshittirishna joriy etish DVB-T2/MPEG-4 standarti bo'yicha amalga oshirilmoqda.[6]

Masalan, Qoraqalpog'istonda olib borilgan o'lchash natijalari bo'yicha DVB-T2 standartining qator avfzalliklari mavjudligi aniqlangan, ya'ni ko'p miqdordagi tashib

yuruvchilarning soni, ko'p miqdordagi rejimlardan foydalanish, barqaror signalni ta'minlash, yuqori darajadagi xalaqit va shovqinlar ta'sirida yuqori sifatni ta'minlash, bir televizion paketda standart sifatidagi 15tagacha teleko'rsatuv dasturlarini uzatish imkoniyati, eshittirish qamrovini oshirish va hokazo. [7]

Bugungi kunda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalarni bajarishda mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston televideniyesi va radio sohasi uchun ochilgan keng imkoniyatlar, mamlakat tarafidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlar asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. 2015-yilga kelib O'zbekiston teleradiokompaniya tizimidagi telekanallar 26taga, radiokanallar 16taga yetdi. Markaziy telekanallar - «O'zbekiston», «Yoshlar», «Toshkent», «Sport», «Madaniyat va Ma'rifati», «Dunyo bo'ylab», «Mahalla», «Bolajon», «Kinoteatr», «Navo», «Oilaviy», «Diyor» hamda suniy yuldosh orqali efirga uzatilayotgan «O'zbekiston» telekanali ishlab turibdi, lekin Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar hududiy telekanallarida hozircha bunday imkoniyatlar yo'q.[8]

Keyingi yillarda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni va tasirini, ular faoliyati samaradorligini yanada oshirish mediatarmoqlarning huquqiy, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yangilash, texnik va texnologik modernizatsiya qilish, jurnalist kasbining ijtimoiy maqomi va nufuzini ko'tarish, soha xodimlarining mexnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. 2016-yil 26-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2016-2020-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Buning uchun O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi aholiga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha ish rejasini tuzilgan va yaqin kelajakda Qoraqalpog'iston teleradiokompaniya mahsulotlarini xorijda ko'rish imkoniyatini yaratish nazarda tutilgan.

Buning uchun Qoraqalpog'iston teleradio kompaniyasining imkoniyatlari kengaymoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 2016-yil Qoraqalpog'iston davlat teleradiokompaniyasi ijodiy jamoasi tomonidan, jami 134 soat 14 daqiqalik teleseriallar va hikoyalar qoraqalpoq tiliga dublyaj qilingan. Xususan, Qoraqalpog'iston Davlat teleradiokompaniyasining teleseriallari va teleko'rsatuvidan "Bir dostni bolsin", "Arziqli jollar", "Omira sabaqlari", turkumidagi teleromanlar, "Siyqirli bilyard" badiiy filmi va boshqalar shular jumlasidandir. Xorijiy seriallar, filmlar, ilmiy-ko'ngilochar dasturlar, multfilmlardan iborat telemahsulotlarni dublyaj qilish ishlari amalga oshirildi. 2021-yilda radioeshittirishning eng katta efir vaqti ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi dasturlarga (45,1%), shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy dasturlar (24,7%), musiqiy va ko'ngilochar dasturlar (17,1%), axborot dasturlari (13,1%) ajratildi. [9]

Yana bir ahamiyatli masalalarning biri – televideniye va radioeshittirish sohasidagi jurnalist kadrlarni tayyorlash va ularning professional saviyasini ko'tarish bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, so'ngi yillari O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini takomillashtirib borishni ko'zda tutuvchi ko'plab meyoriy hujjatlar ishlab chiqilib, ular izchillik bilan amalga oshirilishi bilan birga teleradiodasturlarning g'oyaviy-badiiy va professional saviyasini oshirib borishda zamonaviy texnika va texnologiyalar, dunyo telejurnalistikasining eng ilg'or tajribalarini o'zlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekiston teleradiokompaniya tizimida malakali kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berilib, bu borada samarali ishlar yo'lga qo'yilgan. Shu kungacha kompaniyaning bir qancha xodimlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida tahsil oldi. O'nlab ijodiy va texnik mutaxassislar har yili Xitoy, Germaniya, Koreya Respublikasi, Malayziya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar telekompaniyalarida malaka oshirib kelmoqdalar. 2014-yilga kelib Qoraqalpog'iston Respublikasi 204 nafar xodimlarining (shundan 59 xodim "Qoraqalpog'iston" radiokanalida) ko'pchiligi yoshlar bo'lib, bugungi kunda faoliyat yuritib kelmoqda. Lekin 2014-yil Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasidan faqat 15 nafar xodim O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasida malakasini oshirish uchun o'quv-seminarlarga qatnashgan. Shu bois Qoraqalpog'iston

teleradiokompaniyasidan ham yetuk, talabchan yoshlarni rivojlangan telekommunikatsion tizimlariga ega bo'lgan mamlakatlardagi kompaniyalarga ijodiy safarga yuborish lozim.

Qoraqalpog'iston sharoitida oliy malakali teleradio jurnalistlarini, shuningdek maxsus texnik xodimlarni tayyorlash maqsadga muvofiq. Masalan, bugungi kunda Qoraqalpog'istonda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-apreldagi PQ-845-sonli qaroriga asosan 2008-yilda tashkil etilib, o'z faoliyatini davom etmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 4-iyundagi 1771-PQ-sonli qaroriga asosan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutlari negizda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali sifatida qayta tashkil etildi. Ushbu oliygohda san'at va madaniyat sohasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanib, jumladan, televideniye va radio yo'nalishi bo'yicha rejissyorlik, texnogen san'ati (ovoz rejissyorligi), madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish, san'atshunoslik (ekran dramaturgiyasi) mutaxassislar ta'lim olmoqda. 2019-2020-yil rejissyorlik (televideniye va radio rejissyorligi) yo'nalishi bo'yicha 16 bakalavr, texnogen san'ati yo'nalishi bo'yicha 9 nafar bakalavr bitirib chiqqan. Kelajakda ushbu yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash miqdorini ko'paytirish lozim. Ta'kidlash joizki, Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasida yangi avlod jurnalistlar hozirda faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Azizbek Kenesbaev, Aybek Kenesbaev, Timur Orazov, Aynura Baltabaeva, Durdana Usnatdinova, Qalbike Tolegenova, Sarbinaz Jaksimuratova va boshqalarni aytib o'tish joiz. Shuningdek, televideniye va radio sohasida muhandislik-texnik xodimlar (A.Kurbanbaev, Sh.Sarikulova, K.Uzakov, P.Baltabaev, T.Toreev, Z.Naurizbaeva, A.Jamalov, O.Begimov, B.Daniyarov, J.Baltabaev, D.Berdimuratov va boshqalar), O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali telejurnalistika va telejurnalistika bo'limi mutaxassislari faoliyat yuritmoqda, shu bilan birga Qoraqalpog'iston davlat universiteti jurnalistika fakulteti bitiruvchilari va yosh kadrlar oqimi davom etmoqda. [10]

Qoraqalpog'iston televideniyesi va radio sohasini rivojlantirish yo'lidagi uchinchi muhim masala – milliy teleradio auditoriyasini shakllantirishdir. Teleradio auditoriyasining o'zi ham miqdoriy, ham sifat jihatidan ajralib turadi. Teleradioauditoriyaning hajmi gazeta, televideniye yoki radio bo'lsin, axborot manbasining ijtimoiy ahamiyati va ta'sir doirasining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Televideniye va radio uchun keng auditoriya – bu davlat, turli jamoat tashkilotlari va fuqarolar birlashmalarining targ'ibot faoliyatining muhim amaliy natijalaridan biridir. [11]

Ma'lumki, televideniye va radio jamoatchilik fikri va ommaviy ongini ifodalash va shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Internetning rivojlanishi va axborot manbalarining sezilarli darajada ko'payishiga qaramay, televizor mamlakatda eng ko'p terilganlardan biri bo'lib qolmoqda. Rus olimi, tadqiqotchi N.Zasurskiyning so'zlariga ko'ra, materiallarning illyustratsiyasi va audiovizualizatsiyasi kuchayganligi sababli, tomoshabin televizorni voqelikning o'ziga xos oynasi deb biladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi o'tgan davrda talablarga davlat idoralari nuqtayi nazardan to'liq javob bergan. Buni davlat organlari va respublika hukumati tomonidan ommaviy axborot vositalarining qattiq nazorati bilan izohlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. «Рақамли Ўзбекистон - 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5-октябрдаги ПФ-6079-сонли фармони // <https://lex.uz/docs/5030957>
2. Гафурова П.А., Матвиенко В.В. Телевидение Узбекистана: история, проблемы, перспективы // Культура и цивилизация. 2019. Т. 9. - № 5А. – С. 217.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида рақамли

- телеэшиттиришга техник ва технологик жиҳатдан ўтиш буйича Давлат дастури тўғрисида»ги ПҚ-1741-сонли қарори // <https://nrm.uz/contentf?doc=266755>
4. Ҳолиқова Д. Рақамли телерадиоэшиттириш тармоғида нодавлат сектори ривожининг истиқболлари // Фуқаролик жамият – Гражданское общество – Civil society. 2012. - №4. – С. 21.
 5. Қорақалпоғистон Республикаси Давлат телерадио компаниясининг жорий архиви. 2014.
 6. Қорақалпоғистон Республикаси Давлат телерадио компаниясининг жорий архиви. 2015.
 7. Ўзбекистон Республикасида ер усти рақамли телекўрсатув тармоғини ривожлантириш учун Япония халқаро хамкорлик банки ва Япония тижорат банкларининг имтиёзли кредитини жалб қилиш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 3 апрелдаги ПҚ-2157-сон қарори // <https://lex.uz/docs/2454607>
 8. 2016 – 2020 йилларда хизматлар соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 26-февралдаги 55-сон қарори // <https://lex.uz/docs/2909071>
 9. Қорақалпоғистон Республикаси Давлат телерадио компаниясининг жорий архиви. 2017.
 10. Қорақалпоғистон Республикаси Давлат телерадио компаниясининг жорий архиви. 2021.
 11. Хамидова Р. Изланиш – бу янгилик яратиш, дегани. 2016, 25-феврал

OMMAVIY AXBOROT TIZIMIDA TELEVIDENIYENING O'ZIGA XOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Maqolada ommaviy axborot tizimida televideniye sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taʼminlash, bugungi globallashuv jarayoni axborot tizimlaridan samarali foydalanish, mamlakatimizda har kimning fikrlash va soʻz erkinligi, axborotni olish, izlash va tarqatish huquqlari, ommaviy axborot vositalarining erkinligi haqida soʻz etiladi.

Shuningdek maqoloda ommaviy axborot tizimida asosan televideniyaning davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishining aniq mexanizmlari jamotchilik nazoratini amalga oshirish tartibi va jurnalistning erkin faoliyat yuritishi uchun qoʻshimcha kafolatlarni tahlil etilgan.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЯ В СИСТЕМЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

В статье речь пойдет о реформе сферы телевидения в системе СМИ, обеспечении свободы информации и слова, современном процессе глобализации эффективного использования информационных систем, свободе мысли и слова каждого в нашей стране, правах на получение, поиск и распространение информации, свободе СМИ.

В статье также анализируются конкретные механизмы государственной поддержки телевидения в системе массовой информации, в первую очередь порядок осуществления общественного контроля и дополнительные гарантии свободной деятельности журналиста.

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF TELEVISION IN THE MASS MEDIA SYSTEM

The article will focus on the reform of the television sphere in the media system, ensuring freedom of information and speech, the modern process of globalization of the effective use of information systems, freedom of thought and speech of everyone in our country, the rights to receive, search and disseminate information, freedom of the media.

The article also analyzes the specific mechanisms of state support for television in the media

system, primarily the procedure for public control and additional guarantees for the free activity of a journalist.

UDK 28-335(092)

**ABDULAZIZ AL-USTUG‘DODIZIY AN-NAXSHABIY
HADISSHUNOS ALLOMA**

**A.O.Xo‘jayorov*
ilmnuri4105@gmail.com**

***Kalit so‘zlar.** Naxshabiy, Nasaf shahri, hadis ilmi, muhaddis, Abdulaziz al-Ustug‘dodiziy, Ustug‘dodiza, “Hofiz al-hadis”, “hofiz”, Isfahon, Iroq, Hijoz, Shom, Misr, “Mu‘jam ush-shuyux” (“Shayxlar qomusi”).*

O‘rta asrlarda Sharqning to‘rtta hadis ilmi markazlaridan va sakkizta madina maqomini olgan shaharlardan biri Nasaf shahri hisoblanadi. Nasaf Movarounnahrda Samarqand va Buxorodan keyin ilm-ma‘rifat jihatidan gullab-yashnagan shaharlardan biri bo‘lib, u yerdan ham ko‘plab ulamolalar va muhaddislar yetishib chiqqan. Samoniylar davrida Nasaf yirik hadis markazlaridan biri edi. Bu davrda hadis ilmi bilan turli tabaqa vakillari shug‘ullanar edi. Ular orasida hokim, qozi, sufiy, mua‘ddib, muazzin kabi turli kasb va soha vakillari bor edi [1].

Nasafdagi hadis ilmining taraqqiyoti haqida manbalardan asosan Abu Xafs Nasafiyning (1068 – 1142) “Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand” hamda Abu Sa‘d Abdulkarim as-Somoniyning (1113 – 1167) “al-Ansob” asarlari ma‘lumot beradi. Bu manbalarning bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, VIII asrdan XII asrgacha o‘tgan vaqt mobaynida Movarounnaxrda 3000 dan ortiq ko‘zga ko‘ringan muhaddislar yashab, o‘z faoliyatlarini olib borganlar. Ulardan 1000 dan ortig‘i Samarqandda, 600 dan ortig‘i Buxoroda, 400 dan ortig‘i Nasafda, 70 dan ortig‘i Shoshda, 60 dan ortig‘i Farg‘onada, 60 dan ortig‘i Keshda, 50 dan ortig‘i Termizda, 40 dan ortig‘i Xorazmda, shu bilan birga Ustrushana, Dabusiyya, Kushoniyya va boshqa mintaqalarda faoliyat olib borgan muhaddislardir [2].

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, Nasaf hadis ilmida mintaqadagi eng yirik markazlar Samarqand va Buxorodan keyingi o‘rinda turgan madaniy markaz edi. Nasafda ilm taraqqiyotining bu darajada yuqoriga ko‘tarilishining asosiy omillaridan biri bu shaharning ko‘hna tarixga ega ekanligidir. Shaharga ta‘rif berarilar ekan, XII asrda yashagan marvlik olim Abu Sa‘d Abdulkarim as-Sam‘oniyning aytgan so‘zlarini keltirish o‘rinlidir: “Movarounnahr shaharlaridan. Avvalgi nomi Naxshab. Bu shaharda qariyb ikki oy turdim va u yerning ko‘p olimidan ta‘lim oldim. Bu shahardan o‘z fanining ko‘p mutaxassisleri yetishib chiqqanlar. Ularning sanog‘iga yetish qiyin...” [3].

IX asrda Nasaf shahri yirik tijorat, hunarmandchilik markazlaridan biri bo‘lib, unda ilm-fan ravnaq topgan. Shahar mamlakat ikkinchi poytaxti Samarqand bilan aloqalari juda yaxshi bo‘lgan. Nasafda boshqa ilmlar bilan bir qatorda hadis ilmi VIII asr oxirlari – IX asr boshlaridan rivojlana boshlagan. Markaziy Osiyoda to‘rtta yirik hadisshunoslik maktabi mavjud edi: Marv, Buxoro, Samarqand va Nasaf. Bu davrda Nasafda Ahmad ibn Muhammad at-Tadayoniy, Hammad ibn Shokir an-Nasafiy, Abdulmu‘min ibn Xalaf an-Nasafiy, Lays ibn Nosir al-Kojariy, XI asrda Abdulaziz ibn Muhammad an-Nasafiy, Muhammad ibn al-Baladiy, al-Hasan ibn Ali al-Hammadiy an-Naxshabiy va boshqalar samarali faoliyat ko‘rsatib turgan [4].

Buyuk muhaddis Imom Buxoriy (810 – 870) o‘zining ilmiy safarlari davomida Nasaf shahrida ham bo‘lgan va u yerdagi hadis ilmining rivojlanishida ham katta hissa qo‘shgan. Nasafda

*Asilbek Otabek o‘g‘li Xo‘jayorov – Osiyo texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi.

В рамках данного исследования были изучены теоретические аспекты правовой природы криптоактивов, проанализированы существующие подходы к их классификации и правовому регулированию в Узбекистане и за рубежом. Для этого были применены следующие методы:

- Формально-юридический анализ - изучение национального и зарубежного законодательства, регулирующего цифровые активы и криптовалюты.

- Системный подход - комплексное рассмотрение криптоактивов как нового класса объектов гражданских прав в системной взаимосвязи с институтами гражданского, финансового и административного права.

- Сравнительно-правовой метод - сопоставление правовых подходов к регулированию криптоактивов в различных юрисдикциях для выявления лучших практик.

Проведенный анализ показал, что вопрос правовой природы криптоактивов является сложным и неоднозначным. В мировой практике выделяются две основные концепции: рассмотрение криптовалют как разновидности цифровых товаров и услуг или как особого класса цифровых активов, имеющих сходство одновременно с деньгами, ценными бумагами и имущественными правами.

Узбекистан относится к числу стран, признающих криптовалюты в качестве цифровых активов особого рода. В соответствии с Указом Президента №ПП-5953 от 2.09.2020 г. "Об утверждении Концепции создания и развития криптобиржи в Республике Узбекистан" криптоактивами признаются "цифровые активы, создаваемые и распределяемые с использованием криптографических методов защиты на основе математического кода".

Особенностью криптоактивов является их функционирование на основе технологии блокчейн без участия централизованного эмитента или контролирующего органа. При этом в зависимости от своей природы и целевого назначения криптоактивы могут выполнять различные функции:

- платежные средства/денежные суррогаты (криптовалюты типа Bitcoin, Ethereum и др.);

- инвестиционные активы для накопления капитала (utility и security токены);

* Якубова Мадинабону Абдумаликовна – преподаватель кафедры Киберправа. Доктор философии по юридическим наукам Ташкентского государственного юридического университета.

- средства учета и передачи нефинансовых активов и прав (NFT-токены).

Отсутствие единого подхода к регулированию криптоактивов и непонимание их сущности создают ряд правовых проблем, в частности:

- Неопределенность правового статуса криптоактивов - допустимо ли их признание в качестве имущества, объектов гражданских прав, платежных средств и т.д.

- Проблемы налогообложения операций с криптоактивами: как определять налоговую базу, какие налоги применять.

- Правовые коллизии при совершении сделок с криптоактивами: вопросы правоспособности сторон, формы сделки, применимого права и др.

- Риски мошенничества и отмывания преступных доходов из-за анонимности и трансграничного характера операций с криптовалютами.

- Необходимость создания инфраструктуры для легального обращения криптоактивов: биржи, кастодианы, регистраторы и пр.

Для преодоления этих проблем требуется формирование целостной системы регулирования на национальном и наднациональном уровнях. Это может включать следующие меры:

Создание правовых дефиниций основных видов криптоактивов и закрепление их правового статуса в законодательстве.

Введение требований к участникам рынка криптоактивов в части лицензирования, организационно-правовых форм, капитала и пр.

Разработка механизмов налогообложения операций с криптоактивами с учетом их специфики.

Установление требований по противодействию отмыванию доходов и финансированию терроризма для операций с криптоактивами.

Обеспечение правовой определенности в сфере имущественных и неимущественных прав на криптоактивы, режима сделок с ними.

Создание судебной практики в вопросах применения норм о криптоактивах при разрешении споров.

Международная гармонизация регулирования для обеспечения совместимости национальных режимов обращения криптоактивов.

Только комплексный и системный подход, сочетающий государственное регулирование с элементами саморегулирования рынка, может обеспечить цивилизованное и безопасное функционирование сферы криптоактивов в интересах участников и общества.

Таким образом, криптоактивы требуют особого внимания со стороны юридической науки и практики в контексте развития цифровой экономики. Несмотря на сохраняющуюся правовую неопределенность, они постепенно становятся полноценными объектами гражданских прав, требующими адекватного правового регулирования на национальном и международном уровнях.

Правовая неопределенность статуса криптоактивов становится серьезным препятствием для дальнейшего развития цифровой экономики. В условиях глобализации финансовых рынков необходимо обеспечить надежную правовую базу для трансграничного обращения криптоактивов и защиту интересов их держателей.

В этой связи международным сообществом предпринимаются попытки гармонизации подходов к правовому регулированию криптовалют и иных цифровых активов. Наиболее системный и проработанный шаг был предпринят Европейским Союзом, принявшим в 2022 году Регламент о криптоактивах (MiCA).

Данный регламент вводит единые правила регулирования выпуска и оборота криптоактивов на территории ЕС с целью обеспечения прозрачности, защиты

инвесторов и предотвращения рисков. MiCA устанавливает требования к:

- *Эмитентам криптоактивов (white papers, соблюдение стандартов и правил);*
- *Провайдерам услуг по обмену и хранению криптоактивов (лицензирование, правила работы);*
- *Операциям с криптоактивами (запрет операций с анонимными инструментами, правила листинга и AML).*

Регламент также определяет правовой статус основных видов криптоактивов и особенности их гражданско-правового режима: возможность признания активов в качестве финансовых инструментов, особенности применения норм договорного права и т.д.

Подход ЕС оказывает влияние и на политику других государств и интеграционных объединений. Так, Евразийская экономическая комиссия работает над согласованием единых правил регулирования оборота цифровых валют и токенов для стран ЕАЭС.

Узбекистан также стремится занять активную позицию в развитии правовой базы для криптоактивов. В 2020 году была утверждена Концепция создания и развития криптобиржи, заложившая основы национального регулирования в этой сфере.

В соответствии с Концепцией, планируется разработать нормативную базу для выпуска, обращения и налогообложения криптоактивов, определить их правовой статус, а также регламентировать деятельность криптобирж и других участников рынка.

На первом этапе развития криптобиржи предусматривается использование криптоактивов исключительно для инвестиционных целей без функций средства платежа. В перспективе возможно расширение сферы применения криптовалют под контролем регуляторов.

Для реализации Концепции потребуются внесение изменений в гражданское, налоговое, банковское и иное законодательство Узбекистана. Ключевыми нормативными актами должны стать:

- *Закон "О цифровых активах", определяющий основные понятия, виды и принципы регулирования;*
- *Законодательные акты о регулировании деятельности криптобирж и обмена криптоактивов;*
- *Изменения в законы о ценных бумагах и инвестициях для приравнивания токенов к финансовым инструментам;*
- *Нормы Налогового кодекса, определяющие порядок исчисления и взимания налогов при операциях с криптоактивами.*

Важнейшим аспектом должно стать закрепление прав собственности и вещных прав на криптоактивы, а также регулирование наследования и иных переходов таких прав.

В сфере гражданско-правового оборота криптоактивов также необходимо решить вопросы определения применимого права, юрисдикции и арбитража, признания и приведения в исполнение иностранных решений по спорам с криптоактивами.

Процесс гармонизации национального законодательства Узбекистана с международными стандартами и передовым опытом должен учитывать особенности развития цифровых технологий в стране, а также обеспечивать баланс интересов участников рынка, государства и общества.

Помимо совершенствования законодательства, важнейшими задачами должны стать формирование благоприятной судебной практики в делах с цифровыми активами, повышение цифровой и правовой грамотности граждан, развитие кадрового потенциала юристов в сфере регулирования криптоактивов.

Решение этих и других актуальных проблем правового регулирования криптоактивов потребует консолидации усилий законодателей, ученых-правоведов, судебной системы,

участников рынка и государственных регуляторов. Только в результате такого комплексного подхода Узбекистан сможет сформировать современную и эффективную правовую среду для развития сферы цифровых активов.

Литература:

1. Башкатов М.Л. Криптовалюты в системе объектов гражданских прав // Юрист. 2019. № 8. С. 32-38.
2. Бублик В.А. Понятие и признаки криптовалют в законодательстве Российской Федерации // Финансовое право. 2020. № 5. С. 25-29.
3. Вишневецкий А.А. Правовая природа криптовалют // Вестник гражданского права. 2018. № 2. С. 31-63.
4. Гринь Е.А., Коваленко Е.Ю. Криптовалюты: правовое регулирование в России и за рубежом // Право и экономика. 2021. № 4. С. 42-49.
5. Ефимова Л.Г. Криптовалюты как объект гражданских прав // Хозяйство и право. 2019. № 8. С. 3-14.
6. Иншакова А.О. Цифровые активы: проблемы правового регулирования // Гражданское право. 2021. № 6. С. 3-8.
7. Кузнецов В.А. Криптовалюты: правовые подходы к регулированию // Предпринимательское право. 2022. № 1. С. 17-24.
8. Лавров В.В. Проблемы правового режима криптовалюты // Финансовое право. 2019. № 5. С. 31-36.
9. Новоселова Л.А. Правовое регулирование криптовалют: российский и зарубежный опыт // Деньги и кредит. 2020. № 3. С. 20-29.
10. Саффер М.Л. Криптовалюты в системе объектов гражданских прав // Юридическая наука. 2021. № 2. С. 45-51.
11. Федоров Д.В. Криптовалюты как особый вид цифровых объектов права // Юрист. 2022. № 4. С. 18-23.
12. Ячменев Е.Н. Криптовалюты: экономические и правовые проблемы регулирования // Вестник Омского университета. Серия "Право". 2021. № 3. С. 105-111.
13. Гражданский кодекс Российской Федерации (часть первая) от 30.11.1994 № 51-ФЗ (ред. от 25.02.2022).
14. Налоговый кодекс Российской Федерации (часть вторая) от 05.08.2000 № 117-ФЗ (ред. от 28.05.2022).
15. "Регулирование криптовалют в России и СНГ" / Под ред. И.В. Кузнецова. М.: Проспект, 2022. 248 с.



KRIPTOFAOL OB'EKTLARINING HUQUQIY TABIATI VA ULARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI

Ushbu maqolada kriptofaol ob'ektlarning huquqiy tabiati va ularni huquqiy tartibga solish muammolari tahlil qilinadi. Kriptofaol ob'ektlarning turli xil tasniflarini va mamlakatlar tomonidan ularni tartibga solishning turli yondashuvlarini ko'rib chiqadi. Kriptofaolliklarni tartibga solish borasidagi muammolar, jumladan, ularning huquqiy maqomi noaniqligini bartaraf etish, soliq solinishi va fuqarolik huquqiy munosabatlari masalalari muhokama qilinadi. Milliy va xalqaro miqyosda kriptofaollarni tartibga solishning yagona tizimini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi. Ular qonunchilikni takomillashtirish, shu jumladan, kriptofaollarning asosiy turlarini aniqlash va ularning huquqiy maqomini belgilash, bozor ishtirokchilariga talablarni joriy etish, soliqqa tortish mexanizmlarini ishlab chiqish va xalqaro muvofiqlashtirish choralari bilan

bog'liq.

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА КРИПТОАКТИВОВ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

В данной статье анализируется правовая природа криптоактивов и проблемы их правового регулирования. Рассматриваются различные классификации криптоактивов и подходы к их регулированию в разных странах. Обсуждаются проблемы регулирования криптоактивов, включая неопределенность их правового статуса, вопросы налогообложения и гражданско-правовых отношений. Даются рекомендации по формированию единой системы регулирования криптоактивов на национальном и международном уровнях. Они касаются совершенствования законодательства, включая определение основных видов криптоактивов и закрепление их правового статуса, введения требований к участникам рынка, разработки механизмов налогообложения и мер международной гармонизации.

THE LEGAL NATURE OF CRYPTO ASSETS AND THE PROBLEMS OF THEIR LEGAL REGULATION

This article analyzes the legal nature of crypto assets and the problems of their legal regulation. It examines various classifications of crypto assets and approaches to their regulation in different countries. The problems of regulating crypto assets are discussed, including the uncertainty of their legal status, taxation issues, and civil law relations. Recommendations are provided for the formation of a unified system of regulation of crypto assets at the national and international levels. They relate to the improvement of legislation, including the definition of the main types of crypto assets and the consolidation of their legal status, the introduction of requirements for market participants, the development of taxation mechanisms, and international harmonization measures.

UDK 37.08

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING IJTIMOIIY FAOL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI

M.T.Hasanova*

Kalit so‘zlar: kompetensiya, ijtimoiy faol, ta‘lim-tarbiya, boshlang‘ich ta‘lim, ma‘naviyat – ma‘rifat, milliy o‘zlik, rivojlantirish.

Kirish qismi. Boy tariximizga asoslanib qat‘iy ishonch bilan ayta olamizki, bu zamindan ko‘plab buyuk allomalar: fozilu-fuzalolar, olimu–ulamolar, siyosatchilaru-tarixchilar, qahramonlaru-sarkardalar, davlat arboblariyu jahongirlar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning ko‘pgina asoslari mana shu tabarruk zaminda yaratilgan va takomillashtirilgan.

Al-Farg‘oniy va Mirzo Ulug‘beklar orqali o‘zbek xalqi va Vatanimiz Yer kurrasidan Samogacha ma‘lum va mashhur bo‘ldi, chunki Samo jismlaridan ikkitasining nomi bu ikki alloma-ajdodlarimiz nomiga qo‘yilgan. Shu sababli ham IX-X asrlarda Sharq fani taraqqiyotida Markaziy Osiyo donishmandlari ijodini musulmon madaniyatining “Oltin davri” deb e‘tirof etildi yoki yaqin o‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Oynai jahon” ning makoni Toshkentdir va “qog‘oz” ning makoni esa qadimiy va hamisha navqiron Samarqanddir.

Bunda quyidagi ma‘lumotni dalil sifatida keltiramiz, chunki ko‘pgina Vatandoshlarimiz “qog‘oz” ning Vatani Xitoy deb biladilar: “qog‘oz bobida shuni aytishni lozim ko‘ramizki, bizningcha, qog‘ozning ilk Vatani qadim Turon, Turkiston, Bugungi O‘zbekiston – qadim Samarqanddir. Yer yuzining sayqali Samarqand shahri buyuk ipak yo‘lining markazida, o‘rtasida joylashgan edi. Undan Sharqqa – Xitoy va Yaponiyaga qancha yo‘l bo‘lsa, g‘arbga – to Andaluziyagacha, qurdoba amirligigacha shuncha masofa bor edi. Madaniy tarzda paxta yetishtirish, ipak qurti boqish dastlab diyorumizda boshlanganligi, keyin boshqa o‘lkalarga tarqalganligi tarixdan ma‘lum. Demak, paxta, ipak tolalari ortilgan karvonlar bilan birga qog‘oz Sharqiy Turkiston, Tibet, Mo‘g‘iliston, Marjurlar davlati orqali Chin va Chimochinga, Yaponiyaga, buyog‘i esa Eron, Arab, Rim, Yunon, Andaluziya va Kastiliyaga yetib borgan, deyish mumkin.”

Metodologiya. Vatanimiz, ona zaminimizda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning dunyo ilm-faniga qo‘shgan salmog‘ini yanada baland ko‘taruvchi quyidagi ma‘lumotlarni e‘tiboringizga havola etamiz: “Hozir birinchi kosmonavt kim bo‘lgan?” – deb kimdan so‘ramang, darhol “Yuriy Gagarin” deb javob beradi. Atoqli olim, shoir va dramaturg Maqsud Shayxzoda “Bizdan so‘rasalar, dunyoda birinchi fazogir Turon o‘g‘loni Farobiy, Beruniylar, zamondoshi Al – Javhariy bo‘ladilar. Kamina Beruniy haqida yangi asar yozish uchun manbalar ko‘rayotib, Al-Javhariy va uning jasorati haqida ma‘lumot uchratib qoldim”, degan edi. Yaqinda esa Turkiyalik olim, professor Usmon Turonning “Turkiy xalqlar mafkurasi” kitobida ushbu satrlarga ko‘zimiz tushib qoladi: “IX asrda Turk faylasufi Farobiy va uning hamshahari Ismoil Javhariy arab tiliga oid “Sixax” nomli ulkan asarni, tog‘asi Ibrohim bin Ishoq esa “Devon ul-arab” kitobini” yozadilar. Shuning uchun Qazviniy: “Ajabki, turk diyoringing eng chekkasida joylashgan Forob shahridan chiqqan bu ikki olim arab tilining ustozlari bo‘ldilar”, deydi. Fizika bilan shug‘ullangan Javhariy o‘zi yasagan qanotlar bilan uchishni mashq qilayotib yiqiladi va shu jarohati ta‘sirida vafot etadi [23].

*Mahmuda Tixtayevna Hasanova – TMCI instituti katta o‘qituvchisi.

Yoshlar oldiga qo'yilgan talablarga e'tibor berilsa, ketma-ketlikda ta'lim-tarbiya olib borilsa, Prezidentimiz Sh. Mirziyoev orzu qilganidek: "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" amalga oshiriladi. Bu orzuni amalga oshirishda dastlab ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda va qolaversa O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni mazmunida barkamol avlodni tayyorlashning qonuniy davlat hujjati sifatida e'tirof etib, bunda birinchidan milliy dasturni to'liq bajarishga erishish, ikkinchidan butun xalqni mazkur sababli ishga to'liq jalb qilish, uchinchidan xalqni mazkur ishlarning mazmun-mohiyatini tushinishga erishish, to'rtinchidan har xil fuqaroning belgilangan vazifalarni bajarilishiga ishonch hosil qilish [13].

Respublikamiz ahliga mustaqillik o'zligimizni anglashni ato etdi va bu sohadagi ishlarimizda tub burilishlar boshlandi. Jumladan, talabalarimizni milliy g'oyalar bilan qurollantirish va ular qalbidagi milliy g'ururni uyg'otish har qachongidan dolzarb masaladir.

Natijalar qismi. Mazkur tadqiqotimizda talabalar ongiga bo'lajak boshlag'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faol shaxs qilib shakllantirish modelining tarkibiy qismlari mazmun mohiyatini singdirishning vosita va yo'llari hamda uning axborotli ta'limoti haqida ma'lumot berishni maqsad qilib qo'ydik.

Qo'yilgan muammoning yechimini topishda quyidagi ishlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi:

- *milliy tarbiyaning nazariy tarixiy asoslari o'rganilib chiqildi va ular Zardushtiylar ta'limoti, uyg'onish davri ta'limoti, jadidchilik harakati namoyondalari ta'limotlari uzluksizlikda (ketma-ketlikda) bitta tizimga keltirildi;*
- *shaxsning ma'naviy kamoloti; mafkuraviy imunitet va g'oyaviy kurashchanlik; sog'lom turmush tarzi va jismoniy madaniyat; boshlang'ich bilim va madaniyatning bugungi kun, kelajak avlod uchun ahamiyati haqida hamda ularning tarixiy ildizlari va hozirgi holati mazmuni to'g'risida ketma-ketlikda tegishli nomlarda kompyuterli o'qitish va nazorat qilish tizimlar ishlab chiqildi;*
- *milliy qadriyatlar, ulug' ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy boyliklar, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlarining tarbiyaviy ahamiyati, milliy tarbiyaning tarixiy asoslarini e'tiborga olgan holda milliy ma'naviy qadriyatlarni o'rganish uchun "Qadriyatlar" nomli kompyuterli tizim ishlab chiqildi;*
- *bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarimizga bugungi kunda o'qishda va boshqa yo'nalishlardagi faoliyat ko'rsatishga davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar haqidagi ma'lumotlar bir tizimga keltirildi;*
- *bo'lajak boshlag'ich sinf o'qituvchilariga ijtimoiy faol kompetentsiyasini rivojlantirish modulining tarkibiy qismlari mazmun mohiyati va ularning talabalarda shakllanadigan fazilatlar va xislatlar yagona tizimga keltirildi;*
- *yuqoridagi ketma-ketlikda ma'lumotlar bazasi (bilimlar banki) tashkil etildi;*
- *ma'lumotlarni axborotga aylantirish mezonini ishlab chiqildi;*
- *tayorlangan axborotlarni kompyuterli tizimda ishlatish algoritmi ishlab chiqildi;*
- *"bo'lajak boshlag'ich sinf o'qituvchilariga ijtimoiy faol kompetentsiyasini rivojlantirish" nomli (kompyuterli tizim tayorlandi).*

Ishlab chiqilgan tizim talabalar qalbi va ongiga ijtimoiy faol kompetentsiyasini rivojlantirish modelining tarkibiy qismlari mazmun mohiyati to'g'risidagi bilimlarini boyitishda mustahkam vosita bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, maxsus tarbiyaviy kurslarni tashkil etishda mavjud o'qitish texnologiyasi, metodikasi tubdan qayta ko'rib chiqilishi, ularni o'rganishni tashkil etish bo'yicha ta'lim-tarbiyaning maxsus mustaqil intellektual (kompyuter) tizimi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Muxokama qismi. Ushbu tizimni uzluksiz ta'lim tizimiga samarali tatbiq etish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- *tarbiya jarayonini tashkil etishda oila, mahalla, turli ta'lim tizimi, tashkilot va muassasalar, jamoat tashkilotlarining faol ishtirokini ta'minlash, ularning mas'uliyati va javobgarligini zamon talablari darajasiga ko'tarish;*
- *bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faol kompetensiyalarini rivojlantirish talablarini, uning mazmunini, shakllarini ilmiy asoslangan holda yaratish, shuningdek bu borada tajriba – sinov ishlarini tashkil etish, baholash uslublarini ishlab chiqish;*
- *barcha talabalar ma'naviy kamolotining o'sish dinamikasi bo'yicha monitoring tizimini ijtimoiy faol shaxsga quyiladigan talablar asosida ishlab chiqish va amalga tatbiq etish;*
- *talabalarining ijtimoiy faol shaxs bo'lib shakllanganlik darajasini aniqlovchi psixodiagnostik uslublarini ishlab chiqish va amalga oshirish;*
- *talaba o'zini-o'zi tarbiyalashning ijtimoiy, pedagogik va psixologik muhitini yaratish;*
- *xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligini inobatga olgan holda ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlariga quyiladigan talablar majmuasi negizida axborot texnologiyalari tizimiga asoslangan tarbiya texnologiyasini ishlab chiqish;*
- *bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi hisoblangan bakalavriat talabalarining individual va rivojlanish qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlarini inobatga olib tarbiya jarayonini tashkil etish.*

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faol komil inson etib shakllantirishga va tayyorlashga hamda tarbiyalashga xizmat qiladigan majmua ishlab chiqilishi darkor. Bu majmua dasturilamal qo'llanma vazifasini o'tashi zarur. Ushbu majmuani yaratishda Prizidentimiz ta'kidlaganidek, "Endi oldimizda nihoyat muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi". Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iborat" [14] – deb ta'kidlab o'tilganidek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faol kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan majmuani yaratishdan iboratdir. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldiga ushbu mushsharaf vazifa yuklanar ekan, biz albatta mutaxassislarni, jumladan, pedagoglarni tayorlashda mana shunga amal qilishimiz kerak. Ijtimoiy faol shaxsning asosiy fazilatlarini va ko'rsatkichlarini uzluksiz ta'lim tizimida bolalar bog'chasidan boshlab ta'lim turlari bo'yicha bosqichma – bosqich shakllantirish maqsadga muvofiq. Barcha ta'lim turlarida talablar majmuasi, tarbiya mazmuni va uni tatbiq etish metodlari ishlab chiqilishi kerak.

Tavsiya etilayotgan metodlar bo'yicha alohida-alohida tadqiqotlar o'tkazilib, har bir ko'rsatkich bo'yicha tahlil qilinadi va ko'rsatkichlar bo'yicha tayorgarlik (tarbiyalanganlik) darajalari aniqlanadi. Jumladan, birinchi metod bo'yicha ma'lumotlar banki har xil shaklda (test, so'rovnomalar va boshqa topshiriqlar shaklida) kompyuterga kiritiladi va ular asosida kompyuterli dasturlar ishlab chiqiladi. Bu kompyuterli dasturlar o'rgatuvchi va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan darajada tuziladi. Bu tuzilgan dastur ma'lum bir bosqichdagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lmasdan ikkinchi bosqichiga o'tishga imkon bermaydi

Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. –T., 2017. –B.25
2. Москальская О.И. Грамматика текста. –М., 1981. 7 с.

3. Новое в зарубежной лингвистике. –М.: Прогресс, 1978. 116 с.
4. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Т.:Xalq merosi, 2003.181-b.
5. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. –Т., 1989. – Б. 9.
6. Гоноболин Ф.И. Книга об учителе. М.: Просвещение, 1965. - 260 с.
7. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом мышлении: Кн. для учителя. -М.: Просвещение, 1987. 190 с.
8. Кормен Т., Лейзерсон Ч., Ривест Р. Алгоритмы: Построение и анализ. -М.: МЦНМО, 2001. 960 с. 9. Дроздикова J.H. Творческая самореализация старшеклассников в условиях системно-целевой дифференциации обучения// Дисс. канд. пед. наук. Казань, 1998. -194 с
9. Хен Д. Педагогика и технология – применение телекоммуникации в образовании// Информатика и образование. Международный спец выпуск, 1996. -с.43-49



***BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING IJTIMOIIY FAOL
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI***

Ushbu maqolada bugungi kun ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

***КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-АКТИВНЫХ
КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ***

В данной статье сегодняшний процесс воспитания и обучения состоит из подготовки подрастающего молодого поколения к жизни на основе социального порядка, отражающего запросы общества. В процессе воспитания и обучения молодые люди приобретают знания, нравы, обычаи, культуру и трудовые навыки, собранные их предками, занимают достойное место в обществе на основе жизненного опыта, личности педагога в формировании своего потенциала и мировоззрение, важны его профессиональные навыки.

***CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY
ACTIVE COMPETENCIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS***

In this article, today's process of education and training consists of preparing the younger generation for life on the basis of a social order that reflects the needs of society. In the process of education and training, young people acquire knowledge, morals, customs, culture and work skills collected by their ancestors, take a worthy place in society on the basis of life experience, the personality of the teacher in the formation of their potential and worldview, and their professional skills are important.

TABIY FANLAR * ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ * NATURAL SCIENCES

UDK 611.91+616-053.5

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA PASTKI JAG‘ SHOXI
UZUNLIGINING YOSHGA MOS KRANIOMETRIK O‘LCHAMLARI
G.J.Ulugbekova, Sh.A.Adxamov***

Kalit so‘zlar: antropometriya, kraniometriya, pastki jag‘, kichik maktab yoshi, tragion (tr)nuqtasi, gonion (gn) nuqtasi, kraniometrik nuqtalar, jinsiy dimorfizm, intensivlik, o‘shish dinamikasi.

Kirish. Kichik maktab yoshidagi bolalar kraniometrik ko‘rsatkichlarining rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishda va ularni yanada chuqurroq tahlil qilishda quyidagilarni aniqlash lozim:

- Kichik maktab yoshidagi bolalarning kraniometrik ko‘rsatkichlarini o‘shish dinamikasini tavsiflash.
- Kichik maktab yoshidagi bolalarning kraniometrik ko‘rsatkichlarini nisbatan intensiv o‘shish davrlarini aniqlash.
- Kichik maktab yoshidagi bolalar kalla suyagi va uning ma‘lum bir qismlari orasidagi o‘zaro nisbatlarni aniqlash.
- Kichik maktab yoshidagi davrda o‘g‘il va qiz bolalar kalla suyagi kraniometrik ko‘rsatkichlari orasidagi jinsiy tafovutlarni aniqlash.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya. Asosiy antropometrik ko‘rsatkichlarning o‘shish jadalligining maksimal cho‘qqisi ikkala jins vakillarida ham 8-9 yoshlar orasiga to‘g‘ri keladi [1].

Yoshlik davrida kefalometrik ko‘rsatkichlarda jinsiy dimorfizm kuzatilib, bu holat ayniqsa yuzning pastki 1/3 qismida kuchliroq namoyon bo‘ladi [2].

Birinchi bolalik, ikkinchi bolalik va o‘smirlik davrlarida bolalardagi ko‘plab kraniometrik ko‘rsatkichlarda jinsiy dimorfizm kuzatiladi [3].

Pastki jag‘ shoxining uzunligi – tragion (tr) va gonion (gn) nuqtalari orasidagi masofaga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichni shtangensirkul bilan o‘lchadik.

Antropometrik tekshiruvni o‘tkazish joyida doimiy qulay harorat bo‘lishi zarur va tekshiruv o‘tkaziladigan xona polining barcha qismi bir xil gorizontal tekislikda bo‘lishi kerak [4].

Material va metodlar. O‘quvchilar ustida olib borilgan tekshirishlar maktabning maxsus tibbiy xonasida o‘tkazildi. Tadqiqot o‘tkazilgan xonalar tabiiy va sun‘iy yorug‘lik bilan ta‘minlandi.

Antropometrik ko‘rsatkichlarni o‘lchash uchun eng qulay vaqt bo‘lib, ertalab och qoringa yoki ovqatlangandan 2-3 soat keyingi payt hisoblanadi. Kunning o‘rtasida odam tanasining uzunligi muskullar tonusining susayishi hisobiga 2-4 santimetr ga kamayadi [4].

Ilmiy tadqiqotimizga oid kraniometrik tekshirishlarning asosiy qismi ertalab soat 8:00 dan 12:00 gacha o‘tkazildi. Maktablardagi ayrim sinflarda o‘qish vaqti kunning ikkinchi yarmida ekanligini hisobga olib, soat 14:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida o‘tkazildi.

* Г.Ж.Улугбекова - т.ф.н., Андижон давлат тиббиёт институти Анатомия ва клиник анатомия кафедраси доценти. Ш.А.Адхамов - Андижон давлат тиббиёт институти педиатрия факултети талабаси.
«Yosh olimlar axborotnomasi» – «Вестник молодых ученых» – «The bulletin of young scientists»

Boshning antropometrik ko'rsatkichlarini o'lchashda Speranskiy V.S., Zaychenko A.I. (1980,1988) va Avtandilov G.G. (1990) usullaridan foydalanildi. Ko'rsatkichlarni o'lchash jarayoni bolalar tik turgan holatda amalga oshirildi.

Kraniometrik ko'rsatkichlarni o'lchash jarayonida Marthin R. (1928) tomonidan tavsiya etilgan kraniometrik nuqtalardan foydalanildi.

Chunki Marthin R. ning raqamli belgilarini qo'llash butun dunyo olimlari uchun tushunarli, shuningdek gap qanday belgi to'g'risida ketayotganligi haqida aniq ma'lumot beradi [5].

Natijalar. Pastki jag' shoxi balandligi ko'rsatkichi 7 yoshli o'g'il bolalarda $4,56 \pm 0,26$ smga; 10 yoshda $5,60 \pm 0,14$ smga va 12 yoshda $6,22 \pm 0,14$ smga teng bo'ladi. Qiz bolalarda esa 7 yoshda $4,82 \pm 0,16$ smga; 10 yoshda $5,46 \pm 0,16$ smga va 12 yoshda $6,14 \pm 0,26$ smga teng bo'lishini olingan tadqiqot natijalaridan ko'rishimiz mumkin.

Bu davrda (7-12 yoshlar orasidagi davr) ko'rsatkich 36 % ga oshadi. 7-12 yoshli qizlarda ko'rsatkich 27 % ga ortadi.

Tadqiqotdan olingan natijalardan ko'rishimiz mumkinki, har ikkala jins vakillarida ham o'rganilayotgan yoshlarda ko'rsatkichlarning bir maromda kattalashishini kuzatish mumkin.

1-jadval. 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davrda pastki jag' shoxining balandligi ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi ($X \pm m$, sm da)

Yoshi	7	8	9	10	11	12
O'g'il	$4,56 \pm 0,26$	$5,24 \pm 0,16$	$5,42 \pm 0,34$	$5,60 \pm 0,14$	$6,02 \pm 0,12$	$6,22 \pm 0,14$
Qiz	$4,82 \pm 0,16$	$5,16 \pm 0,24$	$5,36 \pm 0,20$	$5,46 \pm 0,16$	$5,94 \pm 0,20$	$6,14 \pm 0,26$

Xulosa. Pastki jag' shoxi balandligi 7-12 yoshdagi bolalarning yoshiga va jinsiga mos ravishda o'sishi kuzatiladi.

Pastki jag' shoxi balandligi o'lchami 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davrda o'g'il bolalarda $4,56 \pm 0,26$ smdan $6,22 \pm 0,14$ smga ortadi, qiz bolalarda esa bu ko'rsatkich mos ravishda $4,82 \pm 0,16$ smdan $6,14 \pm 0,26$ smga yetishi kuzatiladi.

Adabiyotlar:

1. Platonova N.A. Morfofunktsionalnye osobennosti organizma detey korennoy naseleniya Respubliki Saxa (Yakutiya) na prepubertatnom etape ontogeneza: Avtoreferat dis. . . . kand. med. nauk. - Novosibirsk, 2005.
2. Gorelik Ye.V. Varianty polojeniya chelyustey v sagittalnoy ploskosti pri sformirovavshemysya ortognaticheskom prikuse postoyannykh zubov: Avtoref. dis. . . . kand. med. nauk. - Volgograd, 2006.
3. Izmaylova T.I. Zakonomernosti morfogeneza kraniofatsialnogo kompleksa v period smeny zubov u detey s fiziologicheskoy okklyuziyey: Avtoref. dis. . . . kand. med. nauk. - Volgograd, 2006.
4. Martirosov E.G. Metody issledovaniya v sportivnoy antropologii. - M.: Fizkultura i sport, 1982. - s. 9-13.
5. Tegako L.I., Salivon I.I. Osnovy sovremennoy antropologii. - Minsk: Universitetskoye, 1989. - s. 39-81.
6. Speranskiy V.S. Zaychenko A.I. Forma i konstruksiya cherepa. - M.: Meditsina, 1980. - 278 s.
7. Avtandilov G. G. Meditsinskaya morfometriya. - M.: Meditsina, 1990. - 384 s.

8. Ulug'bekova G.J., Jalolov I.A., Adhamov Sh.A. 7-12 yoshdagi bolalarda yuzning o'rta kengligi kraniometrik ko'rsatkichlari. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi-2023, Xiva, 5-2/, 255-257-b.
9. Ulug'bekova G.J. Adhamov Sh.A. Profilaktik tibbiyotda antropometriya: 7-12 yosh toifasidagi bolalarda boshning gorizontal aylanasi o'sish dinamikasining tahlili. Zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolari yosh olimlar xalqaro anjumani to'plami, 2023, Toshkent, 182-183-b.
10. Ulug'bekova G.J. Adhamov Sh.A. Kichik maktab yoshidagi bolalarda yuzning morfologik balandligi o'sish dinamikasi. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlar, 2023, Toshkent, №3/1/1, 160-161-b.
11. Ulug'bekova G.J. Adhamov Sh.A. Profilaktik tibbiyotda antropometrik tadqiqotlarning o'zni. "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari to'plami, 2023, Qo'qon, 227-231-b.
12. Ulug'bekova G.J., Adhamov Sh.A. Kraniometrik tadqiqotlar: 7-12 yoshdagi bolalarda boshning bo'ylama diametri o'sish ko'rsatkichlari. "Yosh olimlar kuni" Respublika xalqaro talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2023, Toshkent, 808-809-b.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA PASTKI JAG' SHOXI UZUNLIGINING YOSHGA MOS KRANIOMETRIK O'LCAMLARI

Ushbu ilmiy maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda pastki jag' shoxining uzunligi kraniometrik parametrlarining o'sish dinamikasini tahlil qilish maqsadida olib borilgan kraniometrik tekshiruv natijalari yoritilgan. Kraniometrik ko'rsatkichning o'sish dinamikasi Izboskan tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi 165 nafar bolalardan olingan kraniometrik o'lchov natijalari misolida tahlil etilgan.

ВОЗРАСТНЫЕ КРАНИОМЕТРИЧЕСКИЕ ИЗМЕРЕНИЯ ДЛИНЫ НИЖНЕЧЕЛЮСТНОГО РОГА У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В данной научной статье описаны результаты краниометрического обследования, проведенного с целью анализа динамики роста краниометрических показателей длины нижнечелюстного рога у детей младшего школьного возраста. Проанализирована динамика роста краниометрического показателя на примере результатов краниометрических измерений, полученных у 165 детей младшего школьного возраста, проживающих в Избосканском районе.

AGE-APPROPRIATE CRANIOMETRIC MEASUREMENTS OF THE LENGTH OF THE MANDIBULAR HORN IN PRIMARY SCHOOL-AGED CHILDREN

This scientific article describes the results of the craniometric examination conducted in order to analyze the growth dynamics of the craniometric parameters of the length of the mandibular horn in children of primary school age. The dynamics of craniometric index growth was analyzed on the example of craniometric measurement results obtained from 165 children of junior school age living in Izboskan district.

UCHINCHI RENESSANS YOSH OLIMLARI: ZAMONAVIY VAZIFALAR, INNOVATSIYA VA ISTIQBOL

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi №16-son buyrug‘iga muvofiq 2024-yil 3-may kuni soat 10.00 da O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidiumining katta majlislar zalida O‘zR FA Yosh olimlar kengashining «Uchinchi renessans yosh olimlari: zamonaviy vazifalar, innovatsiya va istiqbol» mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi

Mazkur anjumanga turli mahalliy va xorijiy (Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Pokiston) ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta’lim muassasalari tadqiqotchilari, jumladan, doktorantlar va mustaqil abituriyentlar, magistrantlar va boshqa mutaxassislar, shuningdek, milliy va xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan yuzdan ortiq yosh olimlar, OAV vakillari, shuningdek, milliy va xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan 200 dan ortiq yosh olimlar



ishtirok etdilar.

Anjumanning yalpi majlisini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yosh olimlar kengashi raisi S.S.Gulyamov olib bordi.

Konferentsiya yalpi yig‘ilishini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Bosh ilmiy kotibi G‘ayrat Ataxanovich Bahodirov ochib berar ekan, bugungi kunda davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri yoshlarni ilm-fan sohasida faol qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilayotgani, loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro konferentsiya va forumlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega olimlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlovchi ilmiy tashkilot va markazlar ochilayotganini ta’kidladi.

Anjuman ishining yalpi majlisida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining

akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Abu Rayxon Beruniy nomidagi davlat mukofotining laureati, tarix fanlari doktori, taniqli tarixchi-arxeolog olim akademik Ahmadali Asqarov, Toshkent davlat agrar universiteti professori, akademik, Do‘stlik jamiyati rais o‘rinbosari Saidasror Saidaxmedovich Gulyamov, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti rektori Shakarboy Janikulov, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti professori Morteza Hamidreza Amirshaybanilar so‘zga chiqib, 2018 yildan hozirgi kungacha 500 dan ortiq yosh olimlar Rossiya, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Isroil kabi dunyoning 30 dan ortiq rivojlangan mamlakatlarida ilmiy amaliyot o‘tashganlari, amaliyot davomida yosh olimlar ilmiy izlanishlar olib borib, tajriba almashish orqali xorijiy ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlaganliklarini ta’kidlab, ushbu xalqaro konferensiya yoshlarning xalqaro innovatsion hamkorligini yanada rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shishiga, turli mamlakatlar olimlari o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlashga, shuningdek, dolzarb zamonaviy muammolarni hal yetish uchun yosh mutaxassislarni jalb yetishga ishonch bildirdilar.



Shundan so‘ng anjuman quyidagi sho‘ba yo‘nalishlarida o‘z ishini davom ettirdi:

1. Fizika-matematika va texnika fanlari (tegishli sohalarda).
2. Tabiiy fanlar (tegishli sohalarda).
3. Ijtimoiy va gumanitar fanlar.



Sho‘ba yig‘ilishlarida konferensiya ishtirokchilari fizika, matematika, mexanika, kimyo, biologiya, huquq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, psixologiya,

sotsiologiya va boshqa bir qator fanlarning soʻnggi tadqiqotlari natijalarini muhokama qildilar. Ekspertlar va shoʻba moderatorlari ularni baholab bordilar.

Shoʻbalar ishi doirasida yosh tadqiqotchi olimlar fizika, matematika, mexanika, biologiya, qishloq xoʻjaligi, tibbiyot, huquq, sotsiologiya va boshqa bir qator fanlarning soʻnggi tadqiqotlari natijalarini muhokama qildilar. Anjuman doirasida ishtirokchilar oʻrtasida **“Eng yaxshi maqola”** nominatsiyasi boʻyicha tanlov oʻtkazildi. Tanlov natijalariga koʻra quyidagi ishtirokchilar gʻolib, deb topilib, OʻzR FA Yosh olimlar kengashi, Birlashgan kasaba uyushma qoʻmitasi, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika institutining **Diplom, Sertifikat, Nishon va qimmatbaho sovgʻalari** bilan taqdirlandilar:

Fizika, matematika va texnika fanlari yoʻnalishida

1. I. Chorjeva – I oʻrin.
2. N. Yuldasheva – II oʻrin.
3. I. Rustamov – III oʻrin.

Tabiiy fanlar (ixtisoslashgan sohalar) yoʻnalishida

1. F. Toʻraqulov – I oʻrin.
2. J. Jalilov – II oʻrin.
3. F. Zulpanov – III oʻrin.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar yoʻnalishida

1. A. Abdullaev – I oʻrin.
2. Sh. Xaydarov – II oʻrin.
3. M. Eshonov – III oʻrin.



Anjumanda Yosh olimlar kengashi raisi Said Saidaxrarovich Gulyamov, Birlashgan kasaba uyushmasi kumitasi raisi Sherzod Sultonbaevich Juraevlar soʻzga chiqib, ilm-fan va taʼlim sohasidagi dolzarb masalalar, shuningdek, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yosh olimlar kengashi bilan hamkorligining uzaro innovatsion masalalarini muhokama qilish imkonini beradigan maydonga aylanganini taʼkidladilar.

Ushbu tadbir davomida qilingan maʼruzalar konferensiyaning "Uchinchi Renessans yosh olimlari: zamonaviy muammolar, innovatsiyalar va istiqbollar" deb nomlangan alohida

materiallari to‘plamiga kiritilib, har bir muallifning ishiga DOI raqami olindi va to‘plam Google Scholar bazasida indekslanish uchun kiritildi.

Muhokamalar davomida mamlakatimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalari, ilmiy jamoatchilik va pedagoglar oldida turgan vazifalar, xususan, ularni amalga oshirishning kelgusidagi amaliy mexanizmlari belgilab olindi.

Tillayeva Gulsanam Hamdamovna
falsafa fanlari nomzodi, dotsent. O‘zbekiston
Respublikasi Fanlar akademiyasi
Yosh olimlar kengashi raisi o‘rinbosari.
Toshkent davlat agrar universiteti “Ijtimoiy-
gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti.